

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

AXMEDOV I.R.

**KASBIY PEDAGOGIKA
(O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA)
1-QISM**

TOSHKENT - 2014

Bugungi kunda Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligining davlat miqiyosidagi asosiy vazifalaridan biri, zamonaviy ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, o'z istagi va xoxishiga qarab kasb tanlash, butun hayoti davomida o'z kasbga sadoqatli bo'lish hislarini shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra "Kasbiy pedagogika" fani dasturi asosida yuksak va samarali ta'lim jarayonini tashkil etib, malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash davlat oldidagi asosiy dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Kasbiy pedagogika" kursining fanlar tizimida tutgan o'rni, mazmuni, maqsad va vazifalari, kasbiy ta'lim pedagogikasi qonuniyatlari, kasb ta'limi tamoyillari, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti, o'quv jarayonida o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar, talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash va ularni qayta tayyorlash, hamda malaka oshirish vazifalari va uning imkoniyatlari batafsil ko'rsatib o'tilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma barcha bakalavr kasbiy ta'limi yo'nalishdagi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda barcha kasbiy ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatadigan talabalar, mutaxassislar va yosh o'qituvchilar uchun asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Muallif: Pedagogika fanlari doktori, professor **Axmedov I. R.**

Mas'ul muharrir: Pedagogika fanlari doktori, professor **Xudoyqulov X.J.**

Taqrizchilar: Biologiya fanlari nomzodi, dotsent **Tursunova M.A.**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent **Qodirov U. D.**

Kirish

Vatanimizdagi mustaqil xuquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yoʻlidagi ishlar yosh avlodlarimizning imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga va ularning bilim, aql, ma'naviyat va madaniyat tomonlaridan rivojlanishi, tanlangan kasbga ega boʻlishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bu oʻz navbatida yoshlarimizning butun insoniyat yaratgan fan, texnika va madaniy boyliklarini oʻzlashtirishiga, bilim olishiga va kasbini chuqur oʻrganishiga imkon yaratilganligini koʻrsatadi. Ta'lim-tarbiya sohasida hamma vaqt ham oʻquvchi-talabalarni, butun pedagogik jamoani bu ishlarga toʻgʻri yoʻnaltira olish bir xil imkoniyati boʻlavermaydi.

Ushbu taqdim etilayotgan "Kasbiy pedagogika" nomli oʻquv-uslubiy qoʻllanma Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq kelajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini umumiy oʻrta, oʻrta maxsus kasb-hunar va oliy maktabda ta'lim-tarbiya jarayoniga nazariy va metodik tomonlardan yondoshishga oʻrgatish muammolarini oʻz mazmunida yoritishga harakat qiladi.

Komil insonni shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish Oʻzbekiston pedagoglari oldida asosiy maqsad qilib qoʻyilgan vazifa hisoblanadi. Ana shu vazifalaridan biri bu jismoniy sogʻlom va barkamol avlodning funksional, psixik va boshqa xususiyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash va shular bilan bogʻliq jismoniy madaniyatga oid har bir oʻquvchi shaxsning bilim, koʻnikma va malakalarni kuchaytirishdir. Ma'lumki, Kasbiy pedagogika fani umumiy pedagogika faniga nisbatan farqlanadi, chunki faqat oliy oʻquv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni ularning mutaxassisligi boʻyicha pedagog boʻlish va boʻlmasligiga qarab, ya'ni shu faoliyat sohasida ta'lim-tarbiya orqali oʻquvchi yoshlarning inson sifatida rivojlanishiga yordam berishi, uning shakllanishida bilimligi, ma'naviyat va madaniyatligi, aqliy salohiyati, ruhiy va jismoniy holati, hulq-atvori va insoniylik sifatlarini oʻzlashtirishga qaratilgan. Bu uchun har bir mutaxassis - pedagog nafaqat ta'lim - tarbiya maqsadi va vazifalari, tamoyillari va mazmun-mohiyati, metod va usullari, shakl va vositalarini aniq bilishi, balki oʻquv jarayonni rejalashtirish va tashkil etish, yangi pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan keng foydalanish, oʻquv-tarbiya ishlarini bolaning bilim darajasi, oʻzlashtirish turi, qobiliyat va imkoniyatlari, hulq-atvori, mentaliteti va temperamentiga qarab optimal olib borishdan iborat. Bundan tashqari kasbiy pedagogika fani oldiga kelajak mutaxassis-pedagogni milliy mafkuramiz boʻyicha yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, haqiqiy oʻzbek pedagogining keng qamrovli sifatlarini (odob-ahloq va vijdoniyligi, insonparvar va vatanparvarligi, tashqi koʻrinishi va ichki dunyosi bilan namuna boʻlishi) shakllantirish vazifalari qoʻyiladi.

Maktabdagi jismoniy tarbiyaning shakli bu majburiy oʻquv jarayonidir. Jismoniy tarbiya - oilaviy, maktabdan tashqari, maxsus va qoʻshimcha, oʻz-oʻzini tarbiyalash

jarayonlarida ham yuzaga keladi. Uning ijtimoiy qiymatli natijalari jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish, bilimlar, harakatli ko'nikma va malakalar, sog'lom turmush tarziga taalluqli ko'nikishlar, bo'sh vaqtni ommaviy sport bilan shug'ullanish hisoblanadi. Jismoniy tarbiya kishining jismoniy va ruhiy salomatligiga, organizmni turli kasalliklarga qarshilik ko'rsatishning kuchaytirishiga olib keladi. Zero, jismoniy tarbiya shaxsning rivojlanishiga har tomonlama ijobiy ta'sir etadi.

Shuning bilan o'quvchi - talabalarning jismoniy tayyorgarligida bir qator muammolar bor. Ularning barchasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylari kasbiy darajasiga bog'liq. Shu o'rinda kasbiy ta'lim hajmi va sifati, jismoniy tarbiya mutaxassislariga kasbiy bilim berish, ko'nikma va malakalarga o'rgatish bilan bog'liq ta'lim masalalarida yechimini topmayotgan masalalar haqida to'xtalib, ushbu muammolarni bir aniq yechimini topishda "Kasbiy pedagogika" fani katta ahamiyatga ega.

Kasbiy pedagogika haqli ravishda mutaxassislik asoslarini o'rgatuvchi ustuvor fanlardan biriga aylanishi kerak. Bu uchun Kasbiy pedagogika fanining metodologiyasi, mazmuni, ta'limning tashkiliy shakllarida katta islohiy o'zgarishlar bo'lishi darkor. O'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratda o'z aksini topishi lozim. Bu borada Kasbiy pedagogika ikki ma'noda tushuniladi: o'z kasbi bo'yicha barcha o'quv yurtlarning o'quvchi-talabalarga ta'lim-tarbiya berishga o'rgatish, hamda o'z kasbi bo'yicha o'rta maxsus kasb-xunar o'quv yurtlarning o'quvchilarni aniq mutaxassislikka o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiya berishga hisoblanadi. Mazkur fanning asosiy maqsadi bu ta'lim-tarbiya masalasi, ya'ni insonni komillikka erishtirish masalasiga qaratiladi. Biz jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi-murabbiy kasbi haqida gapirar ekanmiz, bu mutaxassislik xususida Kasbiy pedagogika fanida ikki ma'noda qo'llash mumkin, chunki bugungi bakalavrlar ertaga magistraturada o'qitilib, egallagan sohalari bo'yicha oliy ta'lim tizimida ishlash huquqiga ega bo'ladi. Shu sababli ham ularga mazkur fan asqotishi shubhasiz.

Kasbiy pedagogikaning metodologik asosini talabalar yaxshi o'rganib, yangicha fikrlash asoslarini egallashlari, pedagogikaning ilg'or tajribalarini o'rganib, zamonaviy sifatlarni o'zlarida shakllantirishlari lozim.

Oliy o'quv yurtlari uchun Kasbiy pedagogika kursini o'qitishni quyidagi talablar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- fan asoslarini ongli va chuqur egallash uchun o'quv ishlarni yangi pedagogik texnologiyalar tizimida va unga interfaol metodlarni qo'shilgan holda olib borish;
- kasbiy pedagogika fanining metodologik, pedagogik va psixologik asoslarini ochib berish;
- talabalarni o'zbek halki va butun insoniyat erishgan gumanistik qadriyatlarga, milliy g'oya va milliy mafkuraga suyangan holda Kasbiy pedagogika fanining o'ziga xos ilmiy-amaliy asoslari bilan qurollantirish;

- “kasbiy ta'lim-tarbiya”, “kasbga ega bo‘lish”, “kasbni chuqur bilish”, “ o‘zining kasbiga kuchli va raqobatbardosh bo‘lish”, “yangi pedagogik texnologiyalar”, “pedagogik ijod” va boshqa shu kabi tushunchalarni asosiy ma'naviy-ma'rifiy va kasbiy sifatlarini ta'riflagan holda, ularning filosofik, fiziologik va psixologik asoslarini ko‘rsatib berib, ta'lim-tarbiya ishlarni shakllantiruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi tomonlarini ochish;

- kasbiy ta'lim-tarbiyani hayotga joriy qilish uchun talabalarni umumpedagogik va Kasbiy pedagogik ilmiy-amaliy asoslari bilan qurollantirish;

-talabalarning ta'lim-tarbiya mexanizmlarini samarali o‘zlashtirish maqsadida o‘qitish jarayonni ijodiy fikrlash, muammoli, evristik, tadqiqot, amaliy-nazariy mashg‘ulotlar, interfaol va o‘yinli metod va vositalar bilan olib borish.

Prezident Islom Karimov yosh avlodni tanlangan kasbi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, raqobatbardosh mutaxassis kadr bo‘lishi, milliy istiqlol mafkurasi asosida shakllanishi, bugungi kundagi asosiy maqsadlarimizning tarkibiy qismi bo‘lishi va uning hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida alohida ta'kidlab o‘tganlar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo‘lib, o‘z yurti va xalqiga sitqidildan mehnat qilishi, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o‘rgatishni nazarda tutadi. Chunki zamonaviy kadrlar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifa - bu iqtidorli kasb sohibi sifatida bilim-malakalari, qobiliyatlari, mahorati va ijodini ishga solib o‘zi va jamoa mehnatini oqilona tashkil etishda faoliyat ko‘rsatishdir.

**I-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA**

*Aytsang - unutib qo'yadi, ko'rsatsang - vaqtincha xotirasida qoladi, ishga
kiritsang - umrbod esida saqlaydi.* **Konfutsiy**

1.O‘zbek milliy pedagogikasining komil inson ta'lim-tarbiyasida tutgan o‘rni

- A) O‘zbek milliy pedagogikasini paydo bo‘lishi.
- B) Zardushtiylik ta'limoti. Islom dini ta'limoti.
- V) Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.

Tayanch so‘zlar: *milliy ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, aqliy, axloqiy, amaliy, jismoniy sifatlar, ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal, pedagogika, komil inson, ta'lim-tarbiya, predmet, ob'yekt.*

A) O‘zbek milliy pedagogikasining paydo bo‘lishi

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish mazmun-mohiyati davrlar o‘tishi bilan rivojlanishga qarab taraqqiy etib kelganligini nazarda tutmasdan turib, o‘qitish reja va dasturini tuzib bo‘lmaydi. Ta'lim-tarbiya bu birinchi navbatda hayotiy tajribani bir avloddan keyingi avlodga taqdim etishdir. O‘zbek xalqining bu sohadagi tajribasi juda boy. Hozirgi zamon pedagogika fani ta'lim-tarbiyaga oid ota-bobolarimizning fikr va g‘oyalarni o‘zlashtirishga, xalq pedagogikasi manbalarni, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o‘rganishga hamalohida etibor bermogda. Shuni ta'kidlash lozimki, o‘zbek xalqining nihoyatda boy madaniy-ma'naviy merosi o‘zida kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida buzilmas poydevor vazifasini o‘taydi. Ta'lim-tarbiyani o‘rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini insoniyat butun hayoti davomida u bilan shug‘ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu jarayonda ajdodlarimiz tarbiyaviy ta'sirining samarali usullari va manbalarini qidirib hayot davomida yosh avlodga qoldirmogda. Buning natijasida tarbiya haqidagi g‘oyalar, nazariya va amaliy bilimlar paydo bo‘la boshlagan. Bu esa pedagogika fanining paydo bo‘lishiga olib kelgan.

O‘zida kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, uning qanday shakllanishi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Buning ijtimoiy funksiyasi avloddan avlodga oilaviy, mehnat, ijtimoiy va siyosiy tajribani o‘tkazishi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu tajriba insonning madaniyati, san'at, ilmi, tili, ma'rifat va odob-axloq qoidalari bilan ifodalab beriladi. Har bir davlat tizimi, ijtimoiy munosabatlar,

insoniyat istiqboli, uning hayot va turmush darajasi san'at va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya inson jamiyati paydo bo'lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi. Ko'p asrlar ilgari O'zbekiston xozirgi hududida ibtidoiy jamoa-urug'chilik tuzumi davrdagi bolaning ta'lim-tarbiyasi asosan oilada (qiz-bolalar ayollarning, o'g'il-bolalar voyaga yetishlari bilan erkaklar davrasida), jamoa, mehnat va ov maskanlarida bo'lib o'tar edi. Yosh bola tug'ulishi bilanoq ota-onalar parvarishi orqali atrof-muhit, odamlar bilan munosabat va muloqot, mehnat bilan tanishadi. Turmush va mehnat faoliyati boshlanishi bilan halol mehnat bilan oziq-ovqat topishi, ishlab chiqarish tajribasi kabi ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Shu jarayonda bolada aqliy, ruhiy va jismoniy kamolot, ma'naviyat va madaniyat, odob va axloqiy qarashlar shakllanadi va rivojlanadi. Mehnatda bola dehqonchilik, chorvachilik, uy, mehnat va ov uchun qurollarni ishlab chiqarishlarni o'zlashtirib oladi. Yoshlarga o'rgatilgan mehnat ko'nikma va malakalari ularni tabiat fojialaridan o'zini va oila a'zolarini saqlash, yerdan yaxshi hosil olish, chorvachilikni ko'paytirish, ovda kuchli, chaqqon va epchil bo'lish, jamoasi bilan birgalikda qiyinchiliklarni yengish, ya'ni yaxshi yashash uchun bor kuchi va aqlini ishga solish kerak bo'lsa, hayot davomida kurashishga tayyor bo'lish, aql-idroqli, qobiliyatli, xushmuomala va odobli bo'lib o'sishlariga xizmat qilardi.

O'zbek xalqi hayot va mehnat jarayonida, borliqdagi narsalar va vaziyat-xodisalarga munosabatlari asosida o'z dunyoqarashi, qadriyatlari va aqidalariga tayanib, falsafa va pedagogik fikr va g'oyalarini xalq og'zaki ijodidan o'rgangan. Bu fikrlar "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam-doston", "Barchinoy", "Farxod" mifologik dostonlarda ifodalangan. Xalq ijodi bo'lmish bu dostonlar xalq pedagogikasidan o'zbek millatining yosh avlodni hayotga tayyorlash va tarbiyalash vosita va usullari sifatida qo'llanilgan. Shu jihatdan, bu dostonlar yoshlarni davr talablariga muvofiq komil inson bo'lib yetishishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llanilgan.

O'zbek xalq pedagogikasi hali maktab va maqsadli o'qitish bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq oila va atrofdagi jamiyat orqali yosh bolalarda aql-idroq, odob-axloq, mehnatsevarlik, udda-buronlik, iste'dodlik, jismoniy va ruhiy salomatlikka tayanish, jangovarlik, insonparvarlik, mehr-murvatlilik, do'stlik xislatlarini shakllantirish va kuchaytirish usullari hayotiy tajribadan kelib chiqib paydo bo'ldi va rivojlandi. Odamlar o'sha paytda ham bilganki insoniyat bu dunyoda yashash uchun vaxshiylik, qonho'rlik, o'g'rilik, urush va mojaro, odamizotni qiynash bilan mutlaqo maqsadga erishib bo'lmaydi, balki shuning uchun tinchlik, vijdoniylik, insonparvarlik, halol mehnat kerak. Xalq pedagogikasidan kelib chiqqan milliy urf-odat va an'analarimiz jamoa ahlining o'z-o'zini anglashiga, ijtimoiy burchini bajarishiga, har bir aqli inson shaxs bo'lishiga intilgan. Xalqimiz hayot kechirishi, tinchlikni saqlash va sog'lom, kasbga ega, mehnatsevar avlodni

o‘stirishiga xatti-xarakatlari yo‘l-yo‘riqlarimizni bilib olishlaramizga asosiy omil bo‘ladi.

B) Zardushtiylik ta'limoti. Islom dini ta'limoti

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ta'lim-tarbiya haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g‘oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti, buyuk pedagogik fikrlar o‘zbek xalkimiz uchun muqaddas bo‘lgan “Avesto” kitobida ham o‘z ifodasini topgan va qimmatli fikrlar talqin etilgan. Islom dini kelmasdan oldingi davrlarda O‘rta Osiyo xududida zardushtiylik dinining xalqimizga nisbatan ta'siri kuchli edi. Zardushtiylik dini o‘sha davrdagi O‘rta Osiyo davlatlar ijtimoiy-siyosiy tuzumi, xalq madaniyati, jamiyat urf-odat va qadriyatlari, inson ma'naviyati va ta'lim-tarbiyasi masalalarini aks ettirdi, yosh avlod turmush tarzi va fe'l-atvorining muhim yo‘nalishlarini belgiladi. Zardushtiylik otashparvar dinining “Avesto” muqaddas kitobi qadimgi Xorazm vohasida paydo bo‘lgan. “Avesto”da “yaxshi” va “yomon” xodisa, vaziyat, xarakat va yurish-turishlar haqida gap boradi. Zardushtiylik xudo Axura-Mazda odamzotni poklik, yaxshilik, halol mehnat, osoyishtalikka chaqiradi va shularni qilish uchun har bir xoxlagan insonga vaziyat va imkon yaratadi va yordam beradi. Zardushtiylik ikkinchi xudosi Axra-Manyu esa aksincha yomonlikka chaqiradi va odalarning yaramas ishlari va xarakatlariga asos soladi. Ikki xudo va shular bilan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘on, hayot va mamot, poklik va nopoklik, halollik va ifloslik, rahm-shavqat va bag‘ritoshlik orasida abadul-abad kurash umribod o‘tadi. “Zardushtiylik diniga sig‘inganlarni “Avesto” yer va ekinlarni parvarish qilish va hosilni ko‘paytirish, suv va shudgor joylarni asrab-avaylash, uy-joy qurish, uyni, olovni, bola-chaqa, mexnat qurollari, uy hayvonlari, , idish-tovoq bilan to‘ldirish, atrofnigul, o‘simlik va meva daraxtlar bilan obodon qilishga chaqiradi. “Avesto” faqat odam emas, balki bir xovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havo ham muqaddas deb xisoblaydi. “Avesto”da ona yerimizning daryolaru-bog‘lar, tog‘laru-buloqlar, ko‘lu-sahrolar, butun hayvonot va o‘simlik dunyosi xudomizdan odamizotga buzish va tor-mor qilish uchun emas, balki ularni saqlash, ezozlash va dunyoni yanada go‘zal bunyod qilishga chorlaydi” .

Har bir inson jamoa ichida o‘zining tutgan ijobiy o‘rni va hayotida tutilgan yo‘li bo‘lishi darkor. O‘zining kayfiyati va salomatligi bo‘yicha esa ularni saqlash amaliy choralarni ko‘rish, ozodalik va jismoniy tarbiyaga rioya qilish, kiyim, uy va ish joyini tozalikda tutish, nopok joylarga bormaslik va nopok narsalarga tegmaslik, buzilgan ovqatlarni yemaslikka hamma vaqt xabardor bo‘lishi kerak. Zardushtiylik har narsa, vaziyat, xodisada odam o‘zining bunyodkorlik, insonparvarlik, rahm-shavqatlik va xushmuomalaligini ko‘rsatishiga chaqiradi. “Avesto”da dunyoning yaratilishi,

insonning kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik va ijodkorlik yo‘lidagi orzulari o‘z ifodasini topgan.

“Avesto” avlod-dan-avlodga meros qoldirgan ma'naviy qadriyatlarimizning nodir namunasidir. Unda o‘tgan ajdodlarimizning hayot va mehnat, insonning ahloq-odobi, baxt va go‘zallik, hurmat va adolat to‘g‘risidagi falsafiy va pedagogik mushohadalari o‘z ifodasini topgan.

“Avesto”da ta'qidlangan insonning asosiy sifat-lari



Ota -bobolarimiz Islom dinni va uning falsafasiga tayanib yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Ular islomiy ta'lim-tarbiyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga diiqat va e'tiborini chuqur qaratganlar. Mamlaktimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: “Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, Olloh qalbimizda, yuragimizda”. O‘zbekiston halqi tarixida islom ta'limotining ta'lim-tarbiya haqidagi g‘oyalarining shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur'oni Karim va hadisi Shariflar pedagogika ilmining eng ko‘zga surtadigan ko‘rinishidir. Ularda musulmon ahlining dunyoqarashi falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifat-larni shakllantirish yo‘llari bayon qilingan. Ular gumanistik ta'lim-tarbiya usullarni ma'qullab, bu gumanistik usullarida bolani puxta o‘ylab tuzilgan yurish-turish, o‘qish, mehnat, ozodalik, jismoniy, aqliy va ruhiy mashqlar ichki tartib qoidalari bilan tarbiyalashga unga har tomonlama bilim berishga, bolaning mustaqil fikrlashini, ijodkorligi va faolligini o‘stirishga e'tibor qaratgan. “Ilm ibodatdan afzaldir”- deb aytgandilar Payg‘ambarimiz (MRSAY). O‘qitish faqat hayotiy bo‘lsin, o‘qitishni turmush, atrof-muhit bilan bog‘lab olib borish lozim. Shunda u tushunarli va xalqchil bo‘ladi. Payg‘ambarimiz (MRSAY) bilim berishni mehnat bilan qo‘shib olib borish to‘g‘risidagi fikrni ilgari surganlar. Ular aytgan edilarki: “Ilm olmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz ham qarzdir”.

Qur'oni Karim va hadisi Shariflarda tarbiya masalalariga katta e'tibor beriladi. Bolanining har bir ishiga ota-ona namuna bo‘lishi uchun ularning so‘zi va ishi bir bo‘lishi amri ma'ruf. Ta'limga o‘rgatish kerak, ammo tarbiya qoidalarini bola ko‘pincha o‘zi ota-ona, aka va uka, opa-singil, ustoz va jamoaga qarab o‘rnak olishi bilan o‘zlashtirsin.

Savodxonlik, arifmetika, astronomiya, geometriya, tarix, tabiyatshunoslik, she'riyat, musiqa, husnixat va tillar o‘rgatilishi tarafdori bo‘lib, islom dini jismoniy tarbiyagaham katta ahamiyat beradi. Bu ishda jismoniy tarbiyaning gimnastika,

yugurish, kurash va harbiy mashqlar qilish yo‘li bilan, bola tanasini sog‘lom, baquvvat, mehnat, harbiy va boshqa ishlarga loyiq qilib chiniktirish usulini asos qilib oladi. Yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashi va har bir odam o‘zi, oilasi va Vatani uchun har tomonlama mukammal bo‘lib rivojlanishi kerakligini izohlab beradi.

Islom dini xududimizga kelgani zahoti O‘rta Osiyo xalqining shu jumladan, o‘zbeklarning ta‘lim-tarbiyasida yangi nazariya va amaliyotlar paydo bo‘ldi. Islom dini tavsiya etgan ta‘lim-tarbiya tizimida bilimlilik, kasbga ega, vijdoniylik, xudogo‘ylik, rahm-shavqatlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, intizomlikni shakllantirish va o‘stirish asosiy o‘rinni egalaydi. Bunda ta‘lim-tarbiyaning usullari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

Islom dinining ta‘lim-tarbiya usullari

Amaliyotda o‘rgatish	Ota-ona, muallim, Ust namunalari	Diniy e‘tiqod	Munosabatlarning uyg‘unligi va ustoz mahorati	Rag‘batlantirish	Ogohlantirish va jazolash
----------------------	-------------------------------------	---------------	---	------------------	---------------------------

V) Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari

Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda islom dini va shu bilan birga ta‘lim-tarbiya rivojlanishi yuksak bo‘ldi. Ko‘p madrasa va masjidlar qurildi va ularda yosh avlod o‘qib bir necha fanlarni o‘zlashtirishga muvoffaq bo‘ldi. Bu davrlarda Sharq mamlakatlari Eron, Ozarbayjon, Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston bilan bo‘lgan iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlantirildi. Uzoq va yaqin joylardan bilimli va uddabron bolalarni yangi hunarlarga o‘rgatish uchun mahoratli muallim va ustozlar taklif qilindi. XVIII asrda Markaziy Osiyoda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklar hukum surdi. Ular davrida ichki hayot, iqtisod, savdo, xunarmandchilik, me‘morchilik, madaniyat va musiqa va she‘riyat san‘ati ancha rivojlanib bordi. Bu barcha ishlarga yosh mutaxassislar kerakligini bilgan hukumron doiralari yoshlarni oldin madrasa va masjidlarda keyin har bir bolani xoxishi va intilishi bo‘yicha u tanlangan ustoz qo‘liga o‘qitish va hunarga o‘rgatish uchun yubordi. Ustoz oilasida esa shu kasb-hunar avlodidan avlodga o‘tib turish an‘anasi davom ettirildi. Xonliklarda Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Afg‘oniston bilan savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yildi. Buyuk Ipak yo‘li o‘n asrdan ortiq davr mobaynida Xitoydan Yevropaga va Yevropadan Xitoyga borayotgan karvonlar o‘tishini ta‘minladi. Karvonlar nafaqat mol keltirar, balki yangi axborot, yangi sanoat va madaniyat bilan tanishtirardi. Aqliy salohiyati kuchli bo‘lgan xalqimiz tez orada porx, qog‘oz, ipak va boshqa matolar, dehqonchilik va harbiy qurol, shisha, chinni-farfor, paxta maxsulotlari, yangi taomlar ishlab chiqarish, yetishtirish va tayyorlashini o‘zlashtirib oldi va bu albatta yangi sanoatlarni tashkillash va yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasiga oid yangi xunarlar

o'rgatishiga turtki bo'ldi. Shu bilan birga xokim va boy fuqarolarning farzandlari chet elga tahsil olish, yangi kasb va xorijiy tillarni o'rganish uchun yuborardi. Har bir shunaqa o'qishga borib kelgan yosh yigit o'zi bilan siyosat, iqtisodiyot, ma'rifat va madaniyatga oid yangi tasavvur, progressiv demokratik fikr va g'oyalarni o'zlashtirib o'zbek xalqining turmush tarzini yengillashtirish va rivojlantirishni o'ziga maqsad qilib qo'yar edi va zo'ravonliksiz bajarishga harakat qilar edi.

XVIII asrda Rossiya chor qo'shinlari tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyoda tarixiy-siyosiy vaziyat yuzaga keldi, milliy zulm kuchaydi, Yevropa turmush tarzi o'zbek halqi hayotiga kelib kira boshladi. Ilm-fan, sanoat, madaniyat va ta'lim-tarbiya G'arbcha rivojlana boshlandi. O'lkamizda mustamlakachilar zavod, fabrika, ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalar, temir yo'l va avtomobil yo'llar qurilishini, shu jumlada shaharlarda maktab va gimnaziyalarni tashkil qildi. Maktablarda Yevropacha o'qitish o'z rivojini topdi. Ya.A.Komenskiy va F.Gerbart metodikasi, ya'ni "sinf-dars" tizimi paydo bo'la boshladi.

Bu rus-tuzem maktab va gimnaziyalarda o'qigan xalqimiz ko'pchiligi ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or g'oya, usullar va tajribalarni o'zlashtirib, yangi o'zbek intelligensiya vakillariga aylandi. Bular uzoq va yaqin hududlarga ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at olib kirishga harakat qildi. Bu ilg'or ma'rifatparvarlar o'zlarini jadidlar deb nomlab o'zbek halq pedagogikasiga ilm-fan sohasidagi yangi umuminsoniy o'zgarishlarni kiritish, ta'lim-tarbiyani qayta isloh qilish, mamlakatimizda bironta savodsiz odam qoldirmaslik, erkak va ayolga teng huquq berish va milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab qolishni nazarda tutadigan buyuk vatanparvar kishilar edi. Jadidchilar harakatini Markaziy Osiyoda rivojlanishni Rossiya davlatining o'lkamizda mavqeyi oshishi bilan belgilandi.

XX asr boshida Sovet xukumati vujudga kelishi bilan O'zbekiston Respublikasi Sovet ittifoqi tarkibiga kiritildi. O'lkamizda ilmu-fan, og'ir va yengil, oziq-ovqat sanoati rivojlandi, yangi o'rta, o'rta mahsus va oliy o'quv yurtlarda yoshlar tahsil olib, har bir inson o'zi tanlagan kasbni egalay boshladi. O'g'il va qizlarni bir sinfda o'qitish ishlari yo'lga qo'yili. Bu o'z o'rnida ta'lim va tarbiya samaradorligini yanada oshirdi. Konstitutsiya bo'yicha har bir o'smir o'rta maktabni tugatishiga majburiy edi. Xalqimiz turli sohalarda faoliyat ko'rsatib zavod va fabrika boshliqlari, hukumat rahbarlari, ilmu-fan, madaniyat va san'at arboblari bo'ldilar. Ammo osmonimiz hamma vaqt musafo emas edi. Qizil terror payti minglab yurtdoshlarimiz vaxshiylarcha o'ldirildi. Sovet hukumati bilardiki millat uchta narsa bilan mavjuddir. Bu - yashayotgan hudud, uning oni tili va diniy va milliy urf-odatlar, qadriyatlar. Shuning uchun qadriyatlarimiz, dinimiz va ona tilimizni unutishimiz uchun ko'p o'rinayotgan va ko'rinmayotgan harakatlar bo'ldi. Natijada ancha-muncha vatandoshlarimiz ona tilimizni unutib, faqat rusiyzabon bo'lib, din farzlarini bajarmay qo'ydi, urf-odatlarimizni unutdi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim tug'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllangan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsadi komil inson, barkamol avlodni tarbiyalash kabi yangi yo'nalishlarga ega bo'ldi. XXI asrda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi muammosi dolzarb masalaga aylandi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek xalqining milliy pedagogikasini paydo bo'lishini tahlil qilib o'ting.
2. Zardushtiylik ta'limoti inson tarbiyasiga qaratilgan asoslarini aytib bering.
3. Islom dini ta'limoti qaysi ta'lim-tarbiya usullardan iborat?
Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib bering.

Ilm egallang! Ilm - sahroda do'st, hayotiy onlarda - tayanch, yolg'izlikda - yo'ldosh, bahtli daqiqalarda - rahbar, og'ir paytlarda - ustun, kishilar orasida - xazina, dushmanlarga qarshi - qurol.

Payg'ambarimiz Muxammad Alayxisalom

2.Sharq allomalarining ta'lim-tarbiyaga doir fikr va g'oyalari.

A) Ma'naviy kamolot yo'lida. al-Xorazmiy, al-Buhoriy, Farobiy, Beruniy, ibn Sino.

B) Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiyning marifatparvarlik g'oyalari.

V) Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza va boshqalarning pedagogik qarashlari va yosh avlodni kamol toptirish yo'lidagi xizmatlari.

Tayanch so'zlar: *allomalar, insoniyat kamoloti, ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyati, axloqiy va salbiy sifatlar.*

A) Ma'naviy kamolot yo'lida. al-Xorazmiy, al-Buhoriy, Farobiy, Beruniy, ibn Sino.

Xalqi uchun, uning ma'naviy kamoloti yo'lida riyozat chekkan Muso Muxammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Lutfiy, So'fi Ollayor, Binoiy, Koshifiy, Ogahiy, Avaz O'tar, Uvaysiy, Nodira, Furqat, Ahmad Donish, Xamza, Munavvarqori Abdurashidxon, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Xamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, G'ofur G'ulom, Sharof Rashidov, Ibrohim Mo'minov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi allomalarimiz insoniyat kamolotining yo'lchi yulduzlari bo'lganliklari uchun, biz bilan yonma-yon yashayotgandek ishimizga, o'ylarimizga, orzularimizga hamkor, hamnafas, ruhi-poklari xotiramizda abadiydir. Ular o'z asarlarida dono fikrlari, go'zal va betakror satrlari bilan ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor beradilar. Ularning ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyati va usullari haqidagi qarashlari bilan pedagogika nazariya va amaliyotida o'ziga xos buyuk hayot maktabini yaratdi. Ular komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z

zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga ham katta ahamiyatga ega.

Buyuk olim, butun jahon oliy matematikaning asoschisi, astronom, geograf, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti **Muso Muhammad al-Xorazmiy** (783-850) (olimning "al-Xorazmiy" nomi "algoritim" shaklida jahon fanida abadiy o'rnashib qoldi, "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-jabr" nomli risolasidan olingan) nafaqat taniqli olim, balki murabbiy hamdir. Uning shogirdlari matematika, mexanika, astronomiya, geometriya va boshqa ilmlarda mashhur olim va ilm homiylari bo'lib yetishadi. Olim - ustozning asosiy o'qitish usullari - bu o'quvchini evristik vaziyatga qo'yish (savolni shunday qo'yish kerakki xulosa va natijaga tinglovchi o'zi yetsin), muammolik metodi (o'rta tashlagan muammoni o'quvchi oldingi bilimlarini ishga solingan holda yechishidan iborat), suhbat metodi (savol - javob orqali mavzuni aytib berishi bilan hal qilinadi), tadqiqot metodi (o'quvchining mustaqil ravishda ishlashi bilan nazariya amaliyotda ko'riladi va tajriba orqali yechiladi) Hozirgi davrda donishmandning xizmatlari jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilgan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o'zbek Vatanimizni, balki butun aqli inson ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

Musulmon xalqlari ma'naviyat va ma'rifati rivojiga benazir hissa qo'shgan o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti **Imom Ismoil al-Buhoriy** (810-875) Payg'ambarimiz (MRSAY) hadislarni topib va to'plab 7275 hadisdan iborat "Al-Jomi as-sahih" ("Ishonarli to'plam") nomli asarni yaratdi. Bunda har bir kishining halol, odobli, ozoda, xushmuomala bo'lish, hulq-atvorini to'g'irlash, mehnatga loiq va mehnatsevar bo'lishi bilan oilasini hursand va ota-onasini rozi qilishga chaqiradi va Payg'ambarimiz (MRSAY) hayotidan, ish va so'zlaridan, xatti-harakatlaridan misollar keltiradi. Bu asar hozirgacha ham o'qigan odamga katta ta'surot qoldirmoqda va muallimlar tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiya ishlariga keng foydalanilmoqda. mazkur kitobdan bir rivoyatni misol tariqasida keltiramiz: "Sohibi Amir aytganlar: Uchta xislatni o'ziga mujassam qilgan kishining iymoni mukkamal bo'lg'aydur: insofli va odobli bo'lmoq; barchaga salom bermoq; kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq". Bir kishi so'radi: "Islomda eng yaxshi xislatlar qaysilar? ". Dedilar: "Ilm egallang. Ochlarga taom bering. Tanigan va tanimaganlarga salom bering".

O'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog **Abu Nasr Farobiyning** (873-950) ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi. Buyuk donishmand inson tafakkuri va nutqining rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon deb xisoblaydi. U o'z asarlarida insonga yoshligidan ta'lim-tarbiya berish zarurligini aytadi va har bir odamning asosan ikki tomoniga, ya'ni aql va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya insonni aqliy va axloqiy tomondan yetuk, mukammal qilib yetishtirishga qaratilishi lozim. Olim ta'lim va tarbiya berish farqini ko'rsatadi.

Ta'limga muallim oldin bilim nazariyasini ko'rsatib keyin uni amaliyot mashqlarida mustahkamlashib o'rgatadi. Tarbiya esa yosh bolaga amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi, ota-ona, muallim gapini bajo keltirish bilan, ish-xarakat orqali singdiriladi. Lekin tarbiya nafaqat bolaning ish-harakati paytida bilinadi, balki ta'lim jarayonida, ya'ni ma'lum hunarni egallash uchun tarbiyalangan hulq-atvor, intilish va iroda kuchi zarur bo'ladi. Faylasuf yoshlar ta'limotining asosida barkamol avlodni shakllantirish va o'stirib berishni ta'kidlaydi. Buning uchun bola balog'atga yetishi bilan aqlli, ruhiy va jismoniy sog'lom, bir-ikkita hunarga ega, hulq-atvori fazilatli bo'lishi shart.

O'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) ijodida inson va uning ta'lim-tarbiyasi, kamoloti, baxt-saodati asosiy masala bo'lgan. U yosh avlodning rivojlanishi va o'sishi asosan oila ichida bo'ladi deb qayd qilgan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini uqtiradi. O'qitish payti faqat tushunib o'rganish to'g'ri: "Tushunish yodlashdan afzaldir, kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalar eslab qolish qobiliyatini yaratadi". Olim fikricha eng muhim qoida - bilimni puxta va mustahkam egallash. "Biliming shunday bo'lishi kerakki, u har qanday sharoitda ham o'zingda qolsin". Ilm egallashda bolaning intilish va qiziqish muhitini takidlaydi. Barcha illatlar sababi - ilmsizlik, - deb biladi ustoz. Yomonlik illatini yuqotishning yo'li uning ildizlarni topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning asosi uch narsa - ta'ma, azob va ilmsizlik. Bu asoslarning negizi - ishtaha va azobdir. Ishtaha insonga kuchli va halokatli dushman bo'lib, insonni nayza (granata) ovqatlarini tanovul qilish lazzati va o'ch olish zavqi bilan aldaydi. Bu illatlar ranj va gunohga olib keladi va ularning ta'siriga berilgan insonlik qiyofasini yuqotadi. Olim jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'lik degan g'oyani ilgari suradi. Har bir kishida komillikning muhim mezonini va asosiy sifati yuksak axloqiylikdir. Bu xislat oila, maktab va jamoa nufuzi bilan ijtimoiy muhit orqali tarkib topadi. Pedagog bolaning tarbiyasiga islom dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Inson kamolotini olg'a yoki orqa tortadigan uchta ta'sir - bular irsiyat, muhit va tarbiyadir. Faylasuf nazarida inson kamolga yetishining muhim omillari - bu ilm-ma'rifatli va yuksak axloqli bo'lishdir.

Buyuk qomusiy aqli, olim, mutafakkir, jahon ilm-fan va madaniyatning namoyondasi, hozirgi zamonaviy tibbiyot fani va amaliyotining asoschisi, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) (olimning "Abu Ali ibn Sino - Avitsenna" nomi "meditsina" shaklida jahon fanida abadiy o'rnashib qoldi) kamolotga erishish uchun ilmu-ma'rifatni egallashga chaqiradi. Bola tug'ilganidan boshlab ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o'z vaqtida yuvinish va cho'milish, jismoniy va aqliy mashqlar qilish, mehnat qilish va dam olish, uy-ro'zg'or ishlarida faol qatnashish, ovqatlanishlarni ma'lum qoidalar asosida amalga oshirishi bilan to'g'ri ta'sir qiladi. Bolalarning o'spirinlikka o'tish davri tarbiyasi payti ularda xulq-atvor shakllanadi. Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga u yoshlikdan boshlab yaxshi hulqda o'sishi va keyinchalik ko'p mashqlar

orqali bu unga malaka bo'lib qolishi darkor. Kishi bilimga ega bo'lishi kerak, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmaydi. Bilim haqiqiyligini bilish uchun kishi har bir ishga aqlini, xotira va irodasini, mantiqiy tafakkurini, shaxsiy tajribasini va odob-ahloqiy fikrlarini ishga solish kerak va har mahal o'ziga savollar berishi kerak: Nima uchun bu ishga qo'l urayapman? Menga shu kerakmi? Atrofdagilarimga - chi? Maqsadim nima? Shu ishim bilan yaxshilik olib kelayapmanmi, yomonlikmi?. Olimning ta'limotida suhbat va tushuntirish, mashq qildirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil ishlarni tashkil qilish, olgan bilimlarni amaliyotda tadbiq eta olishiga tarkib toptirish bilan o'quvchiga keng o'quv imkoniyatlarni berish kabi vazifalar qo'yilgan. Insonning kamolga yetishiga uning axloqiy tarbiyasi muhimligini ta'kidlaydi. Odamning ijobiy axloqiy sifatlarga saxiylik, kamtarlik, aqllik, qat'iyatchilik va b.q., salbiy sifatlarga esa nodonlik, takabburlik, nafrat va b.q. kiradi. Axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni suhbat orqali, oilaviy ta'sir, mashq qildirish, odatlantirish orqali amalga oshishi haqida fikr-mulohazalar keltirgan. Inson rivoji va kamoliga birinchi javobgar oila, ota-ona, keyin - muallim, ustoz. Ta'lim-tarbiya jarayoniga jismoniy tarbiya orqali olib borish ayni muddao, chunki sog'lom tanda sog'lom fikr bo'ladi. Shuning bilan insonga, uning kamolotiga eng kerakligi aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiyadir. Shularni ta'lim-tarbiya jarayonida yaxshi o'zlashtirib olib bola o'z xayotiga ega bo'ladi, o'zini va atrofdagilarni baxtli qilishga undaydi. Hozirgi davrda uning xizmatlari jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilgan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat Vatanimizni, balki butun aqli inson ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

B) Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari.

Bahovuddin Naqshband (1318-1390) - buyuk mutafakkir, faylasuf, islom dini nazariyotchisi, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog o'z ta'limotida inson olamni bilishi va ahloqiy mukamallikka erishishi, gunohlardan holi bo'lishiga intilishi kerak deb ta'qidlab o'tgan. Olim fikricha yaxshi va yomonga, katta-yu kichikka yaxshilik qilish, barcha xaloiqqa nisbatan o'zini kamtar tutish, barchaga xizmat xuzurida bo'lish Ollohimizning so'zini bajo keltirishdir. Hatto farzand, xodim yoki o'quvchingiz gapingizni qaytarsa, odobsizlik qilsa, ularga yumshoq va chuchuk til bilan nasihat qilish odobga mansub. Faylasufning quyidagi hikmatli so'zlari butun jahon hamma qomuslarda keltirilgan: "Qalbm - xudoda, qo'llarim - ishda".

O'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk davlat arbobi, sarkarda, faylasuf va pedagog **Amir Temur** (1336-1405) ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan. Sarkarda hind, xitoy, turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha chuqur o'zlashtirgani taqidlanadi. Shuningdek, o'zining "Temur tuzuklari"da jamiyatga,

ijtimoy-siyosiy hayotga qarashi, inson axloqiy qoidalari, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi haqida gap boradi. Davlat va har bir inson ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligini bir necha bor taqidlanadi. Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat-madaniyat ahliga e'tibor, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, ibn Arabshoh yozganidek: "Temur olimlarga mehribon, sayiddu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzatu-ikromini unga izhor qilardi". O'z saroylarida ko'plab ilm-ma'rifat allomalarini to'plab va davlat uchun ishlatib, Sohibqiron ilm-fan riyoziyot, handasa, me'morchilik, turli kasb-hunarlar, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, yosh avlod yorqin hislatlarga ega, xotirasi o'tkir, shijoatli va qat'iyatli, birso'zli, zo'r qudrat egasi, salobat ison sifatida o'sishi uchun har ikki tomonda barcha ashroitlarni yaratish darkor.

Buyuk qomusiy aqli, ulug' o'zbek olimi, mutafakkir, jahon ilm-fan va madaniyatning namoyondasi, hozirgi zamonaviy astronomiya fanining asoschilardan (Kopernik va Galiley bilan) biri, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog **Mirzo Ulug'bek** (1394-1449) o'zining pedagogikaga bag'ishlangan fikr va g'oyalarida mehnat va ahloq ta'lim-tarbiyasida alohida e'tibor berib, jamiyat ichidagi o'zaro munosabat, do'stlik, yoru-birodarlik tarbiyada alohida kasb etishi kerakligini ta'qidlaydi. Kasbi va xulq-atvori yaxshi hamma hurmat qiladigan, xushfe'l kishi bilan do'stlashish lozim. Har bir kishi do'stona xamkorlik bilan katta hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, agar yolg'iz bo'lsa hech narsa qila olmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni uch pog'onaga bo'lib qo'yib, past pog'onaliklarni faqat savodxonlik, jismoniy tarbiya, arifmetika, o'y ishlari, xusnixat va albatta bitta hunarga, o'rta pog'onaliklarni shularga va qo'shimcha savdo-sotiq ishlar, tabiatshunoslik, tarix, geografiya va musiqa she'riyat bilan, yuqori pog'onaliklarni shu oldin aytilgan fanlarni o'qitib oliy matematika, fizika, ximiya, astronomiya biriga keng va chuqur o'rgatib shu fanga olim bo'lish yo'lida tadqiqot usullarni ko'rsatib berish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi darkor. Hozirgi davrda uning xizmatlari jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilgan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o'zbek Vatanimizni, balki butun ahli inson ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyoda barcha asrlarga mashhur etdi.

Buyuk qomusiy olim, ulug' o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi, jahon adabiyot va madaniyatning namoyondasi, hozirgi zamonaviy o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti, buyuk faylasuf va pedagog **Alisher Navoiy** (1441-1501) fikricha ta'lim-tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni birinchidan bilimli va aqli, kuchli, ikkinchidan eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib yetishtirishdir. Lekin buning uchun bolani voyaga yetishigacha ko'p fanlarga o'rgatib uning aqliy salohiyati va boshqa qobiliyatlarni ochib rivojlantirish kerak. Kamol topishida ta'lim-tarbiya kuch-qudratiga, bola yetuk kishi bo'lib o'sishiga ulug' shoir

ishonadi. Biror salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishining oldini olish uchun bolani kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor.

V) Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza va boshqalarning pedagogik qarashlari va yosh avlodni kamol toptirish yo'lidagi xizmatlari.

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va pedagogik fikrlarning rivojida milliy madaniyatni, halq ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda katta hizmat qilgan adib, iste'dodli pedagog, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti **Abdulla Avloniy** (1878-1934) alohida o'rin tutadi. O'z halqiga hizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishda shoir katta e'tibor bergan edi. Pedagog ijodining bosh masalasi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Bu xususiy ish emas, har bir halqning taraqqiy qilish, davlatning qudrati bo'lishi avlodlar tarbiyasiga bog'liqdir. Adib tashkil etgan maktablar erkin va insonparvarlik asosida tuzilganligi, ilmlarni keng va chuqur o'rgatish, ta'lim mazmunini ilmiylashtirish, tovush metodidan foydalanishi bilan eski maktablardan ajralib turadi. Yangi o'zbek maktabi uchun alifbo va darsliklar yaratdi. Darsliklarda o'zbek va boshqa halqlar og'zaki ijodidan keng foydalandi, ta'lim mazmuni millatimizning istiqboliga qarab belgilandi, ularda o'zbek so'z san'atidan durdonalar o'z aksini topdi, ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya berish urf-odatlarini katta o'rin oldi.

Buyuk o'zbek shoiri va dramaturgi, yetakchi pedagog, o'zbek halqining o'g'loni va ulug' zoti **Hamza Hakimzoda Niyoziy** (1889-1929) o'zining o'qituvchilik faoliyatida ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha muhim g'oyalarni ilgari surdi. O'zining jasurligi, jasorati, g'ayrati va tashabbuskorligi bilan butun o'sha paytdagi jamiyat oldida ajralib turadigan inson edi. U o'zining butun hayoti, mehnati va ijodini yosh avlodni bilimli va kasbga ega bo'lishiga bag'ishladi, kambag'allar uchun maktablar qurdi, ular uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratdi. O'z asarlarida xalq maorifini demokratik asosida qayta qurish, uning yangi tizimini yaratish, insonni kamoliga yetkazish, yuqori fazilatlarga ega qilish fikrlarni bildiradi. Ta'lim va tarbiya, ilm va odob, hunar va ma'naviyatni o'z ichiga olgan yaxlit jarayon bo'lishi kerak deb xisoblaydi. Shoir xotin-qizlarga ular ham oila va jamiyat oldida hurmatga sazovor deb hamma qatori teng huquq berish, paranjasini olib tashlash, ularni ham maktablarda o'qitish, jamiyat ishlarida ishtiroq etishga chaqiradi.

Shuningdek, buyuk allomalarimizning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham yosh avlodni kamol toptirish yo'lida, kuchli bilim va kasbga ega bo'lishiga yaxshi ta'lim berish, vijdoniylilik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli fikr va g'oyalari e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. Har bir tilimizga olgan ulug' ajdodlarimiz ismi biz uchun benihoyat qadrilidir, chunki ular butun mehnati, ijodi va kuch-quvvatini o'zbek halqi rivojlanishiga sarf qildi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Ma'naviy kamolot yo'lida o'zbek halqimizning yutuqlarini ko'rsatib bering.
- 2.Buyuk allomalarimizning pedagogik fikrlari nimaga qaratilgan?

3. Al-Xorazmiy, Al-Buhoriy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Naqshband, Amir Temur, Ulugʻbek, Navoiy, Avloniy, Xamza pedagogik ijodiyotini aytib bering.

4. Pedagogik qarashlar yosh avlodni kamol toptirish yoʻlida nimaga oʻrgatadi?

Goʻzallik xis-tuygʻusiz toʻlaqonli insonni tarbiyalab boʻlmaydi.

Oybek

3. Chet el pedagogikasi ta'lim-tarbiyani rivojlantirish va kasb ta'limi haqida

A) Yosh avlodni hayot va kasbga puxta tayyorlash. Sokrat. Platon. Aristotel. Demokritning xizmatlari.

B) Komenskiy. Gerbart. Pestalotssi. Frebel. Distervegning ta'limdagi yangi kashfiyotlari.

V) Ushinskiy. Lesgaft. Makarenko. Dyui. Butunjahon ta'lim-tarbiya rivojiga qoʻshgan hissasi..

Tayanch soʻzlar: *insonparvar, koʻnikma, malaka, tabiat, mehnat, dars, darslik, dastur, ijobiy qobiliyatlar, jismoniy tarbiya, tizim, intilish, harakat, ekspressiv, his-tuygʻu.*

A) Yosh avlodni hayot va kasbga puxta tayyorlash. Sokrat. Platon. Aristotel. Demokritning xizmatlari.

Chet el pedagogika ilmining eng koʻzga koʻringan namoyondalari insonparvar, gumanistik ta'lim-tarbiyani ma'qullab yosh avlodni hayot va kasbga puxta tayyorlash va shu uchun bolani odobli, axloqli, vijdonli, mehnatsevar qilib oʻstirish, unga har tomonlama bilim berish, amaliy koʻnikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, uning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodkorligiga katta e'tibor qaratish kerak deb aytib oʻtgan.

Buyuk qadimgi yunon faylasufi **Sokrat**ning (e.a. 469-399) fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad narsa va xodisalarni, tabiatni oʻrganish boʻlmay, balki kishining oʻz-oʻzini bilib olishi, axloqan kamol toptirishi boʻlmogʻi lozim. Fikr qoʻzgʻuvchi savollar bilan suhbat oʻtkazish, oʻzlari fikr yuritib toʻgʻri yechimini topishga undaydi kishini. Didaktikada buni birinchi ishlatgani uchun "Sokrat metodi" deb e'tirof etilgan.

Atoqli qadimgi yunon faylasufi **Platon**ning (e.a. 427-347) fikricha bolalar 3 dan 6 yoshgacha turli jismoniy va aqliy oʻyinlar bilan shugʻunaladilar, shuningdek bolalalarga hikoya qilib beriladigan bilimlarni toʻgʻri tanlash kerakligini uqtirib oʻtadi. U bolalarga ta'lim-tarbiya berish faqat jamoada boʻlishini va uni ijtimoiy tarbiyaga chaqiradi.

Buyuk qadimgi yunon faylasufi **Aristotel**ning (e.a. 384-322) fikricha tabiat odamzot jonining uch hilini bir-biri bilan chambarchas bogʻlab qoʻygan, biz ham

tarbiyada tabiat belgilab bergan yo‘ldan borib, bolaning tarbiyasiga uch tomondan qarashimiz darkor. Bular - jismoniy, aqliy va ahloqiy tarbiyadir. Uning aytishicha har bir davlat xukumatning faqat bitta maqsadi bo‘lishi darkor, bu esa hamma fuqarolar uchun ta’lim-tarbiya berishni ta’minlashdir. Oila va ijtimoiy tarbiyaning o‘zaro bog‘likligiga uqtirishga haarkat qiladi. Tarihda birinchi bo‘lib, mutafakkir yosh avlod davrlarini aniqlashga urinib ko‘rdi va uch davrga bo‘ldi: 7 yoshgacha - go‘daklik va bolalik; 7 yoshdan - 14 yoshgacha - o‘smirlik; 14 yoshdan - 21 yoshgacha - balog‘at davri. Birinchi davrda bola kuzatish, takrorlash va o‘yin orqali ta’lim-tarbiya oladi, ikkinchi davrda o‘smir astoydil o‘qiydi, ko‘p fanlarni o‘zlashtiradi, mustaqil fikr lay boshlaydi, xayotning yaxshi va yomon tomonlarini bilib oladi, jismoniy, aqliy va ahloqiy tarbiya oladi. Uchinchi davrda balog‘atga yetgan kishi mayllarini aniqlaydi, qobiliyatlariga yaqin bor ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi, o‘ziga hunar tanlab oladi, kasbga ega bo‘lish uchun harakat qiladi.

Atoqli qadimgi yunon faylasufi **Demokrit** (e.a. 460-370) tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi deb ta’lim-tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini ilgari surdi. U ta’lim-tarbiya ishida mehnatning o‘rni katta ekanligini ta’qidlal, ta’lim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil qiladi deb e’tiborimizni qaratadi.

B) Komenskiy. Gerbart. Pestalotssi. Frebel. Distervegning ta’limdagi yangi kashfiyotlari.

Ulug‘ chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** (1592) o‘zining pedagogik nazariyasida ta’lim-tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishini aytib o‘tgan bo‘lib “Buyuk didaktika” asarida “o‘qitish tabiat talabiga bo‘ysinishi kerak”deb yozadi. Bolaning aqliy va jismoniy o‘sinh jarayoni tabiatdagi o‘sinh jarayoniga o‘xshagan bo‘ladi. Lekin kishi ijtimoiy borliq ham bo‘lib, ijtimoiy qonun ta’sirida ham o‘sadi.

Komenskiy fikri bo‘yicha insonning rivojlanishi to‘rt davrga bo‘linadi:

Go‘daklik-0-6 yoshgacha	Bolalik-6-12 yoshgacha	O‘smirlik-12-18 yoshgacha	Yetuklik-18-24 yoshgacha
-------------------------	------------------------	---------------------------	--------------------------

Bular to‘rtta ta’lim jarayonini talab qiladi:

Maktabgacha tarbiya	Boshlang‘ich ta’lim	O‘rta ta’lim	Oily ta’lim
---------------------	---------------------	--------------	-------------

va quyidagi maktablarda o‘qitiladi:

Ona maktabi	Halq maktabi	Gimnaziya	Unverstitet, akademiya
-------------	--------------	-----------	------------------------

Maktablarning vazifalari:

Sez ish organlarni o‘stirish, atrofdagi Dunyo bilan tanishtirish, mehnat, haqqoniylik, to‘g‘rilikka o‘rgatish	Xotirasini kuchaytirish, to‘g‘ri so‘zlash va yozishga arifmetika, geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarga o‘rgatish	Klassik tillar, tabiiyot, ilohiy fanlarga o‘qitish, tafakkur va boshqa qobiliyatlarini o‘stirish, axloqiy tarbiya berish	Tanlangan kasbga ega qilish, irodasini, Shaxsini bir butun o‘stirish
---	---	--	--

Komenskiy barchalarning o‘qishga jalb etilishini va o‘z ona tilida boshlang‘ich ta’lim olishini uqtiradi. Ulug‘ pedagog ta’lim-tarbiyaning maqsadi kishini mangulik

dun'yosiga tayyorlash ekanligi, buni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirishi mumkin deb aytib o'tadi. Uning qarashicha o'quvchi o'ylashiga, harakatlanishiga, masalalarni yecha bilishiga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishiga o'rgatmog'i lozim: "Faqat mehnat odamni ulug'laydi, unga yoshlikdan o'rgatish darkor". Olim o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi:


Komenskiy darslik qanday bo'lishni aytib, o'z zamonasi uchun bir necha namunali darslik va qo'llanmalar tuzdi.

Ko'rgazmalilik	Onglilik	Izchillik	tizimlilik	Bilim-malakalarni puxta egallash	Mashqqilish
Ko'rgazmalilik o'qitishning oltin qoidasi: o'qituvchining tiniq, ravon, kuchli so'zi, bolaga bor narsalarni ko'rsatish, dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, narsalar o'zini iloji bo'lmasa modelini ko'rsatishi bilan chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishiga olib keladi.	Onglilik o'qishda o'rganilayotgan narsani hayotga kerakligini va qanday ishlatishni anglab olish, aql-idrok bilan tushunib olish, o'zini zo'rlab yodlamaslik, bir narsani to'la tushunib bo'lguncha shu narsa ustida to'xtatmoq	Izchillik-fan asoslarini izchil bayon qilish va reja asosida o'rgatish. Kun , hafta, oy va yilga vazifalar qo'yish va amalga oshirish. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi. Izchillik bilan o'rgangan dars keyingi o'tiladigan darsga yo'l ochib beradi.			

Komenskiy tavsiya qilgan didaktik tamoyillarining tushunchalari:

Tizimlilik-bu ta'lim-tarbiya tizimli bo'lishidir. Mavzu asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. Mavzu bo'yicha dalil, misol va xulosalar qoidalar tizimida keltirish, umulashtirib berish. Osondan qiyinga, avval narsa yoki hodisaga tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini o'rganish, o'quv yilni choraklarga bo'lish, o'quv kunini belgilash	Bilim-malakalarni puxta egallash-mavzuni mustahkam, asosli o'zlashtirish, mustahkam asos vujudga keltirish, mavzularni bog'lagan holda olib borish, o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olish, bolalar yoshiga qarab ravshan bayon etilish.	Mashq qilish-o'tilgan mavzuni mashq qildirish va takrorlash, dars mashg'ulotlarida faol qatnashishini ta'minlash, kuzatib borish, o'yga vazifa berish, darsliklar yaratish va ularda o'quv materialni yetarli, mazmunli berish, rasmlarga boy bo'lish
--	--	---

oladigan bilim va rasmlarga boy bo'lishi kerak deb hisoblagan. Uning darsliklarini ensiklopediyalar deyish mumkin, chunki ularda surat bilan berilgan tabiat (inson, o'simlik va hayvonot olami, inson tanasi va ichki dunyosi haqida, anatomiya, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geometriya, astronomiyalarga doir), odam faoliyati (turmush tarzi, kasb-hunari, hulq-atvorlari, tabiat va jamiyat bilan munosabatlari, xo'jalik va madaniyati), ijtimoiy hayot haqida (davlat va jamiyat tuzumi, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati) qisqa ma'lumotlar berilgan. Ulug' zot bolada yoshligidan boshlab axloq va odob fazilatlarini shakllantirish kerakligini aytadi. Mardlik, o'zini jamoada tuta bilish, tartib-intizom, chidamlilik, boshqalarga foyda yetkazish, oila va jamoa oldida burchini ado qilish kabi xislatlar fazilatlidir. Yosh avlodni kamtarlik, mo'min-qobillik, xayrixoxlik va xushmuomalilik, kattayu-kichikka hurmat, mehnatsevarlik, pokizaliklar tarzida tarbiyalash muhim vazifalardir.



Ota-ona, muallim, katta-larning
namunasi (uchebnaya, obrazovatel'naya)
Ratsionalnaya metodika (vliyaniye
cherez slovo)

Suhbatlar o'tkazib, yo'l-
yo'riq kursatish

Mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay
ish qilish, intizomliksizlikni oldini olish

Mutarakkiy, muvazinsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmon maqolini keltirib, kaltak vositasiga mutlaqo qarshi chiqadi va bolalalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya qiladi. Agar o'qituvchi bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli va qiziqarli o'tsa, mavzuni tushuntira bilsa intizomlik o'zi-o'zidan vujudga keladi. Iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchi maktabda ishlamasligini taqidlab, Komenskiy o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" deb hisoblaydi. O'qituvchi jamiyatida muhim vazifani bajaralayotganini, o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi bilan u sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'zini va ota-onaday bolalarni sevishi, ularda bilimga havas tug'dirishi, ergashtirishi darkor.

Nemis pedagogi **Iogann Fridrix Gerbart** (1746-1841) o'zining "Umumiy pedagogika" asarida fanning didaktik vositalarini aniqlab oldi. Buyuk olim tarbiyalanuvchi o'qitish nazariyasini tasniflab berdi, "ta'lim berish", "o'qitish" va "o'qish"ni muhimligini aniqlab oldi, o'quv jarayonning imkoniyatlarini ochdi, o'qitish metodlar tizimini (tahlil qilish, tasvirlash, bayon qilish, ifoda qilish, isbotlab berish, umulashtirish) belgilab berdi.

Ulug' shveysar olimi **Iogann Pestalotssi** (1746-1827) yangi tizimli maktabning ta'lim-tarbiya dasturini tuzib amaliyotda tekshirib oldi, o'quv materialni muvafaqiyatli o'zlashtirish psixologik manbalarni aniqladi. Buyuk pedagog o'quv ma'lumotni tushunish va qayta ishlash mashqlar tizimi orqali bolaning psixofiziologik imkoniyatlarni va uning qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'lim metodikasini yaratdi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi yoshidagi va hususiy psixologiyaga tayanishini aytib o'tdi.

Nemis pedagogi **F.Frebel** (1782-1852) o'zining "Inson tarbiyasi" kitobida odamga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik-pedagogik me'yor va qoidalarga tayanib, individual va yoshidagi hususiyatlardan kelib chiqib, tarbiya qonunlarini ta'riflab berdi. Buyuk pedagog o'qituvchining maqsadi yoshlarning ijobiy qobiliyatlarini aniqlashi va ularni rivojlantirishiga qaratdi.

Nemis pedagogi **Adolf Disterveg** (1790-1866) buyuk pedagog-olim. U "yomon o'qituvchi haqiqatni aytib o'tadi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga o'qitadi" deb muammoli pedagogika tizimini yaratishiga katta xissa qo'shdi.

V) Ushinskiy. Lesgaft. Makarenko. Dyui. Butunjahon ta'lim-tarbiya rivojiga qo'shgan hissi.

Buyuk rus pedagogi **Konstantin Ushinskiy** (1824-1870) muntazam pedagogika tizimining yaratuvchisi, ko'p darsliklarning muallifi. Olim fikricha tarbiya bolaga

insonparvarlik, fidoiylik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, intizomlik, odamlarga hurmat, samimiy munosabatlarni o'stiradi. Tarbiya tizimida vatanparvarlik, vatanga fidikorona mehnat asosiy o'rinni egallaydi. Bola yoshidagi psixologik hususiyatlarni e'tiborga olib, darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berdi. "Bola shakl, rang, tovush, umuman sezgilar bilan fikrlaydi". Bundan bola uchun ko'rsatmali o'qishning zarurligi kelib chiqadi, "bu o'qish mavhum tasavvurlar va so'zlarga emas, balki konkret obrazlarga asoslanadi". Bola o'quv materialni anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishiga yetaklab olib borilishi kerak. Olim o'quv materialni takrorlash, takrorlaganda uni kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida batafsil uslubiyot va tarbiya tizimini ishlab chiqdi.

Buyuk rus pedagogi **Pyotr Lesgaft** (1837-1909) jismoniy tarbiya tizimini ishlab chiqdi, jismoniy tarbiyani joriy qilishning tom ma'nodagi tashabbuskori edi. Nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlardan jismoniy tarbiya ta'limidan tarbiyachi-murabbiylar tayyorlash oliy kurslarini ochdi, Rossiyaning ko'p shaharlarda uning tashabbusi bilan stadion va sport maydonchalar qurildi va halqqa xizmat qildi. Lesgaft tarbiya ijtimoiy harakterga ega, u bolaning o'sib kamolga yetishida hal qiluvchi sifatlaridan biridir, bola faqat oila va maktab ta'lim-tarbiyasining yuqori darajada bo'lgani bilan rivojlanadi deb xisobladi.

Ulug' rus pedagogi **Anton Makarenko** (1888-1939) o'zining mehnat va ijodiy faoliyatida maktab bolalari ta'lim-tarbiya olishlari bilan biron kasbga, mutaxassis bo'lishi uchun kelajak mehnatiga tayyorgarlik ko'rishni ta'kidlab o'tgan. Uning "Pedagogik poema" asarida yosh hukukbuzar va yetim, boshpanasiz, ko'chada qolgan bolalarni maktab, internat va koloniyalarda qanday ta'lim-tarbiya berish, ular bilan qanday munosabatlarda bo'lish, hayot va mehnat faoliyati tizimini tashkillash masalalarni ko'taradi va yechishini butun pedagogik jamoaga ko'rsatib beradi. Shu va boshqa asarlari bolalarning ichki dunyosi va hulq-atvorini shakllantirish pedagogik va psixologik matariallarga nihoyatda boydir.

Buyuk amerika pedagogi **Djon Dyui** (1859-1952) o'quvchi bolalarning ta'limini ularning boshdan kechirilgan hayotiga, kichkina hayotiy tajribasiga va tasavvurlariga yaqinlashtirib qo'yishga harakat qilib, ularning o'zlashtirayotgan ob'yektiga qiziqishni uyg'otishga intildi. Uning maktab asosiy shiori har bir nazariyani ishda, amaliyotda ko'rishdir: "Aytsang - unutib qo'yadi, ko'rsatsang - vaqtincha xotirasida qoladi, ishga kiritsang - umrbod esida saqlaydi". Bunday o'qitish jarayonida bolaning tabiiy o'sishining qismlari: ijtimoiy (muloqot va o'zaro ta'sirga intilish), tuzilmaviy (harakat va o'yinga intilish), tadqiqot (aniqlash va tushunishga intilish), ekspressiv (o'zining qiyofasini ko'rsatishiga intilish), his-tuyg'uviy (masalani o'zi yechishidan bahramand bo'lish) ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarda faqat har hil yoshdagi bolalarning birga va bir ishni qilishga amaliyotlar o'tkaziladi. Har bir tushuncha laboratoriya tarzda aniqlanadi, o'qitish jarayonida o'yin va sahnalashtirish usullardan keng foydalaniladi, "o'qituvchi - o'quvchi" tizimida individual darslar afzal ko'riladi.

Sinflar bolalar qiziqishi, intilishi, layoqati bir bor imkoniyat va qobiliyatlarning darajasi teng, bir biriga dil tortishi bilan tuziladi. Dyui maktabi uchun yangi o'qitish metodlarni topish, bolalarning intilishiga diqqat-e'tibori, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, faoliyatlarini kengaytirishdan iborat.

Yuqorida tilgan oligan faylasuf va pedagog olimlarning fikr-g'oyalari, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari butunjahon ta'lim-tarbiya rivojiga salmoqli hissa qo'shib, hozirgi davrda ham maktab va oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratida poydevor bo'lib hizmat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1.Yosh avlodni hayot va kasbga puxta tayyorlashga qaratilgan allomalarning fikrlarini aytib o'ting.

2. Sokrat, Platon, Aristotel, Demokrit, Komenskiy, Gerbart, Pestalotssi, Frebel, Disterveg, Ushinskiy, Lesgaft, Makarenko, Dyui pedagogik ijodiyoti haqida gapirib bering.

3.Butunjahon ta'lim-tarbiya rivojini qanday tariflasa bo'ladi?.

4.O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish yangi bosqichlari

A) O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.


B) "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsad va vazifalari, bosqichma-bosqich bajarilishi.

V) Ta'lim tizimi va turlari. Ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.

Tayanch so'zlar: *ta'limni rivojlantirish, istiqlol va taraqqiyot, strategik yo'nalish, maqsad, inson taraqqiyoti, huquqiy jamiyat, ma'lumot darajasi, professional tayyorgarlik*

A) O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.

Jahon mutafakkirlari o'zlarining pedagogik g'oyalari bilan fanning rivojlanishiga olamshumul xissa qo'shdilar. Bu jarayonda o'zbek mutafakkirlarining jahon pedagogikasiga qo'shgan dono so'zlari o'z aksini topmoqda. Hozirgi kunda esa jonajon yurtimiz O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Bu Konstitutsiyamizning birinchi so'zlaridan boshlab yaqqol ko'rinib turibdi: "O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida o'zining muxtor vakllari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi". Asosiy qonunda Vatanimizning har bir fuqarosi davlat va jamiyat himoyasidadir.




Jamiyatimizda har bir strategik yo‘nalish muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. O‘zbekistonda yangi, mustaqil, demokratik munosabatlar qurish jarayonida davlat va jamiyat asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy jamiyat va har bir inson taraqqiyoti, uning moddiy, ma’rifiy va ma’naviy rivojlanishi mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oila, maktab va jamiyatda tashkil etilgan ta’lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi komil, har tomonlama yetuk inson, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni barpo etib, hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar Vatanimizning taraqqiyot yo‘lida e’tirof etilgan gumanistik, demokratik, huquqiy jamiyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Insonparvar, huquqiy jamiyat oldida yuqori maqsadlar qo‘yish uchun yangi, mustaqil davrda tug‘ilgan yosh avlodlarimizning ta’lim-tarbiyasini maqsadli amalga oshirishga bevosita jamiyat, oila va maktab birdek ma’suldir.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyani olib boruvchi barcha fan va kasblarni o'rgatayotgan pedagog va murabbiylarning ma'naviy-madaniy qiyofasi, bilimligi, aqliy va kasbiy salohiyati, ko'nikma va malaka darajalari, ijodiy qobiliyatlari va mahoratlarini shakllantirish va o'stirish masalalari davlat va jamiyat siyosatining ustuvor masalasidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Yurtboshimiz asarlari, xukumatimizning qator hujjatlari o'zbek halq pedagogikasi, halqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini, butunjahon va buyuk o'zbek mutafakkirlarining fikr va g'oyalari bilan birgalikda bu borada amalga oshirilayotgan barcha ishlarning metodologik va qonuniy asoslari bo'lib bu yo'nalishlarni amalga oshirish jarayonida ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassis - o'qituvchi kadrlar muhim rol o'ynaydi. Vatanimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va ma'naviy sohalarida keng va chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida pedaog-kadrlarning oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yuqori salohiyatli professional kadrlar tayyorlashga qodir, milliy asosga qurilgan va jahondagi yetuk davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.



Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib, ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida keltirilgan uzluksiz ta'lim tizimi va turlari	
	Maktabgacha ta'lim
	Umumiy o'rta ta'lim
	O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi
	Oliy ta'lim
	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim
	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
	Maktabdan tashqari ta'lim

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning asosiy qoida va maqsadlariga muvofiq holda ishlab chiqilgan, u milliy va butunjahon tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi yutuqlarni o'ziga qamrab olib, yuksak madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustasil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga yangi qodir kadrlarni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni har tomonlama kamol topgan, jamiyat va turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, xususiy, psixologik-pedagogik tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z kerakligini his etadigan yosh avlod tarbiyalashini nazarda tutmoqda.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich bajarilayapti.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar): mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar): Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritildi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar): xukumatimiz va butun pedagogik jamoa to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida,

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ishlari olib borildi.

Biz, pedagoglar, davlat va jamiyatimizning ijtimoiy buyurtmani bajarish yoʻlida bu murakkab lekin moʻtabar ishga, yaʼni mustaqil va tez rivojlanayotgan mamlakatimizning yosh avlodlariga mustahkam va yuqori darajali taʼlim-tarbiya berishga, ularni komil insonlar va kasbiga puxta ega boʻlishini taʼminlash, oʻzbek halq pedagogikasi, halqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini va buyuk butunjahon va oʻzbek mutafakkirlarining fikr va gʻoyalari, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, zamonaviy pedagogika fani yutuqlarini toʻliq va chuqur anglab olishimiz darkor. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari va benihoyat qadrlil soʻzlari bizlar uchun kuchli turtki boʻlmoqda. Islom Karimov xalqimiz oʻzligini anglab, mustaqillik poydevorini tobora mustahkamlab borishda, maʼnaviy-axloqiy munosabatlarni yuksaltirishi lozimligi haqida koʻp bor oʻzlarining qimmatli maʼruzalarida toʻxtalib oʻtganlar. Shu ishda davlatimizning istiqboli, xalqimizning farovonligi, osoyishta boʻlishi, - Prezidentimizning fikrlaricha, - yosh avlod, umidli oʻgʻil-qizlarimizga bogʻliq, chunki jamiyatimiz, iqtisodu madaniyatimiz ertangi kuni ularning qoʻlida. Shuning uchun ham Yurtboshimiz: “Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlat”, “Milliy tiklanish yoʻli yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali oʻtadi. Shuning uchun ham maʼlumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi XXI asrda bizning ijtimoiy rivojlanishimizning oʻlchogʻi boʻlib qolmogʻi kerak” deganlarida avvalambor eʼtiborni yoshlarga qaratib farzandlarimiz bizlardan kuchli, aql-zakovatli, or-nomusli va gʻururli boʻlishini qayta-qayta taʼkidlab oʻtmoqdalar. Rahbarimiz aytishlaricha, yoshlarimiz xalq rivoyatlarini bilsa, ota-onalarini hurmat-izzatda saqlab tursa, ustoz-shogird oʻgitlarga amal qilsa, fanlarni va butun jahon tajribasini mukammal oʻzlashtirsa, kasblariga puxta ega boʻlib ulardan oʻzi, oilasi va jamoasiga foyda keltirsa, jamiyatimiz bulardan faqat rozi boʻladi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Oʻzbekiston oʻz istiqbol va taraqqiyot yoʻlini tariflab bering.
- 2.Uzluksiz taʼlim tizimi va turlarini tahlil qiling.
- 3.Milliy dasturning maqsad va vazifalari, bosqichma-bosqich bajarilishi nimalardan iborat?
- 4.Taʼlim-tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini aytib bering.

Men odam jamiyati taraqqiyotiga qaratilgan ilmu fan ahamiyatini ko'rsatishga astoydil urindim, o'quv fanlarni anglangan holda o'rganishi, nazariy bilimlarni hayotda ishlatishi, shaxsiy mustaqil fikrlashni o'stirishi uchun kurashdim.

Abu Ali ibn Sino

5. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy modeli va kasbiy ta'lim

A) Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalarining oldidagi muxim vazifalar. Mutaxassis-o'qituvchilarga qo'yilgan yangi talablar.

B) O'qitishning asosiy maqsadi. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish vazifalari. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari.

V) Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari. Oliy ta'lim tizim hozirgi kundagi masalalari. Kasbiy pedagogika fanning vazifalari.


Tayanch so'zlar: malakali kadrlarni tayyorlash, mutaxassis, mutaxassis - o'qituvchi, pedagogik bilim va ko'nikmalar, ma'naviyatli va madaniyatli shaxs, mahoratli ustoz, yuksak ma'naviy va axloqiy talablar, milliy tizimini yaratish, kasbiy pedagogika.

A) Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalarining oldidagi muxim vazifalar. Mutaxassis-o'qituvchilarga qo'yilgan yangi talablar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fukarolarini shakllantirishdek muhim vazifa qo'ydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish yo'lida oliy o'quv yurtlari zimasiga umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash vazifalarini qo'ymokda. Bu esa hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan, amaliy darslarni o'tkazishni ham puxta egallashni talab etmoqda. Mutaxassislar buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, xozirgi davrning bu talabi bo'lajak mutaxassis - o'qituvchini yuksak pedagogik bilim va ko'nikmalari bilan qurollangan, ma'naviyatli va madaniyatli shaxs, mahoratli ustoz sifatida tayyorlash kerakligi muhim.


Hozirgi kunda o'zgarib borayotgan ijtimoiy va moddiy-ma'naviy shart-sharoitlar mutaxassis-o'qituvchilarga yangi talablar qo'ymokda. O'qituvchining dars beradigan

o'quv predmeti bo'yicha qo'yilgan talablar pedagogik texnologiya, interfaol metod va innovatsion o'yinlar, pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik ijod, pedagogik muloqot va madaniyat bilan yechishi yanada oshganini ko'rish mumkin.



B) O'qitishning asosiy maqsadi. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish vazifalari. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari.

O'quv yurtlarida o'qitishning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsad va mazmunidan kelib chiqadi. Dasturda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish kabi asosiy vazifa turadi.



Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari
1. shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi 2. davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi va ularni qabul qilib olishning kafillari 3. Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asos bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi; fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; 4. Davlat - ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya, moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Barcha sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni oliy o'quv yurtlari tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olganlar o'zi sohasi bo'yicha iqtisodiyot, siyosat, madaniyat davlat va nodavlat tashkilotlarga ishga kirib faol mehnat ko'rsatadi. Bulardan bitta katta guruhi albatta maktab, litsey, kollej va oligohlarda o'z kasbiga o'rgatish bilan ishga kirishadi. Shu oliy maqsadni ko'zda tutib barcha oliy o'quv yurtlarimizda ta'lim-tarbiya va aniq kasbni o'qitish uslubiyotlariga qaratilgan bir necha fanlar o'qitiladi, kasbiy ta'lim bo'limlari ochilgan.

V) Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari. Oliy ta'lim tizim hozirgi kundagi masalalari. Kasbiy pedagogika fanning vazifalari.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega. Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan oliy ta'limdir. Magistratura davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish, o'z kasbi bo'yicha oliy o'quv yurtlarda ishlash va ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish huquqlari beriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini va shu jumladan barcha kasblarga o'qituvchilik tarkibini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi masalalar amalga oshirilayapti:



Shunda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy hamda umumbashariy madaniy-tarixiy an'alariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilayapti, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanayapti. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib borilayapti. O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda

jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, mahalla, bir necha davlat markazlari, jamoat tashkilotlari va fondlar faol mehnat qilayapti.

Shu talablarga taqozo etib, oliy o'quv yurtlarda **«Kasbiy pedagogika» fanning o'qitishi keng yo'lga qo'yilgan.** **«Kasbiy pedagogika» kursini o'qitishning asosiy maqsadi:** bakalavriat bosqichi talabalarini o'z o'quv predmeti bo'yicha bilim va ko'nikmalar, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi xamda amaliyoti buyicha yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Xozirgi zamon o'qituvchisi o'quv predmetini puxta bilish, bu bilimlarning yuqori darajadagi shaxsiy va kasbiy tajribaga, ilg'or ilmiy yutuklarga ega bo'lishga asoslanganligini ijodiy yondashishga imkon yaratadi. Hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, u har tomonlama yetuk, kasbga chuqur ega bo'lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, mahoratli va ijodkor, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishi darkor.

Kasbiy pedagogika fanning vazifalari

Talabalarga ma'lum pedagogik kasbi bo'yicha ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyati, tamoyillari, metod, shakl va vositalarini o'rgatish

Yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat usullari tuzilishini xamda talabalarga o'z mutaxassisligi uchun pedagogik sirlariga o'rgatish

pedagogika nazariyasi va ta'lim-tarbiya asoslariga o'rgatish

Darsda pedagogik texnologiya va interfaol metodlarga asoslanib jismoniy mashklarni tanlay olishi va ularni amalga oshirish usullarini bilishiga ko'maklashish

Nutq va sport harakatlari maxoratiga ega bo'lishiga o'rgatish

Talabada pedagogik maxoratni shakllantirishda jismoniy tarbiyani vosita va uslublarini tanlay olishi

Jismoniy tarbiya va sportni tashkil kilish va talabalarda yaxshi kayfiyat xosil kilish; dars va mashgulotlar o'tish kunikmalariga ega bulishiga o'rgatish

Talaba dars davomida xar xil texnik vositalarni kullay olishi; darelarni umumiy va motor zichliklarini optimal darajada saklay olishi, talabalarga materialni tushinarli va aniq qilib vetkaza olish

Savol va topshiriqlar:

1. O'rta va oliy ta'lim muassasalarining oldiga muhim vazifalarni aytib o'ting.
2. Mutaxassis-o'qituvchilar oldiga qo'yilgan yangi talablar nimalardan iborat?
3. O'qitishning asosiy maqsadini ta'riflang.
4. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish qanaqa vazifalar qo'yilgan?

- 5.Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillarini tasniflang.
- 6.Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
- 7.Oliy ta'lim tizim hozirgi kundagi masalalarini aytib o'ting.
- 8.Kasbiy pedagogika fanning vazifalarini tahlil qiling.

To'g'ri ta'lim berish quyidagilarga tayanadi: 1) O'qitishni ongliligi; 2) Ko'rgazmalilik; 3) Tizimlilik va izchillik; 4) Asoslangan holda; 5) Nazariya va amaliyotining aloqadorligi; 6) Darsliklarga talabchanlik; 7) Olgan ma'lumotlarga tanqidiy qarash va haqiqiyligini aniqlash; 8) Mantiqiy umumlashtirish.

Abu Rayxon Beruniy

6. O'zbekistonda komil insonni shakllantirishda jismoniy tarbiya, sport o'rni va roli

A) Jismoniy tarbiyaning maqsadi.

B) Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

V) O'rta va o'rta maxsus ta'limdagi jismoniy tarbiya asosiy vazifalari va tashkillash shakllari.

Tayanch so'zlar: *jismoniy tarbiya, sog'lom o'sishini ta'minlash, jismonan chiniqqan, mard va sabotli o'stirish, hizmatga, aqliy va jismoniy mehnatga tayyorlash, jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport murabbiyi.*


A) Jismoniy tarbiyaning maqsadi.


Jismoniy tarbiyaning maqsadi - inson tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash, bolani jismonan chiniqqan, mard va sabotli o'stirish, uni oilasi, jamiyat va Vataniga hizmatga, aqliy va jismoniy mehnatga tayyorlashdan iborat. Abdulla Avloniy aytganlaricha, har bir kishi sog'lom fikr, yaxshi ahloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmog'i uchun badanini tarbiya qilishi kerak. Shu borada Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda ommalashtirishga qaratilgan qator hukumat qarorlari qabul qilindi, mamlakatimiz har bir hududida zamonaviy shartlarga muvofiq stadion, sport maydonchalari, sport zallari va saroylari mavjud, yangi sport inshootlari qurilmoqda. Barcha bolalar bog'chasi, boshlang'ich va o'rta maktab, litsey va kollej, oliy o'quv yurtlarda rejalashtirilgan asosda jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Sportning har xil turlari bo'yicha to'garaklarida o'quvchi yoshlar turli ta'lim muassasalarining zamonaviy sport inshootlarida muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmoqdalar. So'nggi yillarda diyorimizda ko'p sonli yuqori malakali sportchilar tayyorlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda futbol, boks, kurash hamma turlari, gimnastika, yengil va og'ir atletika, tennis, eshkak eshish, shaxmat eng yetakchi sport turlaridan sanaladi. Olimpiada o'yinlari, butunjahon va Osiyo chempionatlari hamda birinchiliklarida o'zbek o'g'lonu hammadan go'zal qizlarimiz ko'p karra eng yuksak sovrinli o'rinlarni egallab, Vatanimiz sharafini xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilib kelmoqdalar.

Zamonaviy jismoniy tarbiya va sportda mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining oshishi o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda yangi

yo'llarni va foydalanilmagan zahirani izlab topishni taqozo etadi. Ayniqsa ko'p siklli jismoniy tayyorgarlikning hamma bosqichlarida tiklanish sport va ish qobiliyatini oshirish vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchi va sport trenerlari oldilarida yuksak ma'suliyat qo'yilmoqda. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport oliy o'quv muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni barcha o'quv predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari, reja va dasturlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida belgilagan vazifalari hamda zamonaviy pedagogika fanlari tadqiqotlariga ko'ra qo'yilgan talablar darajasida kasbiy ta'limning nazariy va amaliy asoslari bilan izchil qurollantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Shu tariqada O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya to'g'risida"gi qonuni (2000 yil) ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, mutaxassis - o'qituvchilarning olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga ko'p kerakli vazifalarni belgilaydi. Bu o'rinda "Jismoniy tarbiya to'g'risida"gi qonunning tegishli bandida O'zbekiston fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarini tuzish, jismoniy tarbiya-sport harakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egadirlar deb belgilab qo'yilgan (2-modda).

B) Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.





Shu borada mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasida bir necha vakolatlar yuklangan.

O'zlariga qarashli hududda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga rahbarlik qiladilar va mahalliy byudjetdan mablag' bilan ta'minlaydilar	Jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarining tuzilishiga, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport va turistik tovarlar ishlab chiqarilishiga ko'maklashadilar	Jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarining tuzilishiga, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport va turistik tovarlar ishlab chiqarilishiga ko'maklashadilar
---	--	--

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha vakolatlari (6-modda):

Aholi o'rtasida sport normativlarini topshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadilar	Jismoniy tarbiya-sport harakatini rivojlantirish uchun turar va dam olish joylarida shart-sharoitlar yaratadilar	Jismoniy tarbiya-sport muassasalarini tashkil etadilar va ularni mablag' bilan ta'minlaydilar
--	--	---

Shunda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish davlat organlari, sog'liqni saqlash organlari, ta'lim muassasalari va jismoniy tarbiya sport jamoat birlashmalari jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda sog'lom turmush tarzi keng targ'ib qilinishini uyushtiradilar (9-modda). Ta'lim muassasalarida esa jismoniy tarbiya uzluksiz ta'lim tizimini eng muhim majburiy qismi bo'lib, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari

va dasturlariga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya bo'yicha majburiy darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar va test sinovlari barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda o'tkaziladi. Ta'lim muassasalari harbiy xizmatga chaqirish yoshiga yetmagan yoshlarni jismoniy jihatdan tayyorlaydilar (10-modda).

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar fuqarolarning jismoniy tarbiyasiga davlatning muhim ijtimoiy siyosati darajasida qaraydilar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa tashkilotlar ishtirokida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshiradilar hamda ular asosida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish mahalliy davlat organlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir o'z dasturlarini ishlab chiqadilar.

Fuqarolarning turar joylarida va ommaviy dam olish joylarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari uchun shart-sharoit yaratish va ularni tashkil etish mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi (11-modda).

Nogironlar uchun jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ularning ijtimoiy kamol topishiga hamda jismoniy jihatdan qayta quvvatga kirishiga qaratilgan bo'lib, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun maxsus jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport inshootlari yaratilishini hamda umumiy foydalanishdagi inshootlarda boshqa shart-sharoitlar yaratib berilishini ta'minlaydilar (13-modda).

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari havaskorlik sporti bilan, shuningdek professional sport bilan sportchi, trener yoki hakam sifatida shug'ullanish huquqiga egadirlar. Professional sport sohasidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni tuzish tartibi hamda ularning faoliyat ko'rsatish shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Sport turi bo'yicha sportchi, trener va hakam kasblariga ko'yiladigan malaka talablari jismoniy tarbiya va sportni boshqarish vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi (17-modda).

Yuqori darajali sportchilarni tayyorlash ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (olimpiya zaxiralari kollejlari, oliy sport mahorati maktablari, olimpiya tayyorgarligi markazlari vz boshqalar) tomonidan amalga oshirilib, ularning faoliyat ko'rsatish tartibi jismoniy tarbiya va sportni boshqarish vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish davlat organlari sport bo'yicha terma komandalarning a'zolariga sport mashg'ulotlarini ta'lim olish, mehnat faoliyati va harbiy xizmat bilan samarali uyg'unlashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida sportchilar ishlayotgan, ta'lim olayotgan yoki harbiy xizmatni o'tayotgan

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va harbiy qismlar bilan tegishli shartnomalar tuzadilar (18-modda).

Jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlari ommaviy yoki xususiy mulkdir. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni roʻyobga chiqarishda jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlari yangi egalarga oʻtishini, inshootdan oʻz maqsadida foydalanishni saqlab qolinishini taʼminlaydigan tartib va shartlari belgilab qoʻyiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari oʻz hududlarida jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport yoʻnalishidagi obʼyektlarning rejalashtirilishi, loyihalashtirilishi, qurilishi va foydalanishga topshirilishi ustidan nazorat qiladilar. Taʼlim muassasalarini, turar joy dahalarini zarur jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlari majmuini barpo etmagan holda qurish va qayta qurishga, shuningdek jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlarini, shu hudud doirasida ularga teng inshootlarni barpo etmasdan turib, tugatishga yoʻl qoʻyilmaydi. Taʼlim muassasalari, korxonalar, turar joy dahalarining asosiy jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlari bilan eng kam taʼminlanish normativlari jismoniy tarbiya va sportni boshqarish vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi (20-modda).

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyat bilan tegishli maʼlumot va kasb-hunar tayyorgarligiga ega boʻlgan shaxslar shugʻullanishiga yoʻl qoʻyiladi. Davolash jismoniy tarbiya sohasida pedagogik faoliyat bilan tegishli maʼlumot va kasb-xunar tayyorgarligiga ega boʻlgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shugʻullanishiga yoʻl qoʻyiladi (21-modda).

Oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalar, yetim bolalar, pensioner va nogironlariga jismoniy tarbiya-sport va sogʻlomlashtirish xizmatlari bepul koʻrsatiladi (22-modda).

Davlat boshqaruv organlari, sport turlari boʻyicha federatsiyalar, jamoat birlashmalari, shuningdek jismoniy shaxslar sportchilarga moliyaviy yordam koʻrsatadi. Davlat boshqaruv organlari, jismoniy tarbiya va sport jamoat birlashmalari, sport klublari va markazlari, boshqa ixtisoslashtirilgan sport tashkilotlari va muassasalari sportchilarga zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratadi hamda ularning sihat-salomatligi muhofaza qilinishini taʼminlaydi. Sportchilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozli pensiya oladi (24-modda).

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish vakolatli davlat organi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari jismoniy tarbiya va sport muammolari boʻyicha xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalar oʻrnatish, ular bilan jismoniy tarbiya va sport boʻyicha qoʻshma birlashmalar tuzish, birgalikdagi sport-sogʻlomlashtirish musobaqalarini, uchrashuvlarni, matchlarni oʻtkazadilar (25-modda).


O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya to'g'risida"gi qonunini tahlildan ko'rinayaptiki, yosh avlodni jismonan chiniqtirishda O'zbekiston davlati va jamiyati roli va ahamiyati beqiyos kattadir. Bu yoshlarga qaratilgan g'amho'rlik jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport trenerlari oldiga katta ma'suliyat qo'yadi va ularning kerakli yuqori bilim va malakalarni o'ziga ortib, o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash, gigiyena va ozodalik qoidalariga qo'nikish, bo'lajak buyuk davlat va jamiyat faol qatnashchilarining jismoniy sifatlarini shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish, o'quvchilarga iroda, chidamlilik, intizom, do'stlik, insonparvarlik va vatanparvarlik hissini kamol toptirish, sport talantlarini o'stirish kabi vazifalarni bajarishga qaratiladi.

Barcha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirish yo'nalishini amalga oshirish, unga sog'lom turmush tarzi me'yorlarini kiritish shart-sharoitlarini ta'minlaydi. Shunda o'quvchilarning tibbiy-ozodalik madaniyatini shakllantirish, jismoniy faolligini ko'tarish va jismoniy rivojlantirishni ta'minlash ilmiy-amaliy chora-tadbirlar o'tkaziladi. Sog'lom doirasida imkoniyatlari chegaralangan va o'sishiga og'ishi bor o'quvchilar uchun adaptiv muhit tuzilgan.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha o'quvchi o'n ikki yil majburiy tahsil olgani bilan (9 yil davomida - o'rta maktabda, keyingi 3 yil davomida ixtiyoriy lekin majburiy - akademik litsey yoki kasb-xunar kollejdagi) o'quv rejalar asosida ming soatdan ko'p jismoniy tarbiya darslarida ishtirok qiladi. O'rta va o'rta maxsus ta'limdagi jismoniy tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari aniqlangan bo'lib, shu darslarda o'quvchi gigiyena-ozodalik qoidalarini, ovqatlanish va harakat tartibi, saf tuzish, muvozanatni saqlash, havfsizlik qoidalarini o'rganadi, gimnastika, akrobatika, yengil atletika, suzish, harakatli va sport o'yinlari bilan shug'ullanadi. Jismoniy tarbiya jarayoni o'quvchilarning jinsi, sog'lomligi, jismoniy ahvoli, harakat qobiliyatlarining darajasiga qarab, har bir shaxsga xos nuqtai nazardan ta'minlanadi.

Jismoniy tarbiya mazmun-mohiyati davlatimiz me'yoriy xujjatlar bilan ish tartibiga kiritiladi va jismoniy tarbiya o'quv dasturlari, sinf, auditoriya va maktabdan tashqari mashg'ulotlari o'quv dasturlari, maxsus tibbiy guruhlariga o'tkazilgan o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv dasturlari, jismoniy madaniyat maktab jamoalari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomlar, "Alpomish" va "Barchinoy" me'yoriy majmualariga ko'rsatiladi.

O'rta va o'rta maxsus ta'limdagi jismoniy tarbiya asosiy vazifalari:



V) O'rta va o'rta mahsus ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya tashkillash shakllari tizimi:

Jismoniy tarbiya va sport darslari va fakultativ mashg'ulotlari	Sinf, auditoriya, sport zali, stadion, sport maydonchasida.
Sinf, auditoriyadan tashqari sport-ommaviy ishlar	Jismoniy tarbiya, fitnes, shoping, aerobika to'garaklari, sport seksiyalari, sport musobaqalari, turizm, sinf, guruhlar orasidagi sport musobaqalari
Jismoniy-sog'lomlashtirish tadbirlar	Ertalabki gimnastika, yugurish, boshqa darslarda jismoniy daqiqalar, tanaffus payti jismoniy mashqlar va o'yinlar, fitnes, shoping, aerobika
Mashg'ulotlar maktab, litsey, kollejdin tashqari sport-ommaviy ishlar	Mashg'ulotlar zallarda, bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya sport zahilari maktablari, sport jamoalari, o'y, stadion, sport maydonchalari, park va plyajlarda murabbiylar boshchiligi va nazoratida hamda mustaqil sport mashqlari va musobaqalar

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport murabbiyi o'quv dasturni bajarishiga, o'quvchilar kerakli bilim, ko'nikma va malaka o'zlashtirishiga, darslarda sanitar-gigiyena talablariga rioya qilishga, falokat vaziyatlarni oldini olishga javobgardir. O'qituvchi va trener jismoniy va sport tayyorgarlik tizimli xisob-kitobi va nazoratini olib boradi, o'zining kundalik daftarini to'ldirib boradi, qobiliyatli bolalarni sport seksiyalariga jalb qiladi, jismoniy-ommaviy tadbirlarni tashkil qiladi, maktab sport musobaqa va bayramlarni o'tkazadi, sport normativlarni qabul qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jismoniy tarbiya maqsadini aytib o'ting.
2. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining qanaqa asosiy prinsiplarini bilasiz?
3. O'rta va o'rta mahsus ta'limdagi jismoniy tarbiya vazifalari va shakllarini tasniflab bering.

II-BO‘LIM. KASBIY PEDAGOGIKA FANINING ILMIY ASOSLARI

Yosh iqtidorli o‘quvchi-talabalar bilan shug‘ulaning.

Mirzo Ulug‘bek.

7. Kasbiy pedagogika fanining ob'yekti va predmeti.

A) Jamiyatning talab va ehtiyojlari. Inson va jamiyat hayoti. Pedagogik jarayonini boshqarish.

B) Kasbiy pedagogikaning predmeti va ob'yekti. Komil inson sifatleri. Metodologik asoslar. Pedagogik-psixologik asoslar. Didaktik tayyorgarlik. Tarbiya berish. Mustakil va ijodiy ishlar.

V) Talabalar bilim va malaka o‘zlashtirishi. O‘z-o‘zini kasbiy va pedagogik rivojlantirish.

Tayanch so‘zlar: *Jamiyat, talab, ehtiyoj, pedagogik jarayon, boshqarish, predmet, ob'yekt, inson sifatleri, metodologiya, didaktika, mustaqil ish, ijodiy ish, o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish.*

A) Jamiyatning talab va ehtiyojlari. Inson va jamiyat hayoti. Pedagogik jarayonini boshqarish.

Boshqa fanlar kabi kasbiy pedagogika ham fan sifatida shakllanar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo‘ldi. Aql-idrokli kishilar jamiyati paydo bo‘lishi bilan tafakkur va nutq o‘rib, odamlarda mehnat faoliyati jarayonida ishlab chiqarish tajribalari, mehnat qilish va mehnat qurollarni yasash va ishlata bilish ko‘nikmalari hosil bo‘ldi, bu qurollarni takomillashtirish qobiliyati kamol topa bordi. Kattalar turmush tarzi va mehnatda orttirgan tajribasi asosida yoshlarni ham ish qilishga o‘rgatdi, ularni tabiat, oila va jamiyati oldida muvaffaqiyatli bo‘lish, jamoa talablariga mos kelish uchun tarbiyalaydi. Inson va jamiyat hayotining turli sohalarida orttirgan tajriba, tabiat va ijtimoiy hayotdagi bilimlarning boyib borishi bilan ularni yosh avlodga uzatishi ham murakkablasha borishi aniq ko‘rindi. Ta'lim-tarbiya mohirlik va ishning ko‘zini bilishni talab eta boshladi. Shunday qilib, ta'lim-tarbiyani anglash, tajribalarni o‘rgatish odamizot jamiyati amaliy ehtiyojining zaruratidan kelib chiqdi va insoniyat bilan birgalikda taraqqiy eta bordi. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirgan va hayotga tadbiq qilish jarayonida pedagogika fani paydo bo‘la boshladi.

Pedagogik jarayonini boshqarish haqida gapirilganda, o‘qituvchining ta'lim-tarbiya ob'yektini chuqur bilishiga asoslangan harakatlarini rejalashtirish nazarda tutiladi. Butun o‘qitish-tarbiyaviy jarayon davomida ta'lim-tarbiya ob'yektini bilish, unga pedagogik ta'sir ko‘rsatish vazifalari. o‘qitishning mazmuni, metodlari va shakllarini aniq va ravon belgilashga, ya'ni shaxsning tarkib topishini muvaffaqiyatli

boshkarishiga imkon beradi. Pedagogik jarayon boshkaradigan jarayon bo'lib, bir qator ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu vazifalar, o'z navbatida, pedagogik jarayon amalga oshiriladigan pedagogik tizimning pirovard maksadlariga bo'ysindirilgan.

U yoki bu pedagogik tizim bir qator belgilari: pedagogik maksadlari, mazmuni, o'quvchilar yoshi, pedagog malakasi, o'tib borayotgan pedagogik jarayonning shart - sharoitlari, shakl va vositalar, mazmun va metodlar bilan farq qiladi. Pedagogik tizimlar fan sifatida pedagogikaning asosiy va murakkab tekshirish ob'yektidir.

Ijtimoiy hayotning boshqa hamma soxalarida bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham ilmiy asoslarni ishlab chiqish zarur, busiz ta'lim-tarbiyaning amaliy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Kasbiy pedagogika, ta'lim va tarbiya masalalarni tekshirar ekan, avvalo yangi mustaqil davrdagi jamiyat qurish vazifalaridan kelib chiqadi. U O'zbekiston siyosati milliy mafkurasi bilan mustahkam bog'langan, davlatimiz tomonidan oldiga qo'yilgai yangi qurayotgai jamiyat extiyojlaridan kelib chnqadigan vazifalarni bajaradi.

B) Kasbiy pedagogikaning predmeti va ob'yekti. Komil inson sifatleri. Metodologik asoslar. Pedagogik-psixologik asoslar. Didaktik tayyorgarlik. Tarbiya berish. Mustakil va ijodiy ishlar.

Kasbiy pedagogikaning predmeti - oliy o'quv yurtlarda tahsil olayotganBakalavriat bosqichi talabalarini egallayotgan bazaviy tayanch mutaxassisligibo'yicha turli xil o'quv yurtlardagi o'quvchilarni tarbiya, bilim berishga o'qitish,ularning ilmiy pedagogik nazariya va amaliyotini ijodiy rivojlantirish, yoshmutaxassislarga kasbiy va pedagogik ta'lim berish tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.
--

Kasbiy pedagogikani o'rganish bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport treneri uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya barkamol avlod ta'lim-tarbiyasining muhim vositasidir. U axloqiy, aqliy, estetik, mehnat tarbiyasi va kasbiy ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, sport trenerining vazifasi faqat o'quvchilarning jismoniy sifatleri va maxsus harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirishgina emas, balki, eng asosiysi - har tomonlama rivojlangan insonni, barkamol avlodni tarkib toptirish hamdir.

Bu vazifani muvaffaqiyatli hal ztish uchun jnsmoniy tarbiya o'qituvchisi va sport treneri ta'lim-tarbiyaning ob'yekti, predmeti, umumiy maqsadi xamda vazifalarini yaxshi bilishi, ta'lim - tarbiyaning mazmuni, metodlari va shakllarini o'zlashtirishi kerak. Ular halq va ilmiy ta'lim-tarbiya pedagogika va metodikasini yaxshi egallagan bo'lishlari, nazariy bilimlarni o'zlarining pedagogik faoliyatlari tajribasida mohirona qo'llay olishlari kerak. Shuiing uchun xalqimizning an'ana va qadriyatlarini, buyuk

mutafakkirlarning fikr va g'oyalari, O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasi va boshqa ta'lim-tarbiyaga qaratilgan qonunlarining mazmun-mohiyatini, Prezidentimiz yoshlarga bag'ishlagan sermazmunli so'zlarini, ilg'or pedagogik nazariyani chuqur tushungan xolda zgallab olmay turib, yosh jamiyatimizning ta'lim-tarbiya vazifalarini hal ztish mumkin emas. O'zbekiston mustaqil bo'lishi bilanoq davlat va jamiyatimiz yosh avlod ta'lim-tarbiyasi ishlariga katta e'tibor bermoqda. Hozirgi O'zbekistonning ta'lim-tarbiyasining asosiy o'ziga xos xususiyati shaxsni har tomonlama kamol toptirish, chuqur ma'lumotli, yuksak g'oyali, aqliy, ma'naviy hamda jismoniy jihatdan yetuk inson etib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va uzluksiz ta'lim ishlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Yurtboshimiz mustaqilligimiz dastlabki kunlaridayoq oila, jamiyat va maktablarimizda barkamol avlodni o'stirish, yoshlarga ta'lim berish va tarbiyalash ishlarini milliy g'oya maqsadiga qaratish, yosh avlodimiz yangi demokratik va gumanistik jamiyat qurish masalalarini to'laqonlik bilan anglash va bor kuch-qudrati bilan davom ettirish uchun ularga yangi fikr va g'oyali muallim - o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kerakligini uqtirib o'tganlar.

Kasbiy pedagogika fani jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport treneridan pedagoglik va murabbiylik amaliyotida o'quvchilarni ta'lim-tarbiyaning vosita va metodlarini tanlashda, turli hil maktablarda, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarilarda, oliy ta'lim muassasalarida kasb amaliy tayyorgarlikni amalga oshirishda muxim o'rin egallaydi. Shuning uchun kasbiy pedagogika faniga oliy ta'lim muassasalarida alohida talab qo'yiladi. Oliy o'quv yurtlarida tarbiyalanayotgan talabalarni pedagogik mahoratini oshirishda va ularni hayotda qo'llay olish bo'yicha asosiy ixtisoslik fani bulib pedagoglar tayyorlash tizimini ajralmas bug'ini bo'lib hisoblanadi.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, kasbiy pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega bo'ldi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

Pedagogika atamasi ham qadimiy bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi yunoncha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

O'zligini anglash, birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal kilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan, uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. YUqorida sanab o'tilgan ikki sifat komil inson sifatning asosini tashkil etadi. Chunki komil inson hamma sifatlarini tarbiya

sohasidagi ilmlarni xulosalab, mujassamlashtirilsa, ular sakkizta asosiy fazilatlargaylanadi:

yaxshi fikr	pokiza odob-ahloq
go'zal fe'l-atvor	xushgo'y muomalalik
halol ish,	ezgu sabr-toqat,
yuqori kuch-g'ayrat	ma'noli mardlik

Ushbu sifatlar o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadidan iboratdir. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy-amaliy o'quv, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim, ko'nikmalar hosil qilishdan iborat bo'lgan pedagogika fanining zamonaviy fan asoslarini kengayganligini ko'rsatadi.

Pedagogika fanining predmeti o'qitishning ta'lim-tarbiya zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari. vositalari bilan kelajak yosh mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Ta'lim berish, o'qitishning vazifasi yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ruyobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Fanlar tizimida kasbiy pedagogikaning tutgan o'rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni kasbiy ta'lim tahsil olishida shu kasbni kelajak o'qitish jarayonida o'quvchini rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, ma'lumotli qilish va o'qitish qonuniyatlari borasida bilim oladi. Shu sababli, shaxs, o'quvchi, tarbiyalanuvchini ob'yekt deb bilamiz, uni shu kasbni o'qitish jarayonida rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim va tarbiya berish kasbiy pedagogikaning predmeti deb ataladi.

Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Pedagog - mutaxassislar turli vositalar va usullar orqali ma'lum maqsadni ko'zlagan holda o'zlarida ma'lum xislatlarni hosil qilish va rivojlantirishni xohlaydilar. Shunday qilib, tarbiya shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatidir.

Ta'lim maxsus tayyorgarlik ko'rgan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar rahbarligida amalga oshiriladigan bilim berish jarayonidir.

Ta'lim pedagoglarning (bilim berish) faoliyatidan va o'quvchi-talabalarning (bilim olish, o'qish) faoliyatlaridan iborat qo'shaloq jarayondir.

Birgalikdagi faoliyat orqali yoshlar ilmiy bilimlar bilan qurollanadi. Buning natijasida ularning ijodiy qobiliyatlari har tomonlama shakllanadi. Ma'lumot ta'lim-tarbiya jarayonining natijasi orqali to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi va shakllangan ma'naviy fazilatlar majmuidir.

Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim beradigan, aniq maqsadli rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Shuning bilan **"Kasbiy pedagogika" fanining ob'yekti bo'lmish barcha oiliy o'quv yurtlarda tahsil olayotgan bakalavriat bosqichi - talabalardir.**

Professor-o'qituvchilar sub'yekt sifatida o'quv ob'yekti, ya'ni talabalarga "Kasbiy pedagogika" fanini ma'ruza o'qitishi va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida kuyidagi asoslarga tayanish tavsiya etiladi:

Metodologik asosga tayanish. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Yurtboshimiz asarlari, xukumatimizning qator hujjatlari, o'zbek halq pedagogikasi, halqimizning urf-odatlari, qadriyatlari hamda buyuk butunjahon va o'zbek mutafakkirlarining fikr va g'oyalari bilan jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha ishlarning metodologik va qonuniy manbalari bilan kelajak ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassis - o'qituvchi kadrlarni tayyorlash nazariy asoslarini bilish. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda ilmiy-nazariy, manaviy-ma'rifiy, madaniy kuzdriyatlar va milliy g'oyamizdan samarali foydalanishni malakayeiga ega bulish, o'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy goyani singdirishning mazmuni, vositalari, mstodlari va shakllarini bilish.

Pedagogik-psixologik asoslarga tayanish. Ya'ni, Talim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakl, metod va vositalarining pedagogik-psixologik asoslari; psixologik tashhis usullaridai foydalanish; pedagogik jarayonda o'qitish shakl, metod va vositalaridan o'rinli foydalana olish: ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyati, metod, vosita va shakllarining uyg'unligi, uzviyligini ta'minlay olish; yangi pedagogik va axborot gexnologayalarini qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini bilish.

Didaktik tayyorgarlikka asoslanish. Ya'ni, ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga quyiladigai didaktik talablarni o'zlashtirish; didaktik maqsadlar asosida mashg'ulotning xar bir bosqichi uchun renroduktiv, produktiv va ijodiy o'quv toshshiriqlarii ishlab chikish; fanlar va mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish; bakalavrlarni o'z o'quv predmeti bo'yicha bilim va ko'nikmalar, pedagogik maxorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi xamda amaliyoti buyicha yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash.

Tarbiya berish asoslariga ta'yanish. Ya'ni, hozirgi zamon o'qituvchisi o'quv predmetini puxta bilish, bu bilimlarning yuqori darajadagi shaxsiy va kasbiy tajribaga, ilg'or ilmiy yutuklarga ega bo'lishga asoslanish va ijodiy yondashish; talabani hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biriga tarbiyalash, u har tomonlama yetuk, kasbga chuqur ega bo'lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodik, maxoratli va ijodkor, jamiyatdagi xamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishga imkon yaratish;

talabalarni jamoaga birlashtirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil ztish, bajarilgan ishni tahlil, muhokama va baholay olish, oliy talimda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakl va vositalarini. pedagogik etika va pedagogik madaniyat meyorlarini bilish;

talabalarga namuna bo'lish.

Mustakil va ijodiy ishlarni tashkil etishga asoslanish. Ya'ni, talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini bilish;

iqtidorli talabalarini aniqlash, talabalarning mustaqil nshlarini tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotini yaratish yo'llarini bilish, ukuv material mazmuni asosida metodlarini samarali tanlash va uyg'unlashtira olish.

V) Talabalar bilim va malaka o'zlashtirishi. O'z-o'zini kasbiy va pedagogik rivojlantirish.


Talabalar bilim va malaka o'zlashtirishida reyting nazoratini olib borish asoslariga tayanish. Ya'ni, talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini amalga oshirish;

reyting tizimi, pazorat turlari uchun differensiallashtirilgan topshiriqlarini tuza olish;

talabalarshshg bilish faoliyatidagi ko'p uchraydigan kamchiliklar va ularniig javoblaridagi xatoliklarni aniqlashni o'rganish.

O'z-o'zini kasbiy va pedagogik rivojlantirishga qaratilgan ishlarga asoslanish. Ya'ni, ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirishga, ularniig rinojlanish tarixi. fanda erishilgan yutuklar va muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lishiga; darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil kilishiga, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali va o'z o'rnida foydalana olishiga; mutaxassislik va pedagoglik bilim, ko'nikma va malakalari buyicha fanning maksadi, vazifalari, predmet va ob'yekt, asosiy metodlarini bilishiga; fanga kuyiladigan asosiy talablar; umumiy yuklama xajmi va uning taqsimogi: fan buyicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak pedagog-mutaxassisga qo'yiladigan mahsus va pedagogik malaka talablarini bilishiga; ilmiy- metodik ishlarni amalga oshirishiga, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarishiga; pedagogika fani taraqqiyotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga boglikligini o'zlashtirishiga; fan bo'yicha kasbiy

ustozlik darajasini ko‘tarishga, pedagogika faning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan uzviyligini ko‘rsata bilishiga; fanni taraqqiy etish muammolari va yechimlarini bilishiga ko‘maklashish.



Savol va topshiriqlar

1. Jamiyatning talab va ehtiyojlari nimalardan iborat?
2. Inson va jamiyat hayoti qaysi qadriyatlarga tayanadi?
3. Pedagogik jarayonini boshqarishda kim asosiy rol o'ynaydi?
4. Kasbiy pedagogikaning predmeti va ob'yektini ta'riflab bering
5. Komil inson sifatlarini bilasizmi?
6. Metodologik va pedagogik-psixologik asoslarni aytib o'ting.

Yaxshi odamlar tabiatdan emas, balki mashqdan bo‘laveradi... tarbiya odamni boshqacha tuzadi hamda uning tabiatini tug‘diradi. Demokrit

8. Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriya va tushunchalari

- A) Falsafa kategoriyalari. Umumfan kategoriyalar.
- B) Kasbiy pedagogikaning mahsus kategoriyalari.
- V) Yangi kategoriya va tushunchalar.

Tayanch so‘zlar: *faoliyat, sabab, oqibat, nazariya, amaliyot, ijtimoiylashuv, xususiylik, umumlashtirish, ilmiy faraz, tarkibiy qism, faraz, tuzilma, vazifa, daraja, rivojlanish, shakllanish, amaliyot, faoliyat, tizim, o‘quv material, mazmun, metod, o‘qituvchi, o‘quvchi, dars, vosita, shakl, kommunikatsiya, teskari aloqa.*

A) Falsafa kategoriyalari. Umumfan kategoriyalar.

Ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, darslarni savol-javob, evristik, muammoni o‘rtaga qo‘yish, bahs, munozara, musobaqa va o‘yin tarzida tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni kiritish, multimedia slayd va qo‘llanmalardan foydalanish, o‘quvchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, o‘quvchilar bilan individual, har biri uni bilim va malakalar daoajasini, qobiliyat va imkoniyatlarni bilib ishlash, tadqiqotchilik va ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi. Kasbiy pedagogika oldida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni yechishiga shu fan ishlatadigan pedagogik kategoriyalarni ilmiy asoslangan aniqlab olishi yordam beradi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda kasbiy pedagogika fani bo‘yicha ta'lim-tarbiyadagi asosiy konseptual kategoriya va tushunchalarini keltiramiz. Haqiqatdan ham, boshqa fanlarda bo‘lishicha, kasbiy pedagogikaning kategoriya apparati umumiy olganda falsafiy kategoriyalardan (hamma fanlar dunyoni falsafiy anglashdan kelib chiqdi va dunyoviy materiya hamda tafakkur tushunchalar bilan amalga oshiriladi), umumfan kategoriyalardan (ba'zi ilmiy-tadqiqot atamalar borliq mazmun-mohiyatini hammalar tushinishi uchun barcha fanlarda ishlatiladi) va maxsus kategoriyalar (shu yerda - pedagogika maxsus ishlatiladi)ga ega. Kasbiy pedagogika o‘zining tadqiqot va amaliyotlarda ba'zi falsafa kategoriyalarni amalga oshiradi. Bulardan, **faoliyat** (atrof muhitga faol qarash), **sabab** (ish-harakatning holati yoki vaziyati), **oqibat** (uning natijasi), **nazariya** (fikrlash jarayonida ishlab chiqilgan, mulohaza yoki uning xulosasi), **amaliyot** (empirik, tajriba yo‘li bilan isbotlangan yoki nazariyani ishga solish, amaliyotga kiritish), **ijtimoiylashuv** (odamni ijtimoiy jarayonga kiritish hamda uni shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirish uchun boshqalar bilan uning munosabatlari), **individuallik**, **xususiylik** (alohida shaxs sifatida uning rivoji), **tahlil**

(tarkibiy qismlarga bo'lish), **umumlashtirish, sintez** (qismlarni jisplash, birlashtirish) kabi atamalardir.

Kasbiy pedagogikada umumfan kategoriyalar ham ko'p ishlatiladi. Bulardan **ilmiy faraz, gipoteza** (taxmin, kelajakni taxmin qilish, ko'rish), **tarkibiy qism, komponent** (bir butunning choragi, qismi), **element** (tuzilmaning qismi, modda, sodda modda), **tizim, sistema** (ko'plik birlashuvi bir butun sifatida), **tuzilma, struktura** (qurilish manbai, to'lg'azma, but, maslaq), **vazifa, funktsiya** (qobiliyat, imkonlik, burchli sifat), **daraja** (sifatning miqdoriy o'lchami), **shakllanish** (kishining shaxs sifatida bo'lishi, o'zgarishi jarayoni yoki natijasi), **rivojlanish** (kishining miqdoriy yoki sifatli o'zgarishi jarayoni yoki natijasi) va boshqalar.

Kasbiy pedagogikaning maxsus kategoriyalar asosiylari besh atamadan iboratdir:

$$\boxed{\text{O'qitish}} + \boxed{\text{Tarbiya}} = \boxed{\text{Ta'lim}}$$
$$\boxed{+\text{Shaxsni rivojlantirish}} = \boxed{=\text{shaxsni shakllantirish}}$$

Ta'lim - bu o'qitish va tarbiya jarayoni natijasidir. O'quvchi-talaba o'zlashtirilayotgan yoki o'zlashtirgan tizimli bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi. Oliy o'quv yurtida ta'lim olgan kishi - u yoki bu kasbga ega bo'lib, fanlar asoslari bir butun tizimli bilim va malakalar yaxlit majmuasining aniq hajmini o'zlashtirgan odamdir. Shu bilim va malakalar uning kasbiy ishlariga to'g'ri erkin va mantiqiy fikrlash hamda muvaffaqiyatli hatti-harakatlar qilishga imkon yaratadi. O'zining xarakter xususiyati va yo'nalishiga ko'ra ta'lim ikki turga bo'linadi: **umumiy ta'lim** (o'rta maktabda odamni umumiy aqliy, ma'naviy va jismoniy o'sishi uchun kerakli fanlar asoslari bo'yicha keng ma'lumot va bilim berish, amaliy qobiliyatlarni shakllantirish, aniq bir ishga layoqatini ochib berish va rivojlantirish); **kasbiy ta'lim** (bir kasbni, mutaxassislikni chuqur egalashga bilimlar berish va ularni o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulot, tajriba va tadqiqotlar o'tkazish, kollejda - kelajak usta va yuqori malakali ishchilar uchun, oliy o'quv yurtida - kelajak oliy malakali mutaxassislar uchun).

Ta'lim - o'quvchi yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish va shu asosda ularning aqliy, ruhiy va jismoniy salohiyati, bor qobiliyatlarini oshirishida rejali, uyushgan va aniq maqsadga qaratilgan jarayondir. Tarbiya - bu shaxsni shakllantirish maqsadida tashkil qilingan jarayon, ijtimoiy insonparvar yuksak maqsad, yuksak g'oyaga qaratilgan, to'plangan tajribani keyingi avlodga o'tkazish, hayotga va mehnatga tayyorlash uchun odamning xulq-atvor va turli qarashlar majmuidir.

Tarbiya pedagogik nazariya va amaliyotda qo'llanilib, shaxsning har tomonlama garmonik rivojlanishini hamda uni ijtimoiy, mehnat va oila faoliyatiga tayyorlaydi. Tarbiya biror maqsadga qaratilgan reja yoki jarayon bo'lishi mumkin. Shaxsning

ijtimoiy shakllanishi irsiyat, atrof-muhit hamda maxsus tarbiyaviy faoliyat natijasidir. Bu o'zbek xalqining yaxshi o'qishida, o'zini aqliy, ruhiy va jismoniy salohiyatini oshirishida, yangi jamiyat qurishda faol ishtirok etishi jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayon davomida va uning natijasida insonning iymon-e'tiqodi, iroda va hulq-atvor xususiyatlari, axloqiy xatti-xarakatlari va jismoniy sifatlari tarkib topadi.

O'qitish - bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining mahsus hamda boshqaruv jarayoni. O'qitish - o'qituvchi va o'qish - o'quvchining faoliyatidir. Bu ikki faoliyat ta'limning o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo qiladigan tomonlaridir. O'qitish va o'qish rejali jarayoni har hil joylarda (sinf, auditoriya, maxsus va laboratoriya xonalarda, sport zali va sport maydonchalarda) va xilma-xil shakllarda (ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarda, maslahat va mustaqil ishlarda) amalga oshiriladi. O'qitish - bu bilim berish, ko'nikma va malakalarni o'stirish, insonning jamiyat, tabiat va olam oldida yangi qirralarini kashf etish qobiliyatlarini ijodiy va mantiqiy tarbiyalash tafakkuridir.

O'qitish va o'qishning mevasi - ilm va tarbiya olishdir. Ilm va tarbiya olishning asosiy yo'llari hamda vositalari - o'qitish (ta'lim berish) va tarbiya berish. **O'qish - ilm va tarbiya olishdir.** Buni ikki xususiyatli tomoni mavjud. Birinchi tomoni, insoniyat ilmiy bilimlarni tizimli egallashi, ko'nikma va malakalar hosil qilishi, butun insoniyat va xalqlar tomonlaridan to'plangan tajribalarni, shu jumladan, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri va rivoji to'g'risidagi fanlarni o'zlashtirib olishi va o'zining aqliy salohiyati, diqqati, xotirasi, bor qobiliyatlari va imkoniyatlarini o'stirishidir. Ikkinchi tomoni insoniyatni jamiyat oldida halol-pokiza hamda faol a'zosi bo'lishi uchun o'zining iroda, vijdon, hulq-atvori, odob-ahloqini shakllantirishdir.

Bu passiv mushohida jarayoni emas, balki o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir. O'qish yo'lida biz mustaqil ravishda bilim olish, bu bilimlardan foydalana olish ko'nikmasini o'z ichiga oluvchi aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini egallashdir.

O'qitish jarayonini pedagogika fanining didaktika deb nomlangan tarkibiy qismi o'rganadi. **Didaktika** - yunon so'zidan olingan bo'lib **o'qitish nazariyasi** demakdir. Didaktika barcha o'quv fanlarni o'qitish uchun umumiy qonun va qoidalarni belgilab beradi. Har bir aniq fan o'qitishi umumiy didaktik ma'lumotlarga asoslanadi.

Kasbiy pedagogikada **ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarning aqliy va jismoniy kuchlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari, o'qish faolligini rivojlantirish** tushunchalari keng qo'llaniladi. Bular ta'lim-tarbiya natijasida o'quvchi tomonidan shu rejada bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va odob-ahloqini o'zida tarbiya qilishni bildiradi.

B) Kasbiy pedagogikaning mahsus kategoriyalari.

O'qitish asosini **bilimlar** (mazkur narsa, holat, vaziyat, harakat, shaxs bo'yicha ma'lumotlar to'plami), **ko'nikmalar** (bilimlar asosida ish-harakatlar bajarish, mukammal, avtomatik ravishda ishlatadigan ko'nikmalar), **malakalar** (ko'p yillar

daomida to'plangan boy tajriba va kasbiy mahoratni eng nozik tomonlarini egallash jarayoni) tashkil etadi. O'qitishning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Bilimlarni egallash - haqiqiy tabiat, insoniyat va ijtimoiy voqyea, narsa, holat, vaziyat va shaxslarni bilib olish, ular orasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, fahmlash, izohlay bilish, umumlashtira va xulosalar chiqara bilish. Bilim fikr qilish bilan ifodalanadi. Bilimlar asosida o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira o'sib boradi, e'tiqod tarbiyalanadi, ilmiy dunyoqarash tarkib topadi. Barcha bilimlarni o'rganishga imkon yo'q, shuning uchun o'qish jarayonida har bir fanning eng zaruriy, eng muhimlari, asoslari o'rganiladi. Ko'nikma o'z bilimlarni amalda qo'llay bilish demakdir. Ko'nikma aqliy yoki jismoniy mehnat bilan ifodalanadi. Har qanday ko'nikma bilim talab qiladi. O'quvchilarning ba'zi ko'nikmalari ko'p mashqlardan so'ng malaka tarziga o'tadi va u avtomatlashgan ko'nikmaga aylanadi. Malaka esa ko'p yillik tajribalar asosida yig'ilgan boy bilimlar majmuini, ushbu kasbning sir-asrorlarini egallash natijasida paydo bo'ladi. O'qitish jarayonida bilim, ko'nikma o'zaro uzviy bog'lanadi, bunda bilim yetakchi rol o'ynaydi. Faqat bilim asosidagina ma'lum darajada ko'nikma sekin-asta to'plangan bilimlar natijasida malaka hosil bo'ladi.

Mazkur asosiy tushunchalar kasbiy pedagogikaning falsafiy mohiyatini anglatadi, chunki pedagogika fani faqat shu kategoriya va tushunchalar ichida o'zini xis etadi. Lekin pedagogikaning boshqa benihoyat kerakli kategoriyalar mavjud. Ulardan quyidagilarni keltiramiz: **amaliyot** (bilimning tekshiruvchisi, maqsadi va haqiqat mezonidir), **pedagogik faoliyat** (o'qitish va tarbiya berish maqsadida pedagogning faoliyati), **pedagogik tizim** (o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan mazmuni, metodlari, shakl va vositalarining to'plami), **dars o'tkazish** (o'zlashtirish uchun o'quv material berish, uni mustahkamlash, umulashtirish, takrorlash, nazorat qilish), **o'quv predmeti** (o'qitish uchun berilgan iqtisodiyot, fan yoki madaniyat bo'limi, qismi), **o'quv material** (bu yoki u o'quv predmetining bilimlar tizimi yoki uning bir qismi), **o'quv predmetining mazmuni** (o'quvchining shakllantirishi va rivojlantirishiga qaratilgan bilim, ko'nikma, malakalarning to'plami), **o'quv vaziyat** (o'quv jarayonida paydo bo'lgan vaziyat), **o'qitish metodi** (o'quv materialni berish va o'rganish usuli), **o'qitish uslubi** (o'qitish metodning elementi), **o'qituvchi** (ta'lim beruvchi), **o'quvchi** (ta'lim oluvchi), **dars** (o'qitishni tashkil etishni asosiy shakli), **o'qitish vositalari** (o'qitish uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar, elektron kompyuterli doska yoki multimedia majmuasi, didaktik materiallar: taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar maxsus adabiyot (darslik), o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, imtihon va nazorat varaqalari), **o'qitishni tashkil etish shakllari** (dialog, polilog, monolog, muloqot, munozara, hamkorlik, kichik guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda ishlash), **kommunikatsiya usullari** (o'quvchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar), **teskari aloqa usullari va vositalari** (kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish

diagnostikasi), **sezgi** (bizning sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etuvchi voqyelikdagi narsa va hodisalar ayrim sifatlarining: issiq-sovuq, shirin-nordon, yorug'-qorong'i va b.q., miyaimizda aks etishidir), **idrok** (voqyelikda mavjud bo'lgan narsa yoki hodisalarning inson ongida yaxlit holicha aks etishidir), **tasavvur** (idrok va sezgilar qoldirgan iz), **tafakkur** (biror hodisa yoki jarayonning mohiyatini ochib beradigan, munosabatlarning sababiy bog'lanishini aniqlaydigan odam miyasining harakati).

V) Yangi kategoriya va tushunchalar.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogika fani yangi ilmiy tadqiqot va ta'lim-tarbiya amaliyoti, hozirgi paytda barcha o'quv muassalarda kiritilayotgan va o'zining samarali natijalarini ko'rsatayotgan pedagogik texnologiyalardan kelib chiqib, yangi kategoriya va tushunchalarni taqdim qilmoqda. Bulardan ba'zilarni keltiramiz va tahlil qilishga urinamiz.

Shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya olayotgan barcha o'quvchilarni har birining bor shaxsiy qobiliyati va imkoniyatlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasi, tabiati va hulq-atvorini inobatga olib, to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda ma'lum bir o'quvchining shaxsini, kelgusidagi turmush tarzi va faoliyati bilan bog'liq ta'lim-tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi. **Tizimli yondoshuv** ta'lim-tarbiya texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'iga chaqiradi. Shunga qarab, jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi yaqqol ko'rinishi darkor. **Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv** shaxsning sifatlarini shakllantirishga, o'quvchining faoliyatni faollashtirish va kuchaytirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. **Dialogik yondoshuv** o'quvchilarning insoniyligi, psixologik birligi va o'zaro ijobiy munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxs o'z-o'zini faollashtirish va ko'rsata olish kerakligini payqab oladi, ijodiy faoliyati kuchayadi. **Hamkorlik pedagogikasi** insonparvarlik, demokratlik, tenglik, xushmuomalalik o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. **Muammoli ta'lim-tarbiya** masala mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali o'quvchi faoliyatini faollashtirish metodi bo'lib, bilimni sub'yekt sifatida o'quvchi o'zi topa bilish va masalani bahs-munozarada hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. **Kompyuter va axborot texnologiyalarini** o'quv jarayoniga qo'llashi bilan o'quv axborotining mazmuni va hajmi, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni boshqarish kafolatlaydigan usullari va vositalari butunlay ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiradi.

O‘qitishning interfaol usullari va texnikasi hozirgi kunda o‘qitish jarayonida faol ishlatilib, barcha o‘quvchilarni bilim va qobiliyatlariga qarab har bir darsda keng foydalanilmoqda, ular asosida munozara, musobaqa, aqliy hujum, o‘yinlar uyushtirib o‘quvchilarni qiziqtirish va intilishga chaqirmoqda. **Boshqarish usullari va vositalari** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta va o‘quv-texnologik majmua ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi harakati, auditoriya mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazoratidir. **Monitoring va baholash** orqali fanni o‘rganish davomida o‘qitish natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Joriy nazoratda og‘zaki, yozma va amaliy topshiriq, oraliq nazoratda blits-so‘rov, taqdimot, referat, oraliq nazoratda yozma ish, test, referat, yakuniy nazoratda test topshiriqlari yoki yozma ish yordamida talabalarning bilimlari baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogikaning falsafiy kategoriyalarini ta'riflab o‘ting.
2. Pedagogikaning umumfan kategoriyalarini ta'riflab o‘ting.
3. Kasbiy pedagogikaning maxsus kategoriyalari ta'riflab o‘ting.
4. Yangi kategoriya va tushunchalarni ta'riflab o‘ting.

O'zini bilgan odam, o'ziga foydali narsalarni biladi va nimalarga kuchi yetishi, nimalarga kuchi yetmasligini aniq tushunadi. **Sokrat**

9. Kasbiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari.

- A) Kasbiy pedagogika kursining asosiy maqsadi.
- B) Kasbiy pedagogika fanning vazifalari.
- V) Bugungi mutaxassis-pedagog.

Tayanch so'zlar: *maqsad, vazifa, konstitutsiyaviy huquqlar, aqliy - amaliy imkoniyatlar, ijodiy qobiliyatlar, intellektual, ruhiy va jismoniy rivoj, kasbiga ega bo'lish, moddiy-ma'naviy, atrof- muhit va pedagogik shart-sharoitlar.*

A) Kasbiy pedagogika kursining asosiy maqsadi.

O'zbekistonning ijtimoiy hayotida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Shu bois ham ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Mamlakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritgach hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlar mamlakatimizning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Bunaqa insonparvar jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklatilar ekan, o'z o'rnida ularni ta'lim-tarbiyasini maqsadli amalga oshirishga bevosita jamiyat, oila va maktab tizimi birdek ma'sul. Shuningdek, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq kasb egalari pedagoglar, kasbiy salohiyati, malaka va mahorat darajalari, ma'naviy qiyofasi masalalari ham davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biridir.

Insoniyat va halqimizning milliy gumanistik qadriyatlarini, butun jahon va buyuk o'zbek mutafakkirlarining pedagogik fikrlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, ma'ruza va nutqlari, asarlari, hukumatimizning ta'lim-tarbiya tizimiga oid qator hujjatlari bu borada amalga oshirilayotgan barcha ishlarning metodologik, qonuniy va konseptual asoslari bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim siyosatini amalga oshirishda shubhasiz pedagog-o'qituvchi kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj muhim rol o'ynaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida ta'kidlangan milliy model O'zbekiston Respublikasining milliy mentalitet hususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or iqtisodiyot, fan va madaniyat yutuqlari asosida tayyorlangan mutaxassis - komil inson va yetuk professional qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir. Oliy ta'lim muassasalari

tomonidan kasbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassis-pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini tashkil etish ushbu maqsad va vazifalarning amaliy ifodasi bo'lib, belgilangan davlat talablari asosida yaratildi. Oliy ta'lim muassasalari profssor-o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligi, mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati, pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyatning innovatsion xususiyatlariga ega bo'lishi, ta'lim jarayonida tarbiyalashning pedagogik omillari, mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish, talabalar o'zlashtirishini amalga oshirishga hamda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga tayyorgarligi, mutaxassislik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarining mazmunini ochib beradi.

B) Kasbiy pedagogika fanning vazifalari.

Insoniyatning aql va zakovati tubdan taraqqiy eta boshlashi zahotiyq farzandlariga ilm berish va ularni tarbiyalash kerakligini anglab bordi. Hozirda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fanlarning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlat hamda jamiyatining siyosiy qarashlaridan kelib chiqadi.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi - yoshlarning konstitutsiyaviy huquqlardan biri bo'lgan har bir kishining aqliy - amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual, ruhiy va jismoniy rivojini ta'minlash, kasbiga ega bo'lishi uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarga o'rgatish, egalagan bazaviy (tayanch) ma'lumot asosida shu sohada yuqori faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, atrof-muhit va pedagogik shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Bu umumiy maqsaddan ta'limning har bir sohasi, faoliyatga qaratilgan doirasi, bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi. Masalan, barcha oliy o'quv yurtlarida kasbiy ta'lim yo'nalishi tashkil etilib, bunda kelajak aniq, tabiat va gumanitar fanlari mutaxassislari, muxandis, iqtisodchi, shifokor, xuquqshunos, tilchi, madaniyatshunos, san'atshunos, san'atkor oliy va o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'z kasbi bo'yicha o'qituvchilik, ustozlik qilishga haqli ravishda shunga mos kadrlar tayyorlanmoqda. Shuning uchun talabalarga umumiy va kasbiy pedagogika, umumiy va kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya kabi fanlar o'qitilmoqda. Pedagogik yo'nalishlarda ta'lim olayotgan bakalavrlarga o'qitilayotgan **"Kasbiy pedagogika"** kursining asosiy maqsadi bo'lg'usi mutaxassislarga o'zlari tanlagan ixtisoslik bo'yicha: **pedagogik bilim va malakalarini shakllantirish va mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirilishi davrida yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik-psixologik tamoyillari, shart-sharoitlari to'g'risida bilimlar berish, shaxs barkamolligiga aloqador tarbiya vositalarini o'z faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatishdan iborat**

Kasbiy pedagogika fanning haqli ravishda tabiatning oliy mahsuli - insonning ma'naviy shakllanishi, uning shaxs sifatida rivojlanish, komil insonni shakllanish qonuniyatlarni, mutaxassislik asoslarini o'rgatuvchi ustuvor fanlardan biriga aylanadi.

Oliy maktabning vazifalari kasb va pedagogik nazariyani mukammal egallagan, o'z mutaxassisligi bo'yicha har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, davlat va jamiyat siyosatini xalq oldida targ'ibot qilishga layoqatli, e'tiqodli, ijodkor, tartib-intizomli bo'la oladigan ma'naviyatli yetuk insonni tarbiyalashdan iborat. Talabalarimiz fan-texnika-madaniyat taraqqiyotini jadallashtirishda murakkab asbob-uskunalar bilan ish yurita oladigan, kasbi va pedagogikadan chuqur bilimdon bo'lishlari davr talabi bo'lib qolmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, oliy o'quv yurtlarga endi kirgan talabalarning ko'pchiligi yangi hayotga, ya'ni oliy ta'lim tizimining o'ziga xos, maktab paytlaridagi umuman o'xshamaydigan talablariga ruhiy qiyinchiliklar bilan ko'nikadi, o'zi tanlagan kasbi haqida yetarli axborotlarga ega emas, oliy dargoh shakl va metodlarini sekinlik bilan o'zlashtiradi, o'z mashg'ulot va mustaqil vaqtlarini to'g'ri rejalashtira olmaydi, ulardan unumli foydalana olmaydi, boshiga tushgan juda ko'p yangi tasavvurlardan qo'rqib qoladi va qiyinchiliklar bilan ularni o'taydi, o'zining intilish va irodasini shu murakkab, ba'zan og'ir xatti-xarakatlarga sekin moslashadi. Pedagogik va psixologik fanlar, shu jumladan "Kasbiy pedagogika" fani o'qitilishi, oliy o'quv yurtlarida rejalashtirilgan tarbiyaviy ishlar tizimi jarayoni oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maklashish, bilim va malakalarni yaxshi o'rganishda yordam berish, kelajak kasb haqida to'liq ma'lumot berish, unga qiziqtirish, maxsus va ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagogik-psixologik fanlar bilan birgalikda bakalavriat bosqichini to'liq o'zlashtirishga tayyorlash maqsadida ham o'tilmoqda.

"Kasbiy pedagogika" fani talabalarga pedagogikaning qisqacha taraqqiyoti tarixi, pedagogik tizimlarning tuzilishi, kasbiy pedagogikaning maqsad va vazifalari, o'quv jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiya tizimining shakllari, davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dastur, darslik va qo'llanmalarining mazmuni, ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning joriy, oraliq, yakuniy reyting tizimi haqidagi, shuningdek, kundalik faoliyat tartibi va mustaqil ishlarni tashkil etish, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish, o'quvchi-talabalarning huquq va burchlari, maxsus kasbiy va pedagogik kitob, risola, maqola ustida ishlash kabilar bilan tanishtiradi. Ushbu fanda o'quv materiallarning puxta o'zlashtirilishi uchun harakatlar qilinishi lozimligi, o'quvchi-talabalarni reyting tizimi asosida sinov-imtihonlarga tayyorlash hamda ularni o'tkazishni tashkil qilish, o'quvchi-talaba o'quv, aqliy va jismoniy faoliyati, uning turmush tarzi, madaniyati va dam olishini tashkil etish singari masalalarga ham alohida o'rin ajratilmoqda.

Yangi avlodni kamol toptirmay, jamiyatimizning ilmiy, moddiy-ma'naviy bazasini yaratmay turib, mustaqilligimizni takomillashtirib bo'lmaydi. Bu ulug'vor vazifani amalga oshirish uchun bo'lajak mutaxassis-pedagoglar ham yangi insonni shakllantirish va rivojlantirish yo'l-yo'riqlarini aniq va ravshan bilib olishi darkor. Haqiqatdan ham, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash bilan bevosita shug'ullanuvchi kishilar - avallambor pedagoglar buni chuqur bilishlari zarur. Ushbu murakkab vazifalarni ado etish uchun jiddiy ilmiylik, aqliy, ruhiy va jismoniy salohiyat, yuksak samimiylilik, oddiylilik, kamtarinlik, bolalarni sevishtirish, do'stona munosabat va shu o'rinda talabchanlik, demokratik va insonparvar hamkorlik, oila va jamoada hammalarga hurmat va ishonch, o'quvchining taqdiri uchun qayg'urish kabilarni o'zlashtirish, o'ziga singdirib borish har bir bo'lajak muallim uchun g'oyat muhimdir. Bu bayon etilgan fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun yuksak insoniy fazilatlarini birinchi navbatda talabalarning o'zida oliy dargohda o'qishlarining birinchi kunlaridanoq boshlab tarbiyalashimiz darkor. Yosh talabalarning saviyasini oshirish ko'p jihatdan ularning bo'sh vaqtdan oqilona fodalanishlariga bog'liq. Shuning uchun talabalar uy vazifalarini bajarishida va mustaqil ishlari bilan shug'ullanishida darslardan tashqari paytlardan unumli foydalanishni bilishlari kerak. Talabalik yillari bo'lajak pedagog - mutaxassislarning ma'rifiy balandlik, ma'naviy kamol, g'oyaviy fuqarolik topish davridir. Insonparvarlik, vatanparvarlik, jamiyatimiz yuksak g'oyalariga sadoqat, samimiyyat, halollik va pokizalik - ana shu ajoyib va himmatli fazilatlar hur ona yurtimizga xizmat qilayotgan ziyolilar ko'rkidir. Ana shu fazilatlarini tarbiyalash oliy maktabdagi barcha professor-o'qituvchilarning faxrli burchidir.

V) Bugungi mutaxassis-pedagog.

Bugungi mutaxassis-pedagog - bu mohir tashkilotchi va bajaruvchi, bolalar va o'zining faniga ko'rinadigan samimiyligi bilan, mehnatini ilmiy asosda tashkil etish ishlarini amalga oshira oladigan ustoz hisoblanadi. U o'quvchilar bilan ishlaydi, ko'p odamlar bilan muloqotda bo'ladi, o'quv jamoani boshqaradi, jamiyat tajribasi va talablariga tayanib ish ko'radi, o'z oila, do'stu-o'rtoqlari, hamkasabalarining maslahatlariga quloq soladi, samarali natijalarga intiladi, qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan to'xtamaydi va ularga tanqidiy yondashadi, u faqat amaliy va ijodiy izlanishda bo'ladi. Bunday pedagog-mutaxassis yuqori madaniyatli, keng mulohazali, o'z ishining ustasidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Kasbiy pedagogika kursining asosiy maqsadini ta'riflab bering.
2. Kasbiy pedagogika fanning vazifalari nimalardan iborat?
3. Bugungi mutaxassis-pedagog shaxsini ta'riflab bering.

Ustoz-murabbiylar ota-onalardan ko'ra hurmatga ko'proq sazovordir, chunki ota-onalar bizlarga faqat hayot beradi, ustozlar esa-qadr-qimmatga loyiq hayot. Aristotel.

10. Kasbiy pedagogikaning tarkibiy tuzilishi.

A) Pedagogika tarixi. Didaktika. Tarbiya nazariyasi.

B) Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Boshlang'ich maktab pedagogikasi. O'rta maktab pedagogikasi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. Oliy ta'lim pedagogikasi.

V) Kasbiy pedagogika. Maxsus pedagogika. O'qitish metodikasi. Pedagogik texnologiya. Oila pedagogikasi. Androgogika. Gerontopedagogika.


Tayanch so'zlar: *boshlang'ich maktab, umumiy o'rta maktab, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, maxsus pedagogika, o'qitish metodikasi, oila pedagogikasi.*

A) Pedagogika tarixi. Didaktika. Tarbiya nazariyasi.

Ta'lim-tarbiya, yosh avlodga bilim berish, uni aqliy, ruhiy va jismoniy shakllantirish va rivojlantirish uyg'unlashgan yagona jarayondir. Unda o'qituvchi-tarbiyachi rahbarlik qiladi, o'quvchi esa bilim oladi va tarbiyalanadi. Pedagogika uzoq tarixiy asrlarda shakllanar ekan, avval har bir xalq o'zining urf-odatlarini va qadriyatlarini, mentalitetini yosh avlodga yetkazib berish, shu jamiyatda bor kasblardan birontasiga o'rgatish, keyincharoq faylasuf dunyoqarashning bir tarmog'i sifatida hamda buyuk mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikr va g'oyalari bilan bunyod bo'ldi. Hozirga kelib butunjahon jamiyatning ob'yektiv talablariga ko'ra insoniyat ilmining mustaqil bir tarmog'i, fan sifatida tuzildi, o'zining ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy asoslarini yaratdi. Natijada pedagogika yosh avlodni va kattalarni o'qitish va tarbiyalash haqida bahs etuvchi fan bo'lib, taraqqiy etib bormoqda.

Pedagogika fani rivojlana borgan sari shu narsa yanada yaqqollashdiki, o'quvchilarning yoshiga, aqliy, ruhiy va jismoniy salomatligiga, qobiliyat va bilim darajalariga, kasbiga qarab ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tuzish kerak. Natijada pedagogika fani ob'yektlari kengayib borishi bilan, aniq bo'ldiki, turli sohalarda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy-amaliy tomonlarini yolg'iz pedagogika fanining o'zi mufassal yoritib bera olmaydi.

Shuning bilan pedagogika fanlari tizimi, ya'ni uning tarmoqlari vujudga keldi, pedagogikaning mustaqil yangi yo'nalishlari yaratildi. Bugungi kunda pedagogika fani tarmoqlari odamning yoshi, turmush tarzi, salomatligi, kasbiga qarab, ta'lim-tarbiya muammolarni ijobiy hal etishda muhim omil hisoblandi.



Bu tarmoq pedagogikalar maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy maktablarida hamda maktabdan tashqari pedagogik ilmiy-amaliy faoliyatini ko'rsatmoqda va ta'lim-tarbiya jarayonning qonuniyatlarini o'rganmoqda. Jumladan, **pedagogika tarixi** mustaqil tarmoq sifatida pedagogika fanining tarixan rivojlanishi o'zida aks ettiriladi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarni paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning butungi kundagi ahamiyati, halq merosidan hamda ulug' allomalarimizning ijodiyotidan foydalanishning zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Didaktika ("o'qitish nazariyasi") pedagogikaning o'qitish jarayonini umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan uning tarkibiy qismidir. Didaktika barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun va qoidalarni, qonuniyat va tamoyillarni, shakl, metod va vositalarni belgilab beradi. U "nimani o'qitish?", "qanday o'qitish?", "qaysi asoslarda o'qitish?", "qaysi qonun-qoidalarga rioya qilish?", "nimaning yordamida o'qitish?" kabi pedagogik savollarga tadqiqotlar jarayonida javob izlaydi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, har bir aniq tarbiya jarayonning sababi, maqsadi, mazmuni, metod, shakl va vositalari, uning tashkil etilishi masalalarini tadqiqot qiladi.

Ta'lim-tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p shartlarga: o'quv dastur va darsliklarning sifatiga, maktabning moddiy-texnika jihatdan ta'minotga, o'qituvchi yoshlarning mahoratiga, bolalarning kamolot xususiyatlariga bog'liqdir. Pedagogika fani bola har bir yoshida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishini isbotlab bergan.

B) Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Boshlang'ich maktab pedagogikasi. O'rta maktab pedagogikasi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. Oliy ta'lim pedagogikasi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bu qatorda birinchi bo'lib, 1-7 yoshidagi bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida - bolalar bog'chasida tarbiyalashiga o'rgatadi. Tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalari "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" fanida bayon etilgan, unda bolaning har tomonlama kamolotga yetish yo'lining asoslari nazarda tutilgan. Masalan, bolalar bilan yoshiga mos ishlarni bajarish, har xil o'yinlar o'tkazish, chizmachilik qilish, plastilindan oddiy narsalar, qismlardan tuzilmalar yasash, ularga ertak va she'rlar aytish va yodlash, aytib berishiga o'rgatish, muloqot, xushmuomalalik, ozodalik, yuvinish va ovqatlanish madaniyatini ko'rsatib turish bola uchun dunyoni bilish, mehnat faoliyati, ma'naviy his-tuyg'ular va odatlarning tarkib topishi, harakat va muomala qilish talabini qondirish kabi yo'llarini ochib beradi.

Boshlang'ich maktab pedagogikasi ko'pchilik o'quvchi bolalarning tafakkuri o'sishi, o'quv faoliyatiga tayyorligi, o'qish istagi, fikrning aniqligi va ravshanligi, abstrakt fikrlashning yuzaga kelishi, aqliy va jismoniy rivojlanishini o'rganadi. O'qishga kirishish bola ruhining bundan keyingi o'sishini belgilaydi, shaxsning yo'nalishi va xususiyatlarini o'zgartiradi. Shu payt bolaning diqqati barqaror bo'lmaydi, u bir narsaga uzoq diqqat berib turolmaydi, diqqati tez chalg'iydi, yetarlicha o'smagan bo'ladi. Shunda o'qituvchi bolani o'ylash, fikrni to'plashga o'rgatadi. O'quvchi hidlash, sezish, eshitish, ko'rish sezgi a'zolari qabul etadigan narsalarni idrok etadi. Idrokni o'stirish yo'lida o'qituvchi sezgi a'zolarini har xil usullar bilan tarbiyalashni talab etadi. Bu o'z navbatida, bolalarning bilim olish qobiliyatini o'stiradi, o'quvchilar aqliy ish usullarini egallaydilar, o'quv faoliyatlarini to'g'ri bajarishga undaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mushak kuchi o'sadi, ular harakatchan bo'ladilar. O'qituvchilar esa ushbu harakatchanlikka to'g'ri yo'nalish berib, jismoniy darslarida, boshqa darsda 1-2 daqiqa yoki tanaffus vaqtida gimnastika qilish, jismoniy o'yinlar o'tkazish, ochiq havoda yugurish, sakrash, o'ynashlarni tashkil qilish shart bo'ladi. Chunki aqliy va jismoniy rivojlanishga, chaqqonlik va epchillikka, kuch va chidamlilikka olib keladi. Kichik yoshidagi o'quvchi bolalar o'z o'qituvchilari va ota-onalariga ishonganliklari uchun ularga taqlid qiladilar. Shuni bilib, o'qituvchi o'z kiyinishi, xatti-harakati, yurish-turishi, nutqi va atrofdagi kishilar bilan muloqot va munosabatlariga alohida e'tibor berishi zarur.

O'rta maktab pedagogikasi tadqiqotlariga ko'ra - 11-15 yoshidagi o'quvchilar jismoniy tez o'sadi, ularda asabiylashish, tevarak-atrofdagilarga, jumladan ota-ona va o'qituvchilarga tanqidiy qarash, o'z yoshidan kattaroq ko'rinishga harakatlanish, qo'pollik, uyatchanlik, hulq-atvoriga beqarorlik paydo bo'ladi. Bu - shu yoshdagi shaxsning o'z mavqeyini bilish, erkinlik va mustaqillikka intilishdir. Shunda to'g'ri ta'lim-tarbiya faqat ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning mevasi o'quvchilar fanlarning qonuniyatlari bayon etiladigan ko'pgina narsalarni o'rganadilar. Ularda abstrakt tafakkur o'sadi, faol so'z boyligi ortadi, dunyoqarash rivojlanadi. Ular g'ayri tabiiy hodisalar, sarguzashtlar, jumboqli narsalarga qiziqib boshlaydilar, qiziqarli ishlarga kirishishga urinadilar, kompyuter va internetga beriladilar, kelajak kasbni tanlashni orzu qiladilar. O'z ishi uchun javobgarligi, do'stlari, sinf, maktab muvaffaqiyati uchun hissa qo'shishga undaydilar. Bunda o'qituvchilar tarkibining vazifalari - o'smir bolalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, ma'naviy tuyg'ularni chuqurlashtirish, fan asoslarini o'zlashtirishiga bor kuch va mahorat bilan kirishish, ularga diqqat bilan qarash, yordam berish, yomon yo'ldan saqlash, o'qish va ishlariga do'stona va hamkorlikcha qarash, bor qobiliyatlar va talantlarini o'stirishdir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi tahlili bo'yicha, mazkur ta'lim-tarbiya jarayonida ishchi va o'rta pog'onadagi mutaxassislarini tayyorlashdan tashqari, o'quvchilarga nafaqat barcha aniq, tabiat va gumanitar fanlardan so'nggi majmua ko'rinishida bilimlarni berish va oliy o'quv yurtiga (ixtiyoriy ravishda) tayyorlash, bolaning aniq bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mehnatga (yigitlarni harbiy xizmatga ham) tayyorlashdir. 15-18 yoshda o'quvchilarda diqqat yanada kuchayadi, atrof-muhit voqeya va xodisalarni tanqidiy idrok qilish, mantiqiy fikrlash qobiliyati o'sadi, ichki kechinmalarni tahlillash kuchayadi. Litsey va kollej o'quvchi shaxsining tarkib topishida uning o'rta maxsus va kasb-xunar egallashida muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchi o'quv predmetlarni o'rganib, hayot, mehnat, ijtimoiy faoliyatda ularning kerakligini tasavvur etadi. Mantiqiy muloqot fikr yuritish o'sishi, o'zi aytgan fikrni tushuntirib, tahlil va umumlashtirib berishga talab uyg'otadi. Falsafiy dunyoqarashi tarkib topadi. Shu payt jismoniy o'sish suyak qotishi, mushaklar kattalashishi, bug'inlar mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. Bu yoshda nafaqat o'g'il yo qiz bolalar ichida, balki ular orasida ham do'stlik his tuyg'ulari mustahkam va chuqur bo'ladi, umrbod saqlanib qolishi va muhabbatga aylanishi mumkin.

Oliy ta'lim pedagogikasi. Hozirgi davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislar nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan, amaliyotda kasbiy ko'nikma va malakalarni puxta egallagan bo'lishni talab etmoqda. Mutaxassislar buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, xozirgi davrning bu talabi bo'lajak mutaxassisni yuksak bilim va ko'nikmalari bilan qurollangan, ma'naviyatli va madaniyatli shaxs, mahoratli kadr sifatida tayyorlash

kerakligi nechog'li muhimligini ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega. Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat negizidagi oliy ta'limdir. Magistr'larga davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish, o'z kasbi bo'yicha oliy o'quv yurtlarda ishlash va ilmiy - tadqiqot ishlarni olib borish huquqlari beriladi.

Talabalar gavda tuzilishidagi mutanosiblik, qaddi-qomatining kelishgan bo'lishi, harakatlarining uyg'unlashuvi bilan yaqqol ko'rinadi. Talabalar o'z-o'zlarini tarbiyalashga qodir bo'ladilar, ular o'z kamchiliklarini ko'ra oladilar, o'quv jarayonida astoydil ishlaydilar, har bir ishda mas'uliyat sezadilar. Mardlik, jasurlik, serg'ayratlik, fidokorlik, karyeraga intilish va uni ruyobga chiqarish - bugungi talabaning fazilatlaridir.

V) Kasbiy pedagogika. Maxsus pedagogika. O'qitish metodikasi. Pedagogik texnologiya. Oila pedagogikasi. Androgogika. Gerontopedagogika.

Kasbiy pedagogika fani har bir oliy kasbiy ta'limni bitirgan sohasi bo'yicha o'qituvchilik qilishda, pedagoglik va murabbiylik amaliyotida o'quvchilarni ta'lim-tarbiyaning vosita va metodlarini tanlashda, turli hil maktablarda, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarilarda, oliy ta'lim muassasalarida kasb amaliy tayyorgarlikni amalga oshirishda muxim o'rin egallaydi. Shuning uchun kasbiy pedagogika faniga oliy ta'lim muassasalarida aloxida talab ko'yiladi. Oliy o'quv yurtlarida tarbiyalanayotgan talabalarni pedagogik mahoratini oshirishda va ularni hayotda qo'llay olish bo'yicha kasbiy pedagogika asosiy ixtisoslik fani bo'lib pedagoglar tayyorlash tizimini ajralmas bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

Maxsus pedagogika boshqacha aytganda, defektologiya deb ataluvchi maxsus o'quv maskanlarida o'qituvchi, tarbiyachilar tayyorlashda surdopedagogika (soqov bolalarni o'qitish va tarbiyalash), tiflopedagogika (ko'zi ojiz bolalarni o'qitish), oligofrenopedagogika (aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish), logopediya (nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o'qitish) masalalari bilan shug'ullanadi va shu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

O'qitish metodikasi pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq bir fanni o'qitish va o'qishning qonuniyatlarini o'rgatish, kerakli ilmga asoslangan maslahatlar berish kabi maqsadlarga tayanadi. Har bir fanni o'qitishning o'ziga xos yo'l-yo'riqlari, metod-usullari mavjuddir. Hozirgi kunda barcha pedagogik oliy o'quv yurtlari, fakultet va kafedralarda asosiy, mutaxassislikka oid fanning o'qitish metodikasi ham o'rganilmoqda.

Pedagogik texnologiya hozirgi kunda zamonaviy pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida barcha o'quv muassalarda kiritilgan va o'zining samarali natijalarini ko'rsatayotgan fanlardan biri. Pedagogik texnologiya talablariga ko'ra, quyidagi tizimli shakl va metodlarni bajarishi amri ma'rufdir:

- shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim-tarbiya olayotgan barcha o‘quvchilarni har birining bor shahsiy qobiliyati va imkoniyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi, tabiati va hulq-atvorini inobatga olib, to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutish;

- tizimli yondoshuvga qarab, jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligini yaqqol ko‘rish;

- faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv shaxsning sifatlarini shakllantirishga, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalash;

- dialogik yondoshuv o‘quvchilarning insoniyligi, psixologik birligi va o‘zaro ijobiy munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildirish.

Hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘rtasidagi munosabatlarda hamkorlikni, birgalikda ishlashni joriy etishga zarurligini bildiradi. Muammoli ta’lim-tarbiya masala mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash bilan o‘quv axborotining o‘qitishni boshqarishini kafolatlaydigan usullari va vositalari butunlay ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshiradi. O‘qitishning interfaol usullari va texnikasi barcha o‘quvchilarni bilim va qobiliyatlariga qarab har bir dars payti ishga solmoqda, munozara, musobaqa, aqliy hujum, o‘yinlar uyushtirib intilishga chaqirmoqda.

Oila pedagogikasi keyingi yillarda jamiyatimizning katta e’tiborida bo‘lib, ota-onalarga ilmga asoslangan bolani tarbiyalash, maktab bilan aloqada hamma vaqt aloqada bo‘lish, o‘qituvchi va murabbiylar tavsiya va maslahatlarini tahlil qilib bajarish, uy vazifalarini bajarishga yordam berish, bolaning bo‘sh vaqtini mexnat va faol dam olish bilan unumli to‘ldirish, uy ishlariga rahbarlik qilish, do‘stona va hamkorlik yondoshuvni o‘rnatishlarga qaratilgan shu va boshqa masalalarni to‘g‘ri, pedagogik tarzda yechishiga undaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogikaning barcha tarkibiy qismlarini ta’riflab bering: 2. Pedagogika tarixi. Didaktika. Tarbiya nazariyasi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Boshlang‘ich maktab pedagogikasi. O‘rta maktab pedagogikasi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi. Oliy ta’lim pedagogikasi. Kasbiy pedagogika. Maxsus pedagogika. O‘qitish metodikasi. Pedagogik texnologiya. Oila pedagogikasi. Androgogika. Gerontopedagogika nimalarni o‘rgatadi?

O'quvchining hotirasi emas, o'zi gapirsin. Ezgulikka nasihatlar bilan olib kelish qiyin, ibrat ko'rsatish bilan oson.
Seneka.

11. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.


- A) Ijtimoiy fanlar: Falsafa, Psixologiya va fiziologiya. Biologiya va sotsiologiya.
- B) Kasb fanlari. Pedagogik fanlar. Etika va estetika. Madaniyat va san'at. Jismoniy tarbiya va sport.
- V) Xalq pedagogikasi.

Tayanch so'zlar: *milliy g'oya, qadriyat, dunyoqarash, milliy mafkura, iroda, tartib-intizom, jasurlik, kuch-quvvat, tezlik, aqllilik, ziyraklik, chidamlilik, mentalitet, ruxiy va jismoniy sog'lomlik.*

A) Ijtimoiy fanlar: Falsafa, Psixologiya va fiziologiya. Biologiya va sotsiologiya.

Kasbiy pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanmoqda. Fanning asosiy shiori "O'qitishga o'qitish" bo'lsada, bu fan nafaqat talaba - bo'lajak mutaxassis-o'qituvchini aniq pedagogik bilim va malakalar olishi uchun tuzilgan, balki boshqa fanlar hamkorligida talaba oldida bo'lajak ob'yekt - o'quvchining shaxs kamolotini rivojlantirish bilan bog'lik, vazifalarni o'rganish va hal etishda faoliyat ko'rsatadi.

Kasbiy pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va munosabati



Kasbiy pedagogikaning metodologik asoslaridan biri milliy g'oya hamda o'zbek halqining qadriyatlariga tayangan **falsafa**dir. Shuni ko'zda tutib, kasbiy pedagogika - ta'lim-tarbiya orqali jamiyatimizning tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan tabiiy jarayondir deb tushunadi. Ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi dastavval moddiy hayot va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'zbek ta'lim-tarbiya tizimining keng qadamlari hozirgi siyosat o'rnatilishi, iqtisodiyot rivoji, milliy tafakkur uyg'onishi bilan belgilanadi. Hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy holatda vujudga kelgan va taraqqiy etgan ta'lim-tarbiya modeli o'z navbatida jamiyatimiz hayoti barcha sohalariga katta ta'sir etadi. O'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi davlat va jamiyat hayotidagi boshqa hodisalar kabi ta'lim-tarbiyani ham o'ziga xos qonuniniyatlariga ega deb biladi, ularni chinakam ilmiy-amaliy metod va vositalar yordamida o'rganish kerakligini aytib o'tadi. O'zbek falsafasi o'zbek jamiyatining ta'lim-tarbiyaga bo'lgan tabiiy sabotli ehtiyojlarini ko'rsatib beradi, ta'lim-tarbiya natijasida odamda paydo bo'ladigan aqliy, ruhiy va jismoniy o'sishlari, uning shaxsga aylanganini fikr-mulohaza yuritadi, pedagogikani

ilmiy usullar bilan qurollantiradi, ta'lim-tarbiyaning ob'yektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi.

Falsafiy dialektika pedagoglarga hayotning murakkabligi, unda bo'lgan qonuniyatliklari va tasodifliklarini ko'rsatadi va amal qilishga chaqiradi. Shu falsafiy asoslarga qarab, o'zbek pedagogikasi yosh avlodni milliy mafkura ruhida shakllantirish va rivojlantirish, uni komil inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yyadi hamda ta'lim-tarbiya mazmuni va tizimini ishlab chiqadi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaviy hodisalarni boshqa hodisa va voqyealar, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti va aynan shu payt falsafiy dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rgatadi. Odamda g'oya, tasavvur, bilim, odob-ahloq maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rina boshlaydi. Ta'lim-tarbiya o'zi esa ijtimoiy-tarixiy sharoiti va ta'siri natijasida paydo bo'ladi hamda ularga bog'liq holda taraqqiy etadi. Shuning uchun ham hozirgi ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining yutuqlari falsafiy tomondan ham buyuk milliy g'oya va milliy mafkuraning mahsulidir.

Falsafaning tarkibiy qismlari bo'lmish **etika** (odobnoma, odobshunoslik) va **estetika** (go'zallik, nafosat ilmi) fanlari ta'lim-tarbiya nazariyasiga bir necha ma'lumotlar beradi. Bu fanlar odob, xulq., vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, xulq-odat, go'zallik va xunuklik kabi falsafiy kategoriya va tushunchalarni aniqlab berishga, odamning xulqi va odobi me'yorlarini belgilashga, hayotning go'zalligini, jozibali, nafis qirralarini o'quvchining qalbiga singdirilishga, o'qish va mehnatga bevosita rag'bat uyg'otishga pedagogikaga yordam beradi.

Kasbiy pedagogikada o'quvchi-talaba rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro bog'liqligi muhim muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. Shaxsning rivojlanishi qiyin, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi. Pedagogika fani va amaliyoti psixologiya va fiziologiya fanlari bilan uzviy bog'langan. Haqiqatdan ham odam miyasi va tanasida bo'layotgan **psixologik va fiziologik** jarayonlarni, ya'ni sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, tafakkur kabi jarayonlarining kechayotganini bilish uchun aynan shu fanlar pedagogikaga ilm beradi. Psixologiya shaxsning turli yoshdagi psixik rivojlanish qonuniyatlarini, ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixikasining o'zgarish mexanizmini tushuntiradi. Fiziologiya odam badani va miyasi o'sishlari, tananing qismlari, ularning odamning yoshiga qarab anatomik xususiyatlari va rivojlarini ko'rsatadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida, ko'rsatilayotgan o'qitish ta'sirining samarasini bilish hamda o'quv rejalarni belgilash uchun pedagog o'quvchilarning aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanishini, shaxsiy irsiyatli va hosil qilgan sifatlarini o'rganishi shart. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim-tarbiya ishlaridagi barcha masalalarni to'g'ri tushunish va amalga oshirish uchun psixologiya va fiziologiya ma'lumotlaridan hamma vaqt xabardor bo'lish kerak, chunki bu bilimlar turli yoshdagi o'quvchilarning hulq-atvori, aqli, psixikasi, temperamenti, shaxsiy miya va tana xususiyatlari va

sifatlari, xatti-harakatlarini ilmiy tushunish va ishni pedagogik-psixologik tarzda asoslangan to'g'ri olib borishga imkon yaratadi.

Shakllanish va rivojlanish deganda biz shaxsning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Bu jarayonda har bir o'quvchining biologik va ijtimoiy xususiyatlarini bilish, ya'ni **biologiya va sotsiologiya** fanlar taqdimotini jalb qilishga urinamiz. Bu fanlar bolaning ijobiy ta'lim-tarbiyasi, shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida shakllanish va rivojlanishning biologik va ijtimoiy qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi tug'ma va orttirgan omillarni, shuningdek, shaxs kamoloti faoliyatining ta'siri va ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, lekin uning shakllanishi avvalo tug'ma hususiyat va qobiliyatlariga, keyin oila va jamiyat maqsadlari va sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni nafaqat biologik maxsul, balki ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz kerak. Hozirgi jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash demokratik, gumanistik xarakterga ega bo'lgani sababli ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni hamda tashkiliy shakllari shu davlat va jamiyatimiz maqsadlariga belgilanadi, kelajagimizni ravon qilish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davri ta'lim-tarbiya ishlarining maqsad va mazmunini tamoman o'zgartirdi. Uzlaksiz ta'lim maqsadi mamlakat Konstitutsiyasi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilgan barkamol avlod, insonparvar va vatanparvar kishilar jamiyatini qurish umumiy maqsaddan kelib chiqadi. Shu jumladan, oliy ta'lim shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, chuqur ma'lumotli, kasbiga puxta ega, ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z ishlarini xuddi shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Shunda **ijtimoiy fanlar**, ya'ni O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisodiyot, milliy mustaqillik g'oyasi, madaniyatshunoslik kabi fanlar yosh avlodni ta'lim berish va tarbiyalash ishlari yangi huquqiy fuqarolik jamiyatni qurish vazifalariga qaratilgan va shu tariqasida pedagogika fanlari chambarchas bog'liqdir.

B) Kasb fanlari. Pedagogik fanlar. Etika va estetika. Madaniyat va san'at. Jismoniy tarbiya va sport.

Talabalarga kasbiga puxta ega, jamiyatimizning iqtisodiyot, siyosat, fan va madaniyat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar beriladi. Masalan, jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya nazariyasi, biologiya, bioximiya, odam fiziologiyasi, odam anatomiyasi, sport pedagogikasi, sport psixologiyasi, gimnastika, gigiyena, massaj, tibbiyot va davolash asoslari, yengil va og'ir atletika, yakkakurash, ko'pkurash va sport o'yinlariga qaratilgan fanlar kabi **kasb fanlari** o'qitiladi. Bular oliy maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash, talabalarni xalq xo'jaligi va madaniyati turli sohalarida faol mehnat qilishga, oliy kasbiy ta'limni joriy qilishga o'quv reja va dasturlarda

qo'yilgan barcha o'quv ish va tadbirlarni amalga oshiradi. Shuning uchun ham kasb fanlari oliy o'quv yurtlarda tahsil olayotgan talabalarni ularning mutaxassisligi bo'yicha pedagog bo'lishiga, ya'ni shu faoliyat sohasida ta'lim-tarbiya orqali o'quvchi bolaning inson rivojiga madat berish, shaxs kamoli shakllanishida uning bilimligi, ma'naviyat va madaniyati, aqli va aqliy salohiyati, ruxiy va jismoniy xolati, hulq-atvori va insoniylik sifatlarini o'zlashtirish, shakllanish, kuchaytirish va ko'tarishlarning o'rgatishiga qaratilgan bo'lib, kasbiy pedagogika fani bilan birgalikda yordam beradi.

Kasbiy pedagogika fani bilan birgalikda boshqa **pedagogik fanlar**, ya'ni umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, kasbiy psixologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, kasbni o'qitish metodikasi kabi fanlar har bir oliy kasbiy ta'limni bitirgan sohasi bo'yicha o'qituvchilik qilishda, pedagoglik va murabbiylik amaliyotida o'quvchilarni ta'lim-tarbiyaning vosita va metodlarini tanlashda, turli hil maktablarda, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarilarda, oliy ta'lim muassasalarida kasb amaliy tayyorgarlikni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun bu pedagogika fanlariga oliy ta'lim muassasalarida alohida talab ko'yiladi. Oliy o'quv yurtlarida tarbiyalanayotgan talabalarni pedagogik mahoratini oshirishda va ularni hayotda qullay olish bo'yicha bular asosiy ixtisoslik fanlar qatorida pedagoglar tayyorlash tizimini ajralmas bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

Kasbiy pedagogika har doim kishi madaniyati va san'atiga va uning egallagan ixlosligiga bog'liq holda birdek ahamiyatga ega. Haqiqiy o'qituvchi - bu, birinchi navbatda, madaniyatli inson va san'at barcha turlarini puxta biladigan va qiziqadigan shaxsdir. **Madaniyat va san'at** odamning go'zal va nafis his-tuyg'ularini ochib beradi, ma'naviyat va odob-ahloqini ko'taradi, har qanday pedagogik hodisani madaniy-ma'rifiy jihatdan qarab chiqishga o'rgatadi, inson tafakkurini oshiradi. Pedagogikada madaniyat va san'at inson ma'naviy hayoti uchun zaruriy manba deb ta'riflanadi. Kasbiy pedagogika o'quvchi-talaba tarbiyasini ijtimoiy hodisa deb qarab chiqib, odamning ehtiyojlari madaniyat va san'atga ham qaratilganligini, uning taraqqiyoti bular bilan bog'liqligini uqtiradi.

Jismoniy tarbiya va sport odamning jismoniy tarbiyasining tarkibiy qismi hamda muhim vositasidir. Bu ilm olish, mehnat, ma'rifiy-axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'ligi hammamizga ma'lum. Jismoniy tarbiya va sport mazmuni o'quvchi-talabalarning salomatligini mustahkamlash, ularning har tomonlama mohirligini o'stirish, jismoniy va fiziologik sifatlarini shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish, ozodalik qoidalariga ko'nikish, shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, iroda, tartib-intizom, jasurlik, kuch-quvvat, tezlik, aqllilik, ziyraklik, chidamliliklarni kamol toptirishdir. Bu yo'lda jismoniy tarbiya va sport yoshlar pedagogikasining muhim qismidan birini bajarib kelmoqda, chunki yoshlarimizning turmush tarzi, o'qishi, mehnati va dam olishi mazmunli shakllanishini ta'minlaydi, jismoniy kamolotga olib boradi.

V) Xalq pedagogikasi.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish mazmun-mohiyati va uslubiyatini taraqqiy etmay turib, o'quvchilarga ta'lim berish dasturlarini tuzib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya bu birinchi navbatda hayotiy tajribani bir avloddan keyingi avlodga taqdim etishdir. O'zbek xalqining bu sohadagi tajribasi juda boy. Kasbiy pedagogika fani ta'lim-tarbiyaga oid ota-bobolarimizning fikr va g'oyalarni o'zlashtirishga, **xalq pedagogikasi** manbalarni, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o'rganishga ham xizmat qiladi. O'zbek xalqining nihoyatda boy madaniy-ma'naviy merosi o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, kasbiy pedagogika uchun buzilmas poydevor bo'lib o'taydi. Ta'lim-tarbiyani, kasbiy pedagogikani o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayonga asoslanganligini, insoniyat butun hayoti davomida ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu jarayonda ajdodlarimiz, buyuk allomalarimiz tarbiyaviy ta'sirining samarali yo'l usullari va manbalarini qidirib hayotga tadbiq qilganlar, buning natijasida o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash haqidagi g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshlagan.

Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Buning ijtimoiy funksiyasi avloddan avlodga oilaviy, mehnat, ijtimoiy va siyosiy tajribani o'tkazishi bilan yaqqol ko'rinadi. Bu tajriba xalqning falsafiy dunyoqarashi va mentalitetini bilish, madaniyatli bo'lish, ilm egallash, san'atga yaqin bo'lish, ona til va adabiyotni mukammal o'rganish, milliy g'oyani yurakka qabul qilish, aqliy, ruhiy va jismoniy sog'lomlikka intilish orqali va halq odob-axloq qoidalari bilan ifodalab beriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ta'riflab bering: 2. Ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan munosabatlari qanday?

3. Kasb fanlari. Pedagogik fanlar. Etika va estetika. Madaniyat va san'at. Jismoniy tarbiya va sport. Xalq pedagogikasi bilan qanday aloqada?

12. Kasbiy pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

A) Ilmiy - tadqiqot metodlari. Pedagogik kuzatish. Suhbat metodi. Bolalar ijodini o'rganish. Test, so'rovnomalar metodi.

B) Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Eksperiment, tajriba - sinov metodi.

V) Birdan - bir farqlanish. Birdan-bir o'xshashlik. Birga bo'ladigan o'zgarishlar. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish metodi. Matematika-kiberiyetika metodi.

Tayanch so'zlar: *ilmiy - tadqiqot, kuzatish, suhbat, ijodni o'rganish, test, so'rovnoma, maktab hujjatlarini tahlil qilish, eksperiment, tajriba - sinov, birdan - bir farqlanish, birdan-bir o'xshashlik, birga bo'ladigan o'zgarishlar, statistika ma'lumotlar, matematika, kiberiyetika.*

A) Ilmiy - tadqiqot metodlari. Pedagogik kuzatish. Suhbat metodi. Bolalar ijodini o'rganish. Test, so'rovnomalar metodi.


Pedagog-olimlar va amaliyotchilar o'z ishlarini mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni, yangi g'oyalarni, bironta metod, usul, vosita, mashq, o'yin yoki ularning majmuasi samarasini, qaysi bir yoki bir guruh o'quvchi-talabalarning bilim, saviya, hulq-atvorlarini o'rganishda, umuman olganda ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda pedagogikaning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Kasbiy pedagogika talabalarga ilmiy-tadqiqot metodlarni taqdim qilganda ularni o'rta va o'rta maxsus bilim yurtlarda tahsil olayotgan yosh avlodni tarbiyalash, o'z kasbiga bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan tashqi va ichki aloqa va munosabatlarni toptirishga, ularning ijobiy va salbiy tomonlarni ajratishga, bilim berishning optimal yo'llari, metod va vositalarini ilmiy tekshirishlar o'tkazib aniqlashga o'rgatadi. Talaba - bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari qanchalik to'g'ri tanlansa, bu jarayonni takomillashtirish darajasi shunchalik yuksaladi. O'qitish va tarbiyalashdan avval hamda shuning ayni paytida tekshirishga yo'naltirilgan ilmiy - tadqiqot metodlari tizimi kasbiy pedagogika fanida to'la yaratilgan. Quyidagi mazkur holatlar o'qituvchining o'quvchilar to'g'risida bilimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi:

- o'quvchilarning munosabatlari va bir-biri o'rtasidagi tafovutlar mavjudligi;
- o'qitish va tarbiyalash jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, shakl, metod va vositalarning o'zgarishi;
- metod va vositalarning amalga oshirishning qay darajada murakkabligi;
- har bir o'quvchining oila, ota-ona, aka-uka, do'stlari, mahallasi, o'qituvchisi, maktabi, sinfi, guruhi, vataniga ixlosi;

- har bir o'quvchining bilim, mehnat, qaysidir ish, kimnidir qutqarish, himoyalash, yordamga hamma vaqt tayyor bo'lishiga, mardlik, jasurlik ko'rsatishiga intilganligi;
- har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, aqliy, ruhiy, xulqiy va jismoniy tomonlarini qay darajada o'sib borishi;
- har bir o'quvchini uning bilimi, saviyasi, qobiliyatlari bilib olib qaysi andozada o'qitish va tarbiyalash mumkinligi;
- o'quvchi kamolotiga ta'sir etuvchi irsiyat, oila sharoiti, atrof-muhit aniqligi;
- bilim, ko'nikma va malaka o'zlashtirish qobiliyati darajasi.

Mazkur quyida ishlab chiqilgan metodlarga tayangan holda ish yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Kasbiy pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari yosh avlodni tarbiyalash, o'z kasbiga bilimlarni qay darajada o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan tashqi va ichki aloqa va munosabatlarni tarkib toptirishga, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ajratishga, bilim berish va tarbiyalashning optimal yo'llari, metod va vositalarini ilmiy tekshirishlar o'tkazib aniqlashga yordam beradi.



Pedagogik kuzatish - odatda pedagogik kuzatish ma'lum reja asosida o'tkaziladi. U orqali o'quvchilarga aytmasdan va sezdirmasdan ularning bilimlarni o'zlashtirishlarini, ularning xulq-atvori va xususiyatlarining o'zgarishlarni, qobiliyatlarining o'sishlarini, qo'yilgan maqsad amalga oshayotganligini, shaxsiy farqlarini aniqlash, qiyoslash, hisobga olish va biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish uchun tashkil etiladi hamda tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'lida metod va vositalarni belgilash uchun qo'llaniladi. Kuzatish orqali to'plangan materiallar o'rganiladi va tadqiqotchini u yoki bu pedagogik xulosalar qilishiga zamin yaratadi. Bunda kuzatishlar davomiyligi va soni, kuzatish ob'yekti, vaqti, yig'ilgan dalillar

tahlil qilinadi va qiyoslanadi, Nihoyat, kuzatish natijalariga qarab, pedagogik vaziyatlarni ijobiy tomonlarga o'zgartirish uchun kerakli tavsiyalar taqdim etiladi. Pedagogik kuzatish metodi bevosita va bilvosita kuzatish turlariga bo'linadi. Bevosita kuzatish metodi biror-bir hodisaning oqibatlarini, o'quvchining shu vaziyatda bo'lgan xatti-harakatlari, so'zlari haqidagi aniq materialni o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, boshqa shaxslar orqali yoki video, diktofonni qo'llashi bilan o'rganib olishga imkon beradi. Bilvosita kuzatishda to'g'ri, ob'yektiv natijalar olish uchun shaxsan tadqiqotchi pedagog o'zi ishtirok qilib, bor ish, hodisa va vaziyatlarni, kerakli o'quvchilar xatti-harakatlarini o'z ko'zi bilan kechiradi.

Suhbat metodi - maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar, tanish va notanish odamlar bilan maktab va boshqa ta'lim muassasalarida, xonadon va ko'chada, transport yoki biron tashkilotda yakka, guruhli yoki ommaviy tarzda qo'yilgan pedagogik masalalarni aniqlash uchun olib borilganda qo'llaniladi. Har bir pedagogik maqsadga yo'naltirilgan suhbat tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rganini bildiradi. Jumladan, suhbat mazmunli va maqsadga muvofiq o'tishi uchun avvalambor quyidagi masalalar yechishi talab etadi:

- suhbat rejasini tuzish, uni amalga oshirish yo'llarini belgilash;
- qo'yilgan masalalarga oid kerakli savollarni topish;
- suhbatni o'tkazish joyi va vaqtini belgilash va erkin, do'stona gaplashishga qulay sharoitlar (shinam joy, chiroyli musiqa, yorug'lik, guldastalar va h.k.) yaratish;
- suhbatdoshlarning soni, yoshi, kasbi, bilim va madaniyat darajasi va hulq-atvorini, umuman kimligini oldindan bilish yoki aniqlab olish, suhbat chog'ida shularni unutmaslik;
- suhbatga madaniy chaqirish, taklif qilish yoki suhbat qilishni so'rash, iltimos qilish;
- suhbatda tashqi ko'rinish va o'zini madaniy tutishi, mazmunli so'zlari bilan suhbatdoshlarni lol qoldirish;
- o'zi va suhbatdoshidan mahmadona va bachkana bo'lmasligini so'rash, bor savollarini aniq va ravon qo'yish;
- muomala ohangini ijobiy to'g'irlash, jiddiy tusda gapirish;
- suhbatning qaysi bir daqiqasida uni kerakli, maqsadiy tomonga yo'naltira olishni bilish, suhbatdoshning ayni paytdagi ruhiy holatini sezib, suhbatni shunga moslashtirish, o'zgartirish yoki mutlaqo to'xtatish.

Tekshirayotgan suhbatdosh bilan bevosita og'zaki suhbat tarzida aloqada bo'lish paytida uning javoblarini ko'pincha yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi. Lekin bu pedagogik tadqiqotga yo'naltirilgan suhbat erkin suhbat emas, savollarni oldindan belgilangan izchillikda bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar suhbatdoshlarning roziligi bilan video yoki diktofonga yozib olinadi. Suhbat natijalari tahlil qilinadi, qiyoslanadi, umumlashtiriladi, tegishli xulosalar chiqariladi, ular qo'shimchalar bilan pedagogik jarayonga kiritish yoki kiritmasligiga tavsiya beriladi.

Bolalar ijodini o'rganish - bunda o'quvchilarning o'ziga xos faoliyatlariga, shaxsiy bilim, malaka va qobiliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalar yasaladi. Har bir inson bu bir katta mo'jiza va bir dunyodir. U hayotga kelishi bilanoq xudo, tabiat bergan, ota-ona qoni bilan kelgan nafaqat o'z tashqi ko'rinishi, balki qobiliyatlari, intilishlari bilan boshqalardan farqlanadi. Shunga qarab har bir o'qituvchining vazifasi - bolaning o'zini nimalarga tortilishini topib, shu xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishini ta'minlab berishi darkor. Bolalarning qaysi ijodga mansubligini aniqlashda pedagogik tadqiqotlar va tahlillar o'tkaziladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun ularning turli daftarlari, tutgan kundaliklari, bayon va insholari, yozilgan ertak, hikoya va she'rlari, to'qilgan mato va tikilgan kiyim - bosh kiyim - oyoq kiyimlari, chizilgan rasmlari va ishlagan fotosuratlari, tuzilgan asbob-uskunalar va apparat yoki mashina-mexanizmlarning maketlari, matematika formulalarni yechishga yangicha yondoshuvlari, fizika - ximiya - biologiyadan o'tkazilgan tajriba-sinovlari, ona yurtimizning turli joylariga sayr qilishlari, arxeologik qazishlarga ishtirok etishlari, tarixiy meros va yodgorliklarimizni astoydil o'rganishlari, majlis va munozaralarda so'zga chiqishlari va sahnada she'r aytish va spektakl qo'yishlari, musiqa bilan shug'ullanishlari, jismoniy tarbiya va sport biron turi bilan mashg'ulotlari, sataroshlik, o'yni bezatish, pazandachilikka o'rinishlari, o'ydagi hayvonlari, bog'i va polizlariga qarashlarini o'rganishi hizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish, tahlil qilish va baholash uchun mamlakatimizda tugalmaydigan ravishda har bir maktabdan tortib respublika miqyosigacha ko'p fan va san'at olimpiadalari, tanlov va festivallar, konsert va ko'rgazmalar, musobaqa va ijodiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Bularning natijasi yoshlar orasidan qobiliyatli, salohiyatli, zukko, bir ishga ixlos qo'ygan, intilishlari zo'r o'g'il va qizlarimizni aniqlab olishdir. Bu aynan tadqiqotchi pedagoglarning ishidir. Keyingi bosqichda yoshlarning iste'dodlarini o'stirish uchun har bir ta'lim muassasida dastur, reja, moddiy va ilmiy sharoitlar tuzilgan, maxsus maktablar va to'garaklar ishlamoqda.

Test, so'rovnomalar metodi - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi, ta'lim-tarbiyada faol qo'llanilmoqda. So'rovnoma, ya'ni anketada yaratilgan ilmiy farazning dolbzarligi va yangiligini aniqlash, o'quvchilarning bilimini va saviyasini aniqlash, ularning fikrlarini, qarashlarini, qaysi fanlarga va qanday kasblarga qiziqishlarini, qaysi darsda qanday usullar bilan ishlash, qanday vositadan foydalanish, qanday o'yin qilish foydali, unumli va qiziqarli o'tadi, qaysi adabiy kahramon, ishchi, shifokor, olim, san'atkor, o'qituvchi, o'quvchi, sportchidan o'rnak olsa arziydi, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi. So'rovnomalar oila, sinf, guruh, maktab jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda qo'llaniladi, ularning materiallari munosabatlarning shakllanishidagi turli bosqichlarni ta'riflovchi to'siqlar va faol holatlarni ko'rsatadi.

So'rovnoma metodlaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir. Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir. Test yordamida sinov o'quvchi yoki o'qituvchining bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholash imkonini beradi. So'rovnomalarda javoblarning ta'rifi va miqdori oldindan nazarga olinmasada, test so'rovlarda - savollar muayyan tarzda ifodalanib, taklif qilinayotgan javoblardan bir yoki bir nechtasini tanlab olishni nazarda tutadi. Test yordamida so'roq o'tkazish yana bir ijobiy tomoni - testni ommaviy tarzda o'tkazsa bo'ladi, chunki bilimni baholash jarayonini kompyuter yordamida avtomatlashtirish mumkin. Bundan tashqari, test savollari va masalalarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, uning qiska va lo'ndaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning o'quvchilarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning javobni topishda nafaqat bilim, balki diqqat, xotira, sezgirlik va topqirliklar qo'l keladi. Test sinovlarni o'tkazishda o'quvchi-talaba va o'qituvchi orasidagi noxush psixologik to'siqlar yo'qoladi. Barcha o'quvchi-talabalarga beriladigan imtihon sharoitlari vaqti, variantlarning murakkablik darajasi, baholash mezonlari deyarli bir xil bo'lishiga erishiladi. Test savollari o'quvchilarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi. Test sinovini oliy, o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlariga reyting nazoratlarida qo'llash ijobiy natijalar bermoqda. Test natijalarini avtomatlash-tirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, o'quvchilarning qaysi fandan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uni darhol muassasaning o'zida tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Test sinovlarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi berilayotgan savollar shakli va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

B) Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Eksperiment, tajriba - sinov metodi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi - qator yillar davomidagi materiallarni o'rganish maktab, litsey, kollej o'qituvchi, murabbiy, metodist, psixolog, o'quvchining faoliyatini ta'riflab berish uchun benihoyat qimmatli ma'lumot beradi. Har bir ta'lim muassasining arxivida saqlanib kelayotgan o'zining tarixiy qiymati baland xalq maorifiga oid hujjatlar, kafedra, bo'lim, fakultet xujjatlari hozirgi vaqtdagi pedagogik jarayon holatini, uning o'tmishdagi holatdan farqli o'laroq qiyosiy tarzda yorituvchi aniq ilmiy ahborot to'plashga, har bir o'quvchi-talaba shu yerda tahsil olayotganda har bir qadamini bilib olishga imkon beradi. Shu materiallardan pedagog tadqiqotchi o'quvchilarning umumiy miqdori, ijtimoiy tarkibi, ularning o'sishlari yoki kamayish sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi, a'lochi va qoloqlar, iqtidorli, olimpiada qatnashchilari har bir o'quv yiliga qarab soni, muassasaning ilmiy-pedagogik va moddiy baza bilan ta'minlashini aniqlab olishi mumkin. Tadqiqotchi pedagog maktab holatini va unda

tashkil qilgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishda o'qituvchilar ishini aks ettiruvchi materiallar, ya'ni davlat ta'lim standartlari, o'quv mashg'ulotlarning jadvallari, o'quv tartibi qoidalari va nizomlari, o'quv reja, dastur, konspekt, ma'ruza matni, bo'lim, kafedra, fakultet, pedagogik kengashining bayonnomalari, yoritilgan darslik va qo'llanmalar, o'qituvchi, kurator, metodist, psixolog, tarbiyachilar o'quv-tarbiyaviy ishlari to'g'risidagi kundalik va hisobotlarni so'rab tadqiqiy o'rganadi va taqqoslaydi.

Eksperiment, tajriba - sinov metodi - ushbu tajriba asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment bu ham kuzatish metodiga yaqin, lekin bularning bir-biridan farqi shundaki, pedagogik kuzatishda toza, ob'yektiv natija olish uchun hech kim mazkur jarayonga aralashmaydi, eksperimentda esa tadqiqotchi pedagog aralashadi, muayyan sharoitlar yaratadi, pedagogik jarayonga yangiliklar kiritadi, uni bir necha marta qayta-qayta takrorlaydi. Eksperimental tekshirish har doim yangi tajriba o'tkazishni nazarda tutadi. Bu tajribaning mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonining o'tkazish sharoitini o'zgartirishdan iborat bo'ladi. Pedagogik eksperiment maqsadi dastlabki o'qitish yoki tarbiya holatini o'zgartirishda darsga kiritilayotgan aniq metod va vositalar, tanlangan materiallar muhimligini belgilab qo'yishdir. Pedagogik eksperiment o'tkazishdan avval tadqiqotchi pedagog shu ish yuzasidan oldiga qo'ygan ilmiy tushunchalar asosida maqsad va vazifalarni aniqlab olishi kerak. Masalan, faraz (o'rta tashlangan yangi fikrni qanday holatda pedagogik jarayonni o'zgartirishda qaysi ijobiy natijalarni kutmoqda); tadqiqot ob'yekti (qaysi ta'lim muassasasida qaysi fan bo'yicha va qaysi bosqichdagi pedagogik jarayon); tadqiqot predmeti (shu fanning qaysi o'quv material bo'yicha ishlamoqchi); tadqiqot dolzarbligi (bu tadqiqot ilmga, ta'lim-tarbiya tizimiga qaysi oziqa beradi); tadqiqot ilmiy yangiligi (tadqiqotchi o'zi o'ylab chiqqan qaysi fikr va g'oyalarni taqdim qilmoqchi); nazariy muhimligi (ilmni qanday rivojlantiradi); amaliy muhimligi (ta'lim-tarbiya amaliyotiga nima beradi).

V) Birdan - bir farqlanish. Birdan-bir o'xshashlik. Birga bo'ladigan o'zgarishlar. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish metodi. Matematika-kiberiyetika metodi.

Pedagogik eksperimentning quyidagi metodlar mavjud: birdan-bir **farqlanish** - yangi metod yoki vosita sifati tekshiriladi. Bunda eksperimentda ishtirok qiladigan o'quvchi-talabalar ikki, tarkiblari bilim-malaka bo'yicha teng o'quvchi-talabalardan iborat guruhga bo'linadi, birinchi, nazorat guruhida o'quv ish eskicha, yangi metod-vositani ishga kiritmasdan o'tkaziladi, ikkinchi eksperimental guruhda esa o'quv ish yoki aksincha, yangi metod-vositani kiritib o'tkaziladi. Sinovlar o'tish vaqti va mashg'ulotlar hajmi belgilanadi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili yangi metod-vosita ijobiy ta'sir etishi qanchaligini ko'rsatadi. Bunday pedagogik eksperiment ko'zda tutilgan maqsadga qarab uch bosqichga bo'linadi:

1) Ta'kidlovchi bosqich - hozirgi kunda mavjud bo'lgan pedagogik vaziyat o'rganiladi;

2) Nazorat bosqichi - eksperimentda ishtirok qiladigan o'quvchi-talabalar bilim-malakalari tekshiriladi va ikki, tarkiblari bilim-malaka bo'yicha teng o'quvchi-talabalardan iborat guruhga ajratilgan hola o'rganiladi;

3) O'qitish bosqichi - taqdim etilgan faraz bo'yicha yangi metod-vositlardan iborat pedagogik jarayon yaratiladi va muhimligi tekshiriladi. **Birdan-bir o'xshashlik** - ikki yoki bir necha guruhlarda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalar darajalarini tekshirish maqsadida darslar turli metod-vositlar asosida o'tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalar darajalar qanchaligi va sifatini ko'rsatadi. **Birga bo'ladigan o'zgarishlar** - ikki yoki bir necha guruhlarda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalar darajalarini o'zgartirish maqsadida yangi metod-vositani kiritilib o'tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalar darajalar o'zgarishlar qanchaligi va sifatini ko'rsatadi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi - respublikamizda har bir tashkilot va ta'lim muassasasining o'zining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Davlat xalq xo'jaligi rejalariga asoslanib, ta'lim muassasalari ajratilgan kapital mablag'larning doimiy o'sib borishi, maktab binolari va ularning jihozlari, kabinet, kompyuter xonalari va laboratoriyalari, muassasa xududi, sport maydoni va stadionlari, kutubxonalari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ko'rgazmali qurollarini ko'payishi, yaxshi saqlashi va ta'mirlashi, o'quvchi-talabalar soni, o'qituvchi kadrlar soni va ilmiy darajalari, muassasa qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'larni o'rnatilgan tartibga ko'ra tasarruf etishi qonun va qonun osti hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Bularning hammasi - davlat, jamiyat, xalq nazoratida bo'lib va ishni doimo yaxshilash uchun statistik ma'lumotlarni jamlash va aniqlash tashkiloti orqali aniqlanadi. Tadqiqotchi pedagog uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish - ta'lim-tarbiya jarayoniga bularning alohida qaysi biri yoki majmua holatda ta'sir ko'rsatishini aniqlash va pedagogik jamoaga tavsiyalarni berish ko'rsatib o'tilgan.

Matematika-kiberiyetika metodi - Ta'lim-tarbiya nazariyasi hozirgi kunda hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida o'zining ko'p ilmiy tadqiqotlarini olib bormoqda. Tadqiqotchi pedagoglar o'zining ilmiy ishlarida dasturli ta'lim, o'qitishni mustahkamlash, reyting va testlar orqali baholash, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish va mashina orqali boshqarish to'g'risida ko'p qimmatli tavsiyalar bermoqda. Bundan tashqari, har bir ta'lim muassasasidagi kompyuterlarda o'quvchi-talabalar to'g'risida kerakli ma'lumotlar mavjud. Masalan, o'quvchi-talabalar shart-sharoitlarni, yutuq va kamchiliklarni bilish, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlar

darajasi, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professor-o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, qo'llanilayotgan testlar muhimligi, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, talabalar stipendiyasi miqdori, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, o'quvchi-talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib yetishida hal qiluvchi omillar, o'quvchi-talabalarning onglik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo'lgan salbiy sifatlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati haqidagi o'quvchi-talabalarning fikrlari va munosabati kabi masalalar kompyuterlarda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi. Bundan maqsad, barcha o'quvchi-talabalarni bilim, saviya, aqliy salohiyati, ruhiy va jismoniy salomatligi, hozirgi ehtiyojlari va dunyoqarashlarini ilmiy o'rganish hamda vaqtida kerakli tajriba va amaliyotlar o'tkazishdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogikaning barcha ilmiy - tadqiqot metodlarini ta'riflab bering. Pedagogik kuzatish. Suhbat metodi. Bolalar ijodini o'rganish. Test va so'rovnomalar metodlarini izohlang.

2. Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Eksperiment, tajriba - sinov metodi qanday metod hisoblanadi?

3. Birdan - bir farqlanish. Birdan-bir o'xshashlik. Birga bo'ladigan o'zgarishlar. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi. Matematika-kiberiyetika metodining ta'limdagi o'rni qanday?

III-BO'LIM. KASBIY PEDAGOGIKA O'QITUVCHINING KASBI TO'G'RISIDA

Ta'lim maktab va universitetlarda berilmaydi. Ular faqat unga kalitdir. To'liq ta'limni hayot beradi yoki bermaydi: buni esa qanday odam istasa.

Fayzulla Xodjayev

13. O'qituvchilik kasbining mashaqatli va sharafliligi tomonlari.

- A) O'qituvchilik kasbining mashaqatli-pedagogik faoliyati.
- B) O'qituvchi va murabbiy. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbi.
- V) Jismoniy tarbiya- pedagogik fan. O'qituvchi va murabbiyning mahorati.

Tayanch so'zlar: *kasb, faoliyat, o'qituvchi, murabbiy, jismoniy tarbiya, sport, mahorat.*

A) O'qituvchilik kasbining mashaqatli-pedagogik faoliyati.

O'qituvchilik kasbi to'xtovsiz rivojlanib bormoqda, kengaymoqda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mehnati o'z mazmuni, jihati bilan chuqur aqliy mehnatdir. Har bir tarixiy davr o'ziga muvofiq pedagogikani yaratadi. Insoniyat o'z taraqqiyotida qanchalik olg'a qarab borsa, jamiyatning, halqning ta'lim-tarbiya to'g'risida fikr va g'oyalari ham shunchalik ko'p ilgarilashadi. Jamiyat tuzumi qanchalik yuqorilab borsa, maktab va o'qituvchining jamiyatdagi ahamiyati ham shunchalik ortadi. Hozirgi O'zbekiston jamiyatining yangi, mustaqillik davrida ta'lim-tarbiya tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinadi. Islom Karimov o'zlarining ma'ruzalarida "Hayotimizni hal qiluvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor qonun loyihalari ham bor", - degan edilar.

Maktab va boshqa o'quv yurtlarda har bir fanni o'qitish, shu fan bo'yicha bilim va malakalarni amalga oshirish murakkab va ko'p qirrali masaladir. Shu borada jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilik kasbi ham boshqa kasblar singari o'zining murakkab, qiyin, mas'uliyatli va faxrli kasblardan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, kishilarning mehnat faoliyatlari bir qancha xilma-xil turga ega bo'lishi, ulardan har biri muayyan o'rinda turishi va har biri o'ziga xos vazifani bajarishi bilan, ular bitta narsa bilan uzviy bog'liqdir. Har bir odam o'zini salomatligiga, ruhiy va jismoniy kuch-quvvatiga amal qilishi darkor. Odamizot qayerda mehnat qilmasin, sanoat, iqtisodiyot, halq va qishloq ho'jaligidagi ishlab chiqarish sohasidami, kishilarning ehtiyojni qondirish uchun uchunmi - yangi hodisalar va yangi qonunlarni kashf etishi, puxta va samarali ishlash uchun u sog'lom va baquvvat bo'lishi kerak. Inson faoliyatining barcha turlari bir necha narsalar bilan o'zaro dialektik bog'langan.

Bulardan biri - jismoniy tarbiya va sport. U hayot va mehnatimizni ijobiy to'ldiradigan va kuchli ta'sir etadigan tugalmas jarayonidir.

Pedagogik faoliyat - maxsus tayyorlangan, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, yosh avlodga ajdodlarimizdan kelgan hayotiy tajribani o'rgatish, ya'ni ta'lim-tarbiya berish borasida har kuni shug'ullanadigan mutaxassislarning mehnat faoliyatidir. O'qituvchi va murabbiylarning kundalik va har tomonlama faoliyati yangi, mustaqil davlat quruvchi va uni ijod etuvchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchi va murabbiyning yangi insonni tarbiyalash, unda ijobiy xislat va sifatlar tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga, o'z tabiati va faoliyatiga ko'ra, eng murakkab vazifadir. Jismoniy tarbiya - pedagogik fan. Bu fan odamning jismoniy tarbiya va sport orqali jismoniy, aqliy va ruhiy shakllanishida kattalar va bolalarning psixologik, biologik, anatomik va fiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadi. Ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Jismoniy tarbiyadagi kasbiy pedagogika fanining mavzu bahsi nafaqat sog'lom balki ham anomal bolalar va kattalardir. Anomal odamlar - bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, maxsus yordamga muhtoj odamlar. Jismoniy tarbiyadagi kasbiy pedagogika fanining vazifasi - jismoniy madaniyatning kelib chiqish sabablari, turlarini, bolalar, yoshlar va kattalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, shular asosida ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etish, ularning jismoniy tarbiyasi bo'yicha pedagogik tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy tavsiyalar berish bilan shug'ullanishdir. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashda odamning o'ziga xos xususiyatlari nihoyatda murakkab ekanligini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi spetsifik qonunlar ish ko'radi.

B) O'qituvchi va murabbiy. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbi.

O'qituvchi bevosita moddiy mahsulot yaratib bermaydi, balki o'quvchi-talaba shaxsini tarkib toptiradi. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi ham bolalarning sog'lom o'sishlari va kamol topib borishlari uchun, baxtli hayot kechirishlari, mustaqil hayotda o'z o'rnini topib ketishlari uchun kerak bo'lgan hamma zaruriy tadbirlarni ko'radi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligini faqat layoqatli va tanlangan odamlargina egallashlari mumkin. Jamiyat, xalq va hayotning o'zi jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbiga eng yuksak va murakkab talablar qo'yadi. Chunki bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash, ta'lim berish, ularning jismoniy madaniyatini o'stirish, sportdagi qobiliyatlarini rivojlantirish, jismoniy kamchiliklarini iloji boricha korreksiyalash ishlarini amalga oshirish o'qituvchi va murabbiyning mahorati, mehnatsevarligi, etiqodi, o'z shaxsiy namunasiga, uning xulq-atvori, hissiyotlari, dunyoqarashiga va axloqiy qiyofasiga asoslanadi. Tarbiya qonuniyati shundayki, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi darkor. Abdulla Avloniy "bitta yaxshi o'qituvchi yuz va minglarcha yaxshi odamlar

va bo'lajak mutaxassislardir va aksincha, bitta yomon o'qituvchi - jamiyatda o'nlar va yuzlarcha tarbiyalanmagan, hatto buzilgan odamlar demakdir" fikri jamiyat va millat kelajagi uchun aynan topib aytilgan.

Mutaxassis-pedagog shaxsini shakllantirish		
Rivojlanishda shaxs faoliyatining roli	Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishining o'zaro bog'liqligi	Rivojlanishda shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarining roli


Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbining muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jismoniy korreksiyalash ishi ularga ta'lim berishdek yagona bir jarayonga uzviy ravishda mazmunan qo'shilib ketadi. Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xarakterga ega. Maktab, litsey, kollej, oliy dargohda o'quvchi-talabalarni o'qitish sifati qanchalik yuqori bo'lsa, yosh avlodga tarbiya berish vazifalari shunchalik yaxshi va samarali hal etiladi. Har bir o'qituvchi faqat o'qituvchigina bo'lib qolmay, ayni bir vaqtda u ham o'qituvchi, ham tarbiyachidir. O'qituvchining ishi ijodiy xarakterga va ijodiy yunalishga ega. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchining bir-biriga bo'lgan murakkab o'zaro munosabatiga asoslanadi va bu munosabatning muayyan psixologik, axloqiy va ijtimoiy qonuniyatlari bor. Muayyan bir o'qituvchi bilan muayyan bir o'quvchi o'rtasida qanday konkret munosabat paydo bo'lishi va tarkib topishi, har bir o'qituvchi bilan bolalar jamoasining muayyan tarkibi o'rtasida qanday konkret munosabatlar tug'ilishi va o'sib borishi nihoyatda muhimdir. Bu jarayonni boshqara bilish o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi mutaxassisligi shu bilan xarakterlanadiki, u o'zining kundalik faoliyatida o'quvchilarning oilalari va jamoatchilik bilan hamkorlikda ish ko'radi. U hammavaqt ham hamkasabalar bilan bog'langan.

Bolalarni jismoniy tarbiyalash va sportga yaqinlashtirish manfaati maktab, oila va butun jamoatchilikning birgalikda ta'sir ko'rsatishini, maslahatlashib, birgalikda ishlashini talab etadi. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi o'z ishining mantig'iga ko'ra har bir o'quvchi-talaba yashayottan moddiy-maishiy sharoitni yaxshi bilishi lozim bo'lganligi, yosh avlodga tarbiya berishdagi umumiy ishga xudo bergan aqliy, ruhiy va jismoniy kuchlarini jalb eta bilishi lozimligi uchun ham uning ishi ancha murakkabdir. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi mutaxassisliginng o'ziga xos ayrim xususiyatlari haqidagi qisqa ta'rif ana shulardan iborat bo'lib, bularning hammasi birgalikda bu kasbning fazilati, go'zalligi va buyukligini tashkil etadi.

V) Jismoniy tarbiya - pedagogik fan. O'qituvchi va murabbiyning mahorati.

Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi ishi kishining psixik va badan tarbiya tizimi faoliyatiga yuklanadigan ishning kuchi, hajmi va ta'rifi e'tibori bilan nihoyatda sermehnat ishdir. O'qituvchining aqli, hissi, kuzatuvchanligi, ta'sir ko'rsatish kuchi, muomalasi, o'zini tuta bilish xislati, sabr-toqati o'sgan bo'lishi kerak. O'qituvchi nazariy bilimlarni chuqur va mustahkam egallashi kerak, ya'ni u ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy va amaliy asoslarini, o'qitadigan fanlar biologiya, bioximiya, anatomiya, fiziologiya, gigiyena, ijtimoiy va gumanitar fanlar, pedagogik, psixologik, tibbiyot fanlarini, madaniyat va san'atga yo'naltirilgan fanlarni egallagan bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmasdan, amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallashi zarur. Uning vazifasi pedagogik, psixologik va maxsus bilimlar asosida o'quvchi-talabalarni ilmiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantira bilish, dars va mashg'ulotlar bera bilish, tarbiyaviy ishlarni shaxsiy, guruhli va keng ko'lamli mashg'ulotlarni rejalashtira bilish, o'quvchi-talabalarning jamoa, xususiy faoliyatlarini tashkil eta bilish, ularning jamoa ishlarini tashkil qila bilish, pedagogik raxbarlik, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtira bilish va ularga rahbarlik qilish, jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni tashkil qila bilish, sport, turizm, amaliy ishlar va boshqa tarbiyaviy ishlarni olib borishdan iborat. Bu malaka va ko'nikmalarni hozirgi talabalar - bo'lajak jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiylari muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, maxsus fanlarni, ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'rganish yo'li bilan bilim, malaka va mahoratlarini oshirib boradilar.

So'nggi yillarda barcha oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosga doir fanlarni chuqur o'rganish, pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish masalalariga e'tibor kuchaydi. Bo'lajak o'qituvchilarga pedagogika, psixologiya, metodikaga doir fanlarni o'rgatish ko'lami yanada kengaydi.



Savol va topshiriqlar:

- 1.O'qituvchilik kasbiga izoh bering.
- 2.Pedagogik faoliyat asoslaridan qaysilarini bilasiz?
- 3.O'qituvchi va murabbiy shaxslarini ta'riflab bering.
- 4.Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchi va murabbiyi kasbi xususiyatlarini tahlil qiling.
- 5.Jismoniy tarbiya - pedagogik fan sifatida jamiyat tomonidan qaysi ahamiyatga ega?.
- 6.O'qituvchi va murabbiyning mahorati nimalardan iborat?

Inson eng ulugʻ, eng bekam-koʻst, eng mukammal mavjudoddir, agar yonida ustoz boʻlsayu quyoshdek yoʻl koʻrsatib tursa. Yan Amos Komenskiy

14. Umumiy oʻrta ta'limi muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari

A) Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining umumiy oʻrta ta'lim sohasidagi ishlari.

B) Umumiy oʻrta ta'limni boshqarish tuzilmasi va vazifalari. Umumiy oʻrta ta'limi hududiy boshqarmalari tuzilmasi va vazifalari.

V) Umumiy oʻrta ta'limi oʻquv yurtlari vazifalari va boshqaruv tuzilmasi.

Tayanch soʻzlar: umumiy oʻrta ta'lim, oʻrta maktab, boshqarish, tuzilma, vazifalar

A) Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining umumiy oʻrta ta'lim sohasidagi ishlari.

Oʻzbekistondagi barcha ta'lim muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni davlat tomonidan boshqariladi. Oʻzbekistonda boshqarishning ilmiy asoslari paydo boʻlishi oʻzining tarixiy ildizlariga ega boʻlgan. Uning asosiy tamoyillari shakllangani Sohibkiron Amir Temur imperiyasi davrida toʻla ifodalandi. Bu davrda fuqarolarning yuqori intizomi, xalqning ijtimoiy himoyasi va ravshanlik darajadagi boshqarish tizimi, yosh avlodning savodxonligi, kasbga ega boʻlishi, iqtidorli shogirdlarni tanlab ijodiy oʻstirishiga intilgan davlatning taraqqiyoti oʻrta asr davridagi boshqarish uslublari oʻzida eng ilgʻor gʻoyalarni mujassamlashtirilganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning negizida inson manfaatlarini yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri dunyoda buyuk davlat paydo boʻlishiga sabab boʻlgan.

Ma'lumki, boshqarish deb, koʻzda tutilgan maqsad uchun qilinadigan xatti-harakatlar tushuniladi. Inson va jamiyatning har qanday harakati va harakatni boshqarish tagida qoʻyilgan shaxsiy yoki ijtimoiy maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga amal qilinadi. Shunday ekan, boshqarish biror bir ish, xodisa, vaziyat, jarayonni davr talabiga mansubli bir tizimga oʻzgartirishi, bir qolibga solishi uchun qoʻllaniladi. Boshqariluvchi ish, xodisa, vaziyat, jarayon boshqaruvchi tizimning ta'sir koʻrsatishiga amal qilishi kerak boʻlgan qonun-qoidalariga, boshqarish tamoyillariga boʻysinadi. Barcha sohalardagi, shu jumladan, ta'lim-tarbiya islohotlarni amalga oshirishda boshqaruv apparatining roli muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv apparatining tuzilishi boshqaruv mexanizmlar orasidagi bogʻlanishlari bilan paydo boʻladi. Boshqaruv apparatining tizimi bir-biri bilan bogʻlangan teng huquqli birikmalar va boʻgʻinlar bilan toʻldiriladi. Tashkiliy qism boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismi va negizi sifatida maydonga chiqadi va mutaxassis kadrlarni boshqarish qonun-qoidalarini tartibga soladi. Shuning uchun

ham uning boshqaruv tizimidagi roli benihoya kattadir. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

1. Demokratik munosabatlarni uyushtirish.
2. Har bir rahbar siyosiy rahbardir, u birinchi navbatda Vatan va jamiyat manfaatidan kelib chiqib ish ko'rish.
3. Ishni davlat xalq xo'jaligi negizida rejali yuritish.
4. Ilmga asoslangan ish yuritish.
5. Kadrlarni to'g'ri tanlash va ularni to'g'ri boshqarish.

Boshqarishning vazifalari ham mavjud. Ular mutaxassislarning faoliyatini boshqarishini ob'yektiv qonun-qoidalar talablariga va, chuqur qarasak, shu qonunlar belgilab beradigan jamiyat taraqqiyoti talablariga muvofiqlashtirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy-siyosiy qonunlarning mohiyatini, ularni amal qilish sharoitini bilish ilmiy asosda boshqarishni tashkil etishning eng muhim omili hisoblanadi. Boshqarishning quyidagi vazifalari amal qiladi:

1. Ishni rejalashtirish va uni jamoada muhokama qilib, tahlil qilish va umumlashtirish;
2. Ishni reja asosida muvofiqlashtirish;
3. Tajriba-sinovlar asosida o'zgartirishlar kiritish.
4. Ish bajarishini nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 28-moddasida "Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin" deb takidlangan. Shunday ekan, ushbu ta'lim muassasalarining har biri uning rahbari (direktor, rektor) boshqarishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda ta'limni boshqarish tizimi benihoyat yuksak ijtimoiy masala xisoblanib, davlat xarakteriga ega. Bu jarayonga hamma hukumatning mahalliy organlari va ularning vakillari jalb etiladi. Ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari va fondlar ta'limini boshqarishda ishtirok etmaydilar. Ularning ishtiroki xalq ta'limini moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashga ma'lum darajada imkoniyat tug'diradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida ta'lim turlari bayon etilgan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi.

Umumiy o'rta ta'limini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday davlat organlariga quyidagilar kiradi:

Butun O'zbekiston Respublikasi xududida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi;

Butun O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim vazirligi;

Viloyat, shahar, tuman xududlarida mahalliy davlat hokimiyati organlari va xalq ta'limi hududiy (viloyat, shahar, tuman) boshqarmalari;

B) Umumiy o'rta ta'limni boshqarish tuzilmasi va vazifalari. Umumiy o'rta ta'limi hududiy boshqarmalari tuzilmasi va vazifalari.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:

Umumiy o'rta ta'limi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Umumiy o'rta ta'limi sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish; Umumiy o'rta ta'limi muassasalarini tashkil, qayta tashkil etish va tugatishni belgilash; Umumiy o'rta ta'limi muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagog-ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash; Boshqa davlatning ta'lim muassasalariga respublikamizning hududida umumiy, o'rta va oliy ta'limi faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

Umumiy o'rta ta'limi qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning to'g'ri ekanligini qayd etish tartibini belgilash; Umumiy o'rta ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash; Umumiy, o'rta va oliy ta'limi davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; Umumiy, o'rta va oliy ta'limi muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; Ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash va umumiy o'rta ta'limi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Umumiy o'rta ta'limni boshqarish tuzilmasi



Halq ta'limi vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Umumiy o'rta ta'limi sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish ;

Umumiy o'rta ta'limi muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi davlat ta'lim standartlari, o'quvchilarning bilim saviyasi va mustaqil hayotga tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limidagi o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularni malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi ta'limi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish;

Umumiy, o'rta va ta'limi bolalar bog'chasi va maktablarning turlarini va yo'nalishlarini belgilash, ularni respublika xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda oqilona joylashuvni ta'minlash;

Bolalar bog'chasi va maktablarning loyihalash va qurilishga buyurtmachi vazifani bajarish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi mavjud o'quv yurtlarini qayta tiklash va kapital ta'mirlash sifatini ta'minlash;


Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishni nazorat qilish;

Bolalar bog'chasi va maktablar uchun pedagogik xodimlarni tanlab olish, ularni tayyorlash, malakasini oshirish, malaka darajasida faoliyatlarini nazorat qilish;

Malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha mamlakat va dunyodagi ilg'or tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirish, moddiy va ta'limiy bazasi sifatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqarish;

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi bolalar bog'chasi va maktablarini axborotlar bilan ta'minlash, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish hamda o'quv jarayoniga joriy etishni tashkil qilish;

Bolalar bog'chasi va maktablar faoliyatlarini boshqaradigan me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqarish;



V) Umumiy o'rta ta'limi o'quv yurtlari vazifalari va boshqaruv tuzilmasi.

Mahalliy davlat hokimiyatlari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

Umumiy, o'rta va oliy ta'limi muassasalarni faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

Umumiy o'rta ta'limi xududiy muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar, ularning nizomlarini ro'yxatga oladilar;

O'z hududlardagi ta'lim muassasalarni vakolat doirasida moliyalashini belgilaydilar;

Ta'lim sifatida va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishni ta'minlaydilar;

Davlat o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarini tayinlaydilar.

Umumiy o'rta ta'limi hududiy boshqarmalari viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari tarkibida tashkil etiladi, boshqariladi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligiga yoki boshqa vakolatli vazirlik va idoralarga bo'ysunadi. Ular **quyidagi vazifalarni bajaradilar:**

Umumiy o'rta ta'limi muassasalari faoliyatlarni muvofiqlashtirish, boshqarish va uslubiy ta'minlash;

Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarni amalga oshirish;


Bolalar bog'chasi va maktablarining qurilishi, binolar va inshootlarni qayta tiklashni tashkil etish va nazorat qilish;

Umumiy o'rta ta'limi muassasalari mujassamlashuvini, patronat va vasiylikni ta'minlash.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, mavjud bolalar bog'chalari va umumiy o'rta maktablarni qayta o'zgartirish hamda yangi tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Umumiy oʻrta ta'lim muassasalarni darsliklar, oʻquv adabiyotlari va didaktiv materiallar, shuningdek kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va jihozlash. Hududiy boshqaruv organlari, umumiy oʻrta ta'limi darajasiga qoʻyiladigan talablarga oʻquv yurtlari tomonidan rioya qilinishga javob beradilar va ularni nazorat qiladilar, bolalar bogʻchasi va oʻrta maktablarga ularning faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli tashkiliy-huquqiy yordam koʻrsatadilar, hudud, ishlab chiqarish va oʻquv yurtlarining rivojlanish manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon yaratadilar.

Viloyat, shahar, tuman xalq ta'limi boshqarmasi tuzilmasi



Umumiy oʻrta ta'limini boshqarish tuzilmasining tayanchli boʻgʻini bolalar bogʻchasi va umumiy oʻrta maktablar xisoblanadi. Shunday qilib, umumiy oʻrta ta'limini boshqarish tuzilmasi uch darajali hisoblanadi (respublika, hududiy va oʻquv yurtining oʻzi). Umumiy oʻrta ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni ta'limga oid qonunlar, qonun osti me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat nizomlarida koʻrsatilgan. Umumiy oʻrta oʻquv yurtlarida birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga javobgar boʻlgan mustaqil boʻlinma (tashkiliy shakli va kimga boʻysunishdan qat'iy nazar) sifatida, oʻquv jarayonini boshqarish, xoʻjalik-moliyaviy faoliyat va boshqa kasbiy tayorgarlikning zaruriy darajasini ta'minlaydigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

Umumiy oʻrta ta'limi oʻquv yurtlari oldilarida quyidagi vazifalar qoʻyilgan:

- oʻquv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish boʻyicha ishlarni olib borish;
- oʻquv rejalari tuzilmalarni va dastur mazmunini belgilash;
- davlat ta'lim standarti, oʻquv reja va dasturlar asosida barcha fanlar boʻyicha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va nazorat qilish;
- oʻqituvchilarning bilim-saviyasini oshirish uchun qoʻshimcha tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish va boshqa xizmatlarni amalga oshirish, bu borada ilmiy-amaliy pedagogik tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
- darsdan tashqari va oʻquvchilar mustaqil ishlar faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;


- o'quvchilar ta'lim-tarbiyasini uzluksiz nazoratga olish va yosh avlod o'sishini, komil inson shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash borasida barcha ijobiy hatti-xarakatlarni ishga solish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga oid pedagogik kengashlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, ma'ruzalar va tajriba almashuvlarni uyushtirish va o'tkazish, ilg'or o'qituvchi-murabbiylar yuksak tajribasini uzaytirish;

- jamiyat, maxalla va o'quvchilar ota-onalari bilan hamma vaqt aloqada bo'lib, tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish;

- moliyaviy mablag'larni taqsimlash va sarflash masalalarni mustaqil hal qilish.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (o'rta maktab) boshqaruv tuzilmasi



Mustaqil O'zbekiston ona-yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ko'p jihatdan zamon talabiga javob beradigan maktab koshonasidan katta hayotga chiqib ketayotgan o'qimishli va ma'naviyatli o'quvchilarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Bunda jamiyat, maxalla, oila va, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining roli katta. Xalq ta'limning asosiy maqsadlaridan biri, o'quvchilarda zamonaviy fikrni shakllantira beradigan, ta'lim-tarbiyada yangicha usullarni qo'llay oladigan, shuningdek pedagogik ilmi sirlarini o'tkaza biladigan, samarali nazariy va amaliy bilimlar berishda muvafaqiyatli ishlaydigan muallim-ustozlarni e'zozlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, malaka oshirishga ko'maklashishdan iboratdir.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi hukumatining umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ishlarini ta'riflab bering.

2. Umumiy o'rta ta'limni boshqarish tuzilmasi va vazifalari nimalardan iborat?

3. Umumiy o'rta ta'limi hududiy boshqarmalari tuzilmasi va vazifalari nimalardan iborat?

4. Umumiy o'rta ta'limi o'quv yurtlari vazifalari va boshqaruv tuzilmasi nimalardan iborat?

Past zotlik ijtimoiy chiqishdan emas, balki nodonlikdan kelib chiqadi.

Iogann Pestalotssi

15. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari

A) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari.

B) O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.

Tayanch so'zlar: *o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji.*

A) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish respublika qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday davlat organlariga quyidagilar kiradi:

Butun O'zbekiston Respublikasi xududida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi;

Butun O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim xalq ta'lim vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim vazirligi;

Mahalliy davlat hokimiyati organlari (Toshkent shahar va viloyatlar hokimiyatlari);

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:

Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

Ta'limini rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;


Ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagogik-ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

Boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
 davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
 davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
 davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
 ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish tuzilmasi



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:
 ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yogga chiqarish;
 ta'lim muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish;
 davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
 o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish;
 o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
 ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi nizomlarni tasdiqlash;
 pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularni malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xuzurida Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazi tashkil etilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish;
 akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning turlarini va yo'nalishlarini belgilash, ularni xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olib joylashuvni ta'minlash;

akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarni loyihalash va qurilishga buyurtmachi vazifani bajarish;

mavjud o'quv yurtlarini qayta tiklash va kapital ta'mirlash sifatini ta'minlash;

davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishni nazorat qilishni ta'minlash;


akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari pedagog va mutaxassis-pedagoglarni tanlab olish, ularni tayyorlash malakasini oshirish, malaka darajasida faoliyatlarini nazorat qilish;

malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha mamlakatdagi va dunyodagi ilg'or tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining moddiy va ta'limiy bazasi sifatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqarish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarni axborotlar bilan ta'minlash, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish hamda o'quv jarayoniga joriy etishni tashkil qilish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarni faoliyatlarni boshqaradigan me'yoriy aktlar loyihalarni ishlab chiqarish;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tuzilmasi



B) O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.

Mahalliy davlat hokimiyatlari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

Ta'lim muassasalarni faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

ta'lim muassasalarini tashkil etadilar va tugatadilar, ularning nizomlarini ro'yxatga oladilar;

o'z hududlardagi ta'lim muassasalarni vakolat doirasida moliyalash miqdorini belgilaydilar;

pedagoglarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishni ta'minlaydilar;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimiyatlari tarkibida

tashkil etiladi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (markaz)ga bo'ysunadi.

Ular o'z tuzilmasiga ega bo'lib, quyidagi funksiyalarni bajaradilar;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish, boshqarish va uslubiy ta'minlash;

davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish;

akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarining qurilishi binolar va inshootlarni qayta tiklashni tashkil etish va nazorat qilish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini iste'molchi korxonalar bilan (ularning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) mujassamlashuvini, patronat va vasiylikni tashkil etishni ta'minlash;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, mavjud akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini qayta o'zgartirish, hamda yangi tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

ta'lim muassasalarni darsliklar, o'quv adabiyotlari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va jihozlash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish tuzilmasining keyingi bo'g'ini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini o'quv yurtlari xisoblanadi.

Regional boshqaruv organlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi darajasiga qo'yiladigan talablarga o'quv yurtlari tomonidan rioya qilinishga javob beradilar va ularni nazorat qiladilar, litsey va kollejlarga ularning faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli tashkiliy-huquqiy yordam ko'rsatadilar, hudud, ishlab chiqarish va o'quv yurtlarining rivojlanish manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradilar.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni belgilangan qonun-qoidalarga ko'ra o'taydi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv yurti rahbari (direktor) bilan birga uning muovinlari boshqaradi. Kasb-hunar kollejlarda direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha va ishlab chiqarish ishlari bo'yicha muovinlari akademik litseydalarda esa direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovinlari faoliyat yuritadi.

O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlarida birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga javobgar bo'lgan mustaqil bo'linma (tashkiliy shakli va kimga buysunishdan qat'iy nazar) sifatida, o'quv jarayonini boshqarish, xo'jalik-moliyaviy faoliyat va boshqa kasbiy tayorgarlikning zaruriy darajasini ta'minlaydigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari darajasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

O'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha barcha ishlarni olib borish;

- o'quv rejalari tuzilmalarni va dastur mazmunini belgilash;


- korxonalar, bandlik xizmatchilar, xududiy boshqaruv organlari va boshqalar bilan sharnoma asosida ishchilar tayyorlash hajmlari va kasb-malaka tuzilmalarni belgilash;

- qo'shimcha tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish va boshqa xizmatchilarni amalga oshirish uchun korxonalar, hamda tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;

- mustaqil ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish;

- o'quv moddiy bazani kelgusida rivojlantirishini hisobga olib, moliyaviy mablag'larni taqsimlash va sarflash masalalarni mustaqil hal qilish.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasasi (akademik litsey, kasb-xunar kolejji) boshqaruv tuzilmasi



O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi o'rta maktab negiziga asoslanadi hamda ikki: akademik litsey va kasb-hunar kollej yo'nalishiga ega. Har bir akademik litsey o'rta maktabdagi fanlar majmuasini mujassamlashtirishga qaratilgan hamda o'z yo'nalishi bo'yicha (aniq, tabiiy yoki ijtimoiy-gumanitar fanlardan) fundamental nazariy va amaliy bilim beradigan majburiy ta'lim muddati uch yil davom etadigan tayanch o'quv mussasasidir. Litseydagi o'quv dasturini to'liq bajarilgandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat topshiriladi. Kasb-hunar kolleji - xalq xo'jaligining o'rta pog'onali aniq bir mutaxassislik bo'yicha hamda o'rta maktabdagi fanlar majmuasini mujassamlashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy bilim beradigan, o'rta maktab negzida majburiy ta'lim muddati uch yil davom etadigan tayanch o'quv mussasasidir. Kollej bitiruvchilarga o'quv dasturini to'liq bajarilgandan so'ng davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi aniq bir kasb-hunarni egallagan, mehnat faoliyatini o'z kasbi bo'yicha ko'rsatishi mumkin huquqini beradigan diplom topshiriladi. Litsey va kollej bitiruvchilarga ixtiyoriy ravishda davlat test sinovlarini ijobiy o'tganlaridan so'ng oliy o'quv yurtlariga tahsil olish huquqi beriladi.

Barcha o'rta maxsus. kasb-xunar o'quv yurtlarida o'qitish ishlari o'quv yil va semestrlarga (yarim yillik) taqsimlangan. O'quvchi semestr davomida ma'lum kurslar bo'yicha ma'ruzalar tinglab, ularni amaliy o'zlashtirib, ayrim mavzularga mustaqil

tayyorlanib, test va yozma ishlarni topshiradi va ularning belgilangan miqdorni bajarishi bilanoq shu semestr yoki o'quv yili ijobiy tugallashga olib keladi. Barcha o'rta maxsus, kasb-xunar o'quv yurtlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda o'z yo'nalishi bo'yicha tegishli vazirliklar tasarrufida bo'ladi. Biroq, ta'lim muassasalarining tashkiliy va uslubiy jihatdan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rahbarligida amalga oshiriladi. Litsey va kollejlarda rahbarlikni yirik mutaxassis, olim, tashkilotchilik va rahbarlik malakasiga ega bo'lgan direktor amalga oshiradi. Direktor barcha masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, uning o'rta maxsus ta'lim markazi, xokimiyat va o'rta maxsus ta'lim viloyat markazlarining tegishli bo'limlarida hal etadi, hisobot beradi. Direktorning yordamchilari: ma'naviyat-ma'rifat, o'quv, ishlab chiqarish, xo'jalik ishlari buyicha direktor muovinlari hisoblanadi.

Har bir o'rta maxsus, kasb-hunar dargohning eng yirik o'quv va ma'muriy bo'limi - bu bo'linmadir. Uni bo'linma rahbari boshqarib boradi. U bo'linmadagi o'quv-tarbiya ishlarini, metodik birlashmalar faoliyatini uyushtiradi, o'quvchilarni attestatsiyalardan o'tkazish, har bir o'qitilayotgan fan bo'yicha joriy, oraliq hamda yakuniy nazoratlar qilish, ularning ijobiy natijalarida kursdan-kursga ko'chirish, semestr va o'quv yillarni yakunlash, bitiruv ishlari himoya qilishlarni uyushtirish, o'quvchilarga davlat nomidan berkitilgan qonuniy tarzda moddiy yordamlar berish kabi ishlarni amalga oshiradi. Bo'linma rahbari va uning o'quv ishlari va ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha muovinlari o'quv yurti hayotida yetakchi vazifani bajaradilar. Bo'linma rahbari o'quv yurti ma'muriyati amalga oshirayotgan barcha ishlar yuzasidan bo'linmada nazorat qilish huquqiga ega bo'lib, butun jamoaning kuch-g'ayrati jamiyat oldida turgan ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashkiliy, xo'jalik va boshqa vazifalarni hal qilishga safarbar etadi. Bo'linmaning har bir kursida o'quvchilarning soniga qarab akademik guruhlariga bo'linadi. Har bir akademik guruhga o'quvchilardan biri guruh sardori qilib dekanat tomonidan tayinlanadi. Guruh a'zolari o'zlari kasaba uyushma a'zolaridan raisni, redkollegiya a'zolari, maishiy sektor va boshqlarni saylaydilar. Akademik guruhidagi o'quv-tarbiya ishlari, jamoa tashkilotlari faoliyatiga pedagogik rahbarlikni amalga oshirish uchun kafedra yetakchi a'zolaridan kurator tayinlanadi.

Har bir litsey va kollejning o'qituvchilar Hay'ati faoliyat ko'rsatadi va davlat, jamiyat, o'quvchi va o'qituvchilar hayotiga oid muhim masalalar o'qituvchilar xay'ati majlislarida muhokama qilinadi. Unga direktor raislik qiladi. O'qituvchilar xay'ati a'zolarinn bo'linma va metodik birlashma rahbarlari, yetakchi professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli, a'lochi, o'zlarini faol ko'rsatgan o'quvchilar tashkil etadi. O'quv yurti faoliyatida kasaba uyushma ko'mitasi ham faoliyat ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalarida har bir fakultetda kasaba uyushma tashkilotining raisi boshchiligidagi professor-o'qituvchi va talabalar mehnatini muhofaza qilish, salomatligiga va dam

olishlariga ko‘maklashish, moddiy ta‘minotini nazoratga olish va to‘g‘irlash ma‘lum ishlar amalga oshirib boriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtidagi o‘quv ishlari, ilmiy tadqiqotlar, o‘quv-metodik, ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy ishlarni metodik birlashmalar amalga oshiradi. Metodik birlashma rahbarli boshchiligida professor, dotsent, o‘qituvchi, assistent, kabinet mudiri va laborantlar ma‘ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish, mustaqil ishlar va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni o‘tkazish, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari rahbarlik qilish kabi ishlarni tashkil etadi. O‘qituvchilar o‘quvchilar orasida ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiya ishlarini amalga oshiradilar, o‘quv rejalari, dastur, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlarini ishlab chiqib, nashrga tavsiya etadilar. Ilmiy ishlar olib borish, o‘quvchilarga rahbarlik qilish, ularni sinovdan o‘tkazish, tavsiyalar berish; o‘quvchilarning ilmiy-amaliy ishlariga rahbarlik qilish, ilmiy pedagogik, ma‘naviy-ma‘rifiy bilimlarni targ‘ib etish kabi ishlar metodik birlashma tomonidan tashkil etiladi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi tenglashtirilgan. Ularning o‘quvchilari va bitiruvchilari oliy o‘quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo‘nalish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishda konststutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda teng huquqlidirlar. Shu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma‘lum ma‘noda farq qiladi. Akademik litseylar - o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal aqliy rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o‘qitishni ta‘minlaydi. Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Farzandlarimiz umumiy o‘rta maktab o‘qish jarayonida ma‘lum yo‘nalish bo‘yicha o‘zlarining iqtidorini, iste‘dodlarini namoyon qiladilar. Bu boyliqdan oqilona foydalanish, uni to‘g‘ri yo‘naltirish maqsadida litseylar aynan shu ehtiyojlarni amalga oshirishga, iqtidorli, iste‘dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kollejlari esa o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi. Bular eng avvalo o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilishdan boshlab, o‘quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezon va bir nechta kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo‘lib o‘qishni tamomlashidan iboratdir. O‘quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta‘lim standartlari, ya‘ni zamon talablariga javob beruvchi,

istiqbol va kelajakni ko'zlab ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlari oldingi o'quv bosqichi - umumta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsipiga amal qiladi. Zamonaviy bilim berish uchun o'qituvchilarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagog kadrlarning obro'-e'tiborini, ijtimoiy maqomini, mas'uliyatini, malakasini oshirishga va zamon talablariga mos holda tayyorlashga e'tibor qaratishgan.

Umumiy o'rta maktab 9 sinfi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijasiga binoan o'quvchi tomonidan yig'ilgan reyting ko'rsatkichlari o'quvchi akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejining ma'lum yo'nalishida o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari ta'riflab bering.

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni ta'riflab bering.

O'qish va vaqti-vaqti bilan eski bilimlarga qaytib takrorlab olish.

Fridrix Frebel

16. Oliy ta'lim muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari.

A) Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning maqsadi, vazifalari, funksiyalari, turlari.

Tayanch so'zlar: *oliy ta'lim, kasbiy pedagogika, faoliyat, maqsad, vazifalar, funksiyalar, turlar.*

A) Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning maqsadi, vazifalari, funksiyalari, turlari.

Oliy ta'limni boshqarish respublika qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday davlat organlariga butun O'zbekiston Respublikasi xududida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda butun O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim vazirligi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:

Oliy ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Oliy ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

Oliy ta'limni rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;

Oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

Oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagogik-ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

Boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;


davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;

davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.


Oliy ta'limni boshqarish tuzilmasi



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Oliy ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
 Oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish;
 davlat ta'lim standartlari, mutaxasislarning bilim saviyasi va kasb tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
 o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish;
 o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
 oliy ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi nizomlarni tasdiqlash;
 pedagog xodimlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
 davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
 loyihalarni ishlab chiqarish;

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi tuzilmasi




Kasbiy pedagogika fani boshqa pedagogik-psixologik fanlar qatorida barcha oliy o'quv yurtlarda o'qitilib, bakalavr - bo'lajak mutaxassis kadrlarni o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchilik mohirligini ko'rsatish uchun o'tiladi. Shu yo'nalishda bo'lajak o'qituvchi kasbiga oid shaxs hayoti, jamiyat va davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-madaniy faoliyati

xaqida ko'p axborotlarga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy yangilanishini, ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq, fuqarolik jamiyati qurmoqda. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va o'quv dasturlari asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Oliy o'quv yurtiga talabalar qabul qilish xalq, ho'jalikka kadrlarga bo'lgan ehtiyojga muvofiq davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida belgilanadi, xalq ta'limining o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan ehtiyojiga qarab tanlov asosida talabalikka qabul qilinadi. Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki: bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat yo'nalishi bo'yicha fundamental nazariy va amaliy bilim beradigan. ta'lim muddati to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrlik dasturi bajarilgandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan egallagan kasbi bo'yicha bakalavr darajasida davlat namunasidagi diplom beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati hamda o'z kasbi bo'yicha o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar muassasalarida o'qituvchilik bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Magistratura - anik, mutaxassislik bo'yicha global yondoshuvdagi aniq bir fanlar majmuasiga qaratilgan fundamental nazariy va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negnida ta'lim muddati ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati hamda o'z kasbi bo'yicha o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv muassasalarida o'qituvchilik, ilmiy izlanish bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Oliy o'quv yurtlari o'zining tuzilishi bilan maktablardan keskin farq qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi (oliy o'quv yurti) boshqaruv tuzilmasi



Barcha oliy o'quv yurtlarida o'qitish ishlari o'quv yil va semestrlarga (yarim yillik) taqsimlangan. Talaba semestr davomida ma'lum kurslar bo'yicha ma'ruzalar tinglab, ularni amaliy o'zlashtirib, ayrim mavzulardan mustaqil tayyorlanib, test va yozma ishlarni topshiradi va ularning belgilangan miqdorni bajarishi shu semestr yoki o'quv yili ijobiy tugallashga olib keladi. Barcha oliy ukuv yurtlari oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida. Institut, universitet va akademiyalarda rahbarlikni yirik olim, akademik yoki professor, fan doktori, tashkilotchilik va rahbarlik malakasiga ega bo'lgan rektor amalga oshiradi. Rektor rahbarligida ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha, o'quv ishlari buyicha, ilmiy ishlar buyicha, litsey va kollejlari bilan aloqa va hamkorlik ishlar bo'yicha, xo'jalik va kapital qurilish ishlari bo'yicha prorektorlar tomonidan boshqariladi. Har bir oliy dargohning eng yirik o'quv va ma'muriy bo'limi - bu o'quv-uslubiy bo'limlar, kafedralar va fakultet-lardir. Uni dekan boshqarib, rahbarlik qiladi. Dekan fakultetdagi o'quv-tarbiya ishlarini, kafedralar faoliyatini uyushtiradi, talabalarni attestatsiyalardan o'tkazish, har bir o'qitilayotgan fan bo'yicha joriy, oraliq hamda yakuniy nazoratlar qilish, ularning ijobiy natijalarida kursdan kursga ko'chirish, semestr va o'quv yillarni yakunlash, bitiruv ishlari himoya qilishlarni uyushtirish, talabalarga davlat nomidan berkitilgan qonuniy tarzda stipendiyalar va boshqa moddiy yordamlar berish kabi ishlarni amalga oshiradi, ularga rahbarlik qiladi. Har bir fakultetning ilmiy kengashi faoliyat ko'rsatadi. Unga dekan raislik qiladi. Fakultetning hayotiga oid muhim masalalar Ilmiy kengashda muhokama qilinadi. Fakultet kengashi a'zolarinn yetakchi professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli, a'lochi, o'zlarini faol ko'rsatgan talabalar tashkil etadi.

Oliy o'quv yurtidagi o'quv ishlari, ilmiy tadqiqotlar, o'quv-metodik, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni kafedralar amalga oshiradi. Kafedra umumiy fakultetlararo yoki fakultet qoshida bo'ladi. Kafedra mudiri rahbarligida professor, dotsent, o'qituvchi, assistent, kabinet mudiri va laborantlar ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish, mustaqil ishlar va pedagogik amaliyotga

rahbarlik qilish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni o'tkazish, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari hamda dissertatsiyalarga rahbarlik qilish kabi ishlarni tashkil etadi. Kafedra a'zolari talabalar orasida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya ishlarini amalga oshiradilar, o'quv rejalari, dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlarini ishlab chiqib, nashrga tavsiya etadilar, ilmiy ishlar olib borish, aspirant va doktorantlarga rahbarlik qilish, himoyaga tavsiya etish, sinovdan o'tkazish, tavsiyalar berish; talabalarining ilmiy ishlariga rahbarlik qilish, ilmiy pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni targ'ib etish kabi ishlar kafedra tomonidan tashkil etiladi. Fakultet dekani va uning o'quv ishlari va ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha muvoinlari oliy ukuv yurti hayotida yetakchi vazifani bajaradilar. Dekanat oliy dargoh ma'muriyati amalga oshirayotgan barcha ishlar yuzasidan fakultetda nazorat qilish huquqiga ega bo'lib, butun jamoaning kuch-g'ayrati jamiyat oldida turgan ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashkiliy, xo'jalik va boshqa vazifalarni hal qilishga safarbar etadi. Fakultetning har bir kursida talabalarining soniga qarab akademik guruhlariga bo'linadi. Har bir akademik guruhga talabalardan biri guruh sardori qilib dekanat tomonidan tayinlanadi. Guruh a'zolari o'zlari kasaba uyushma a'zolaridan raisni, redkollegiya a'zolari, maishiy sektor va boshqalarni saylaydilar. Talabalar guruhidagi o'quv-tarbiya ishlari, jamoa tashkilotlari faoliyatiga pedagogik rahbarlikni amalga oshirish uchun kafedra a'zolaridan kurator yetakchi tayinlanadi.

Oliy o'quv yurti miqyosidagi barcha masalalar Ilmiy kengashida muhokama etiladi va tegishli qarorlar chiqariladi. Ilmiy kengash a'zolarini dekanlar, kafedra mudirlari, yetakchi professor-o'qituvchilar tashkil etadi. Rektor barcha masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli bo'limlarida hal etadi, hisobot beradi. Universitet, institut, akademiya faoliyatida kasaba uyushma ko'mitasi ham faoliyat ko'rsatadi. Har bir fakultetda kasaba uyushma tashkilotining raisi boshchiligida professor-o'qituvchi va talabalar mehnatini muhofaza qilish, salomatligiga va dam olishlariga ko'maklashish, moddiy ta'minotini nazoratga olish va to'g'irlash ma'lum ishlar amalga oshirib boriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning maqsadini tahlil qilib bering.
2. Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning vazifalarini aytib o'ting.
3. Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning funksiyalarini izohlab bering.
4. Oliy kasbiy pedagogik faoliyatning turlari nimalardan iborat?

17. Shaxsning shakllanishigata'sir etadigan biologik, ijtimoiy muhit hamda ta'lim-tarbiya omillarining ahamiyati.


A) Shaxsning shakllanish va rivojlanishining omillari.

B) Biologik omil. Atrof-muhit. Ta'lim-tarbiya.

Tayanch so'zlar: *irsiyat, temperament, aqliy salohiyat, layoqat, tezlik, tushunish, o'zlashtirish, qobiliyat, iqtidorlik, talant, daholik, muhit, ta'lim-tarbiya*


A) Shaxsning shakllanish va rivojlanishining omillari.

O'zbekiston Respublikasi jamiyatida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, kamol topishi muhim muammolardan biri deb hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi shaxsning shakllanishi masalalariga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, uning xulq-atvori, saviyasi, qobiliyat va imkoniyatlarini va ularga ta'sir qiluvchi sabab va vositalarini bilishi zarur. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni to'rtta omil ta'sirida sodir bo'ladi.



Har bir kishi tirik maxluq bo'lib, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonuniyatlari, genetikadan kelib chiqib, yoshlar aqli, ruhiyati, anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Bolaning aqliy, ruhiy va jismoniy shakllanishi va rivojlanishi biologik omilga bog'liqdir. Biologik bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning aqliy, ruhiy va jismoniy salomatligiga tegishli nasl-nasabining roli va mazmun-mohiyatiga, albatta, alohida e'tibor berish darkor. Odam bolasi, birinchidan, butun insoniyat (odam anatomiyasiga bog'liq), ikkinchidan, otasonasi, bobo-buvilari (ajdodlariga o'xshash tashqi jismoniy ko'rinishi hamda aqliy va ruhiy xususiyatlari bilan), uchinchidan, xudo, tabiatdan (ajdodlarida bo'lmagan tashqi

jismoniy ko‘rinishi hamda aqliy va ruhiy xususiyatlari, qobiliyatlari bilan) berilgan xos tug‘ma tashqi va ichki xususiyatlar, xatto ayrim kasalliklar bilan dunyoga keladi. Tug‘ilgandan so‘ng bolada (aqliy va ruhiy sog‘lom tug‘ilgan bo‘lsa) shaxs bo‘lib shakllanishi, yetuk inson bo‘lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola o‘zining biologik belgilarni qabul qilib olib, birinchi kunlaridayoq aqliy, ruhiy va jismoniy-fiziologik tomonlari bilan o‘shini boshlaydi. Genetika fani odam rivojlanishining irsiy dasturini ochib berdi. Bu dasturga binoan odam bo‘lish umumiyligi va xususiyligini, insoniyat qabilasi davomiyligini va odam organizmiga yordam berayotgan tizimlarning rivojlanishini, faqat odamga mansub nutq, to‘g‘ri yurish, mehnat faoliyati va tafakkurini, miya va tana tabiiy o‘shini aniqlaydi, Ota-onalardan bolaga tashqi alomatlari, jumladan, badan, bosh suyagi va yuz tuzilmasining xususiyatlari, soch, ko‘z, teri ranglari, organizmdagi har xil oqsil modda birikmasi, qon guruhi, rezus-faktor hamda ruhiy jarayonlarini olib o‘tadigan nerv tizimining xususiyatlari va bir necha kasalliklar (qon kasalligi - gemofiliya, qand kasalligi - diabet, pakanalik va h.k.) o‘tadi .Avlodiga ota-onaning fan, san‘at, sport bilan shug‘ullanish, ko‘p kitob o‘qish, musiqa chalish, teatr sahnasida o‘ynash, o‘qituvchilik va murabbiylik qilish ijobiy ta‘assurot qoldiradi. Zero, aksinchasi, shular bilan shug‘ulanmaslik hamda ota-onaning alkogol va giyohvand moddalarni iste‘mol qilish, yuqumli va venerologik kasalliklarga uchratish, tamaki chakish, umumiysi - ma‘naviysizlik va sog‘lomsizlik turmush tarzini kechirish keyingi nasliga salbiy ta‘asurot qoldirmoqda. Mutaxassis-o‘qituvchi o‘quvchi bola shakllanishining irsiy masalalariga to‘g‘ri yondashishi hozirgi zamon pedagogikasi talab qiladi. Bolaning tug‘ma bo‘lgan **temperamenti**, aqliy salohiyati, biron ishga layoqatligi, bilimlarni o‘rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi, tushunish saviyasi va o‘zlashtirish darajasini birinchi kunlaridayoq tekshirib hamda bilib olishi shart. Bu organizm xususiyatlari har bir odamning gen kodida belgilangan. Masalan, bolaning ta‘lim-tarbiyasiga temperament turi (sanguinik, xolerik, flegmatik, melanxolik), uning mobil (faollik, chaqqonlik, tezlik, uyushqoqlik) yoki rigidligi (aksinchalari), ekstravertligi (dilkashlik, fe‘lining epchilligi, moslashmoqligi) yoki introvertligi (aksinchalari hamda kamtarlik, o‘zini yetarli darajada xis qiladigan) asabi mustahkam yoki mustahkam emasligi katta ahamiyat kasb etadi.




Qolgan bolaning xususiyatlari, uning qobiliyatlari deb hisoblasa bo'ladi, ya'ni: aqliy salohiyati: ish yuzasidan bir qolipdagi shart-sharoitlarda vazifani notaxlit yechish qobiliyati;

biron ishga layoqatligi: har bir shaxsda u yoki bu ishga aniq bir layoqati borligi aniqlangan bo'lib, uni topib to'g'ri o'stirish oila, maktab va jamiyat oldida muhim masala qo'yiladi. Ayni paytda, odamning layoqati aniq bir kasb yo xunarga emas, balki biron bir sohaga (aniq, tabiiy yoki ijtimoiy-gumanitar fanlar, madaniyat va san'at, ishlab chiqarish, xizmat qilish, ta'lim-tarbiya berish, davolash, jismoniy tarbiya va sport sohalaridan biriga) yo'naltirilgan bo'ladi;

bilimlarni o'rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi: kishilarning har birida bu bor sifati har hil bo'ladi va uch turga bo'linadi: tez o'rganadiganlar - ularga bu ishda vaqtning ozmunchasi yoki kerak emasdir (5% odamlar), sekin o'rganadiganlar - bularga esa bu ishda vaqtning ko'prog'i yoki ko'pligi kerak (90%), vaqtga qaramasdan o'rganmaydiganlar (5%);

tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi: kishilarning har birida bu bor ham sifatlari har xil bo'ladi va uch turga ham bo'linadi: reproduktiv - taqlid qilish, o'xshatish asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, produktiv - namuna asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, ijodiy - mantiq asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi.

Shuning bilan, odamning tug'ma sifatlari va qobiliyatlari quyidagilardan iborat:



Qobiliyatlar - bu har bir odamning biron-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga shaxsiy-psixologik xususiyatlaridir. Bu qobiliyatlar shaxsning bilim, ko'nikma va malakalariga mansub emas, ammo ularni hosil qilish tezligi va osonligiga aniq bir darajada yo'l beradi. Bu qobiliyatlarning shakllanishi va rivoji bolaning tug'ma alomatlaridan paydo bo'ladi. Alomatlar - bu qobiliyatlarning tabiiy dastlabki shartlari, qobiliyatlar rivojining tagida yotgan anatomik-fiziologik xususiyatlari. Alomatlar tug'ma bo'lib, o'zlari aniq emas, hech nimaga yo'llanmagan, ko'p ma'nolidir. Tabiiy alomatlardan odamda, mumkin qadar, masalan, rassom yoki, aksincha, olim qobiliyatlari o'sishi mumkin. Odam miyasining yuqori psixik funksiyalari aniq bir vazifaga qaratilgan bo'lmaydi. Ya'ni, bir necha bolalarning biron bir o'xshash fiziologik alomatdan har xil qobiliyatlar rivojlansa ayni muddaodir. Shuni aytish joizki, qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalar emas, balki ularni yaratadigan, imkon tug'diradigan xususiyatlardir. Bu yoki u qobiliyat har bir odamzotda bor, lekin uni topib, aniqlab to'g'ri o'stirish bilan u meva berishi mumkin. Shunda bu qobiliyatlar to'g'ri ta'lim-tarbiya berish va o'z ustida ishlash, katta mehnat qilish yuzasidan bola quyidagi yuqori darajalargacha chiqishi mumkinligini aytib o'tsak bo'ladi:

Iqtidorlik darajasi - umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'ziga kiritadigan birikmadir.

Talant darajasi - o'z ichiga mashhur mukamallik, zavqiy ergashtirish, yuqori serg'ayratlik, ajoyiblik, rang-baranglik oladigan iqtidorlikning yuqori darajasi.

Daholik darajasi - o'z ichiga antiqa, eng baland ijod, insoniyat oldin bilmagan bir nimani ochib berish yo'lida iqtidorlik va talant ko'rsatadiganning eng yuqori sifatli darajasi

Shaxs - ijtimoiy hayotning mahsuli bo'lib, u o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida muhit unga ijobiy va salbiy

ta'sirlar ko'rsatadi, bor qobiliyatlarini o'stiradi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi yoki ahti-paymon qiladi.

B) Biologik omil. Atrof-muhit. Ta'lim-tarbiya.

Muhit - bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqyea, vaziyat va hodisalar birikmasidir. Jumladan, shaxsning hayoti va faoliyati:

Tabiiy muhit - shahar yoki qishloq, tog' yoki tekislik, o'rmonzor yoki cho'l, suvdan ser yoki suvi kam xudud, iqlimi issiq yoki sovuq, quyosh yoki yomg'ir kunlari ko'pmi-kammi, ekologik toza yoki xavfli joy va boshqa.

Ijtimoiy muhit - shaxs yashayotgan davlat iqtisodiyoti, siyosati, jamiyatda o'rnatilgan xalqning turmush tarzi, iste'mol qiladigan narsalarning to'qligi, oladigan maosh yetarliligi, shaxs huquq, erkinlik va manfaatlarini muhofaza qilishi.

Oila muhiti - ota-onaning jismoniy va ruhiy sog'lomligi, oilada o'rnatilgan munosabatlar, bolaga nisbattan sevgi va hurmat izhori, oila a'zolarining kasblari va jamiyat oldidagi bor hurmatlari, madaniyat va san'atga intilishlari, oila ichida iqtisodiy va ma'naviy eson-omonligi.

Tashqi muhit - maxallada, qo'shnilar, ish va o'quv joylardagi jamoalar bilan munosabatlari, sinf va kursdoshlari, do'stlari bilan aloqalari, ularning manfaatlar va ular bilan qilinadigan xatti-harakatlari va ishlari.

Ommaviy ahborot vositalari muhitidan (radio, televizor, internet tarmoqlarining ahborot mazmun-mohiyatining ta'sirlari) tashkil topadi.

Odam shaxs bo'lishi faqat ijtimoiylashuv jarayonida, ya'ni boshqa odamlar bilan munosabatida o'tmoqda. Kishilar jamiyatidan tashqari aqliy, ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy shakllanish bo'lmaydi. Shu aytib o'tilgan muhitlar orasida shaxs rivojlanishiga, ayniqsa yoshlik chog'ida, katta ta'asurot, ulkan iz oila, o'y muhiti qoldirmoqda. Oila ko'pincha bolaning manfaat va ehtiyojlarini, dunyoqarash va qimmatli mo'ljallarini aniqlab beradi, bolaning tabiiy alomatlarini o'stirish chog'ida moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar tug'diradi. Oilada bolaning shaxsiy va ijtimoiy sifatlariga asos solinadi. Prezident Islom Karimovning aytishlaricha: "Sog'lom avlod orzusi ajdodlarmizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, yetti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz" Sog'lom bolaning tug'ilishi va o'sishi, eng avvalo, ota-onaning sog'ligiga, ular bir-biriga bo'lgan hurmat va ehtiromiga bog'liq. Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ammo uni voyaga yetkazish uchun aqliy, ruhiy va ma'naviy yetuk oila kerak, chunki faqat shunda ota-ona o'zini ayamasdan, butun hayotini bolaga baxshida etadi. Boshqacha aytganda, sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi, yaxshi farzand faqat uni sevadigan, hurmat qiladigan oilada katta bo'ladi. Oilaning sog'lomligini, undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-biriga diqqat-e'tibori, oila a'zolarini tushunishi, qo'llab-quvvatlashi o'zaro izzat-hurmati belgilaydi.

Muhitlar orasida iqtisodiy-siyosiy-ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Inson tug'ilgan kunidan boshlab ijtimoiy mavjudot bo'lib qoladi. Uning dunyoqarashi, xulq-atvori barcha ijtimoiy omillar yig'indisi, ya'ni tevarak-atrofdagi ishlar, g'oya va fikrlar, odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Jamiyatimizdagi ijtimoiy omillar yosh avlodning har tomonlama shakllanishiga ijobiy samarali ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekistonimizda xalqimiz qadriyatlari va zamonaviy talablarga bo'ysunish va bu borada ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, Konstitutsiyamiz va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rejalashtirilgan ulkan ishlarni tashkil qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Prezidentimiz "Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog'lom nasl, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman", deb ta'kidlaydi.

Yosh avlodning komil inson bo'lib yetishiga ta'lim-tarbiya, ya'ni pedagogik nufuzi, ta'siri eng kuchli ahamiyat kasb etadi. Irsiyat va muhit bolaga tasavvursiz ta'sir qilsa, pedagogik nufuz esa tarbiya oluvchi odam tasavvuri va tafakkuriga asoslanadi. Shuning uchun ham inson tarbiyasi murakkab va og'ir ish bo'lib, u har bir oila, har bir o'qituvchi-murabbiydan, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Faqat o'qitish va tarbiya berish orqali insondagi rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Shaxs rivojlanishi masalalari O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bolaning tug'ma xususiyatlari hamda muhitdagi voqyealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit bera olmagan yoki undan kelgan salbiy narsalar ta'lim-tarbiya orqali o'tdi. Ta'lim-tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni o'zgartirib kamolga yetadi. Ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday o'quvchi faoliyati (o'qish, maktab va uy mehnati, maktabdan tashqari faoliyat, mustaqil ishlar, to'garak va sport seksiyalarga qatnashish va b.q.) shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya bilan rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda ta'lim-tarbiya muammolari to'g'ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga to'g'ri va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kamol topgan shaxs ta'lim-tarbiyaning imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya samarali rivojlantiruvchi omil bo'lmog'i uchun o'qituvchi-murabbiy jamiyatning ta'lim-tarbiya oldiga qo'ygan talablarini bajarish jarayonida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. O'quvchi-talabaning xususiyatlarini hisobga olish uning xususiyatiga moslashish emas, balki shu davrdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarni tashkil etish demakdir. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashning yutug'i o'qituvchining har xil yoshdagi bolalar o'rtasidagi

tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog'liqdir. Bu borada o'qituvchi-murabbiy maktabgacha yoshdagi va maktab hamda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning yosh davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmog'i lozim. Biroq, tarbiya - rivojlantiruvchi manbaa emas, bu faqat tug'ma, tabiiy alomatlarining rivojlantiruvchi asosiy omilidir. Faraz qiling, odam va maymun bolalarini mutlaqo bir xil sharoitlarda o'stirsak, tarbiyalasak, maymun bolasi bir, ikki, o'n yildan keyin o'zining aqliy va ruhiy xususiyatlari bilan odam bolasiga o'xsharmikan? Albatta, yo'q, irsiyat o'z so'zini bu yerda aniq ayta oladi: maymun odamday fikrlashni ham, gapirishni ham, o'zini tutishini ham o'ziga qamrab olmaydi.

O'quvchi-talabaning rivojlanishida o'z-o'zini boshqarish ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bola intilishi uning bilimlarni o'zlashtirishi, tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib qoladi, unda shaxsiy va ijtimoiy xulq me'yorlari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, uning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. U ulg'aya borgan sari uning faoliyatga intilishi ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa mehnat faoliyati turlari ham o'zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlariga intilishlari katta ahamiyatga egadirlar. Bu borada mehnat insonning aqliy, ruhiy, jismoniy hamda ma'naviy kamol topishida muhim manba bo'ladi. Mehnat jarayonida odam o'zining nimaga qodir ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Mehnat orqali shaxsning aqliy va axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. U o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadi. O'z-o'zini tarbiyalashga oila, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchi shaxsning o'z-o'zini boshqarishiga yordam sifatida boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur.

Shaxs, uning temperamenti, aqliy salohiyati, biron ishga layoqatlighi, bilimlarni o'rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi, tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, xarakteri, xulq-atvori, umuman aqliy, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatlidir. Shu sababli rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, bunda qiyinchiliklar sodir bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi va murabbiylar o'quvchining ehtiyojlarida, intilish va qiziqishlarida uning muayyan rivojlanish davridagi belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi bilan ijobiy sifat o'zgarishlarini hayotga chaqirib muntazam ishlashi darkor. Shaxs kamoli, uning shakllanishi va rivojlanishi - bu maqsad, uni ta'lim-tarbiyasi esa - vositadir.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Shaxsning shakllanish va rivojlanishining omillarini ta'riflab bering?
- 2.Biologik omil. Atrof-muhit. Ta'lim-tarbiya nima?

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-bet
-------------	-------

I-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA

1.O‘zbek milliy pedagogikasining komil inson ta'lim-tarbiyasida tutgan o‘rni.....	6-bet
2.Sharq allomalarining ta'lim-tarbiyaga doir fikr va g‘oyalari.....	13-bet
3.Chet el pedagogikasi ta'lim-tarbiyani rivojlantirish va kasb ta'limi haqida.....	19-bet
4.O‘zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish yangi bosqichlari.....	25-bet
5.O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy modeli va kasbiy ta'lim.....	30-bet
6.O‘zbekistonda komil insonni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport o‘rni.....	36-bet

II-Bo‘lim. KASBIY PEDAGOGIKA FANINING ILMIY ASOSLARI

7.Kasbiy pedagogika fanining ob'yekti va predmeti.....	43-bet
8.Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriya va tushunchalari.....	50-bet
9.Kasbiy pedagogika fani maqsad va vazifalari.....	56-bet
10.Kasbiy pedagogikaning tarkibiy tuzilishi.....	60-bet
11.Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	66-bet
12.Kasbiy pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari.....	72-bet

III-BO‘LIM. KASBIY PEDAGOGIKA O‘QITUVCHLIK KASBI TO‘G‘RISIDA

13.O‘qituvchilik kasbining mashaqatli va sharafliligi tomonlari.....	80-bet
14.Umumiy o‘rta ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari.....	85-bet
15.O‘rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari.....	92-bet
16.Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruv tizimlari.....	100-bet
17.Shaxsning shakllanishiga ta'sir etadigan biologik, ijtimoiy-muhit hamda ta'lim-tarbiya omillarining ahamiyati.....	105-bet.